Harakatlarning turlariga nisbatan turizm marshrutlarining tasnifi. Harakatlarning turlariga nisbatan turizm marshrutlarning tasnifini quyidagi holda o'rganish mumkin:

Piyoda – (walking or hiking tour) – turistik yo'nalishlari. Traking tour – piyoda yo'nalish yoki sayr qilish turizmidir. Odatda yo'nalishning uzunligi 2-6 km.dan hattoki 20-50 km.gacha cho'zilishi mumkin.

Hayvonlar bilan harakatlanadigai marshrutlar (fil, tuya, eshak, ot, itlarda). Norse riding tour - ot bilan sayr qilish turistik marshruti keng tarqalgan. Turistlar texnika vositalari bilan borish qiyin bo'lgan tabiatning diqqatga sazovor joylariga ana shu vositalar yordamida borishlari mumkin.

Temiryo'l turistik marshruti (rail adenture tour) – bunda turistlar safar davomida ko'pgina joy va mintaqalar bilan tanishadilar, bu davrda ular vagonlarning juda ham qulay kupelarida yashaydilar, ko'chib yuruvchi restoranlarda ovqatlanadilar. Harakatlanishning asosiy qismi kechasi amalga oshiriladi, kunduzi esa turistik dasturida ko'zda tutilgan markaziy mahalliy diqqatga sazovor joylarni, muzeylarni va boshqa ob'ektlarni ziyorat qilishadilar. Rossiyada katta shaharlar bo'ylab temir yo'l turistik marshruti keng tarqalgan (Sankt-Peterburg – Novgorod – Pskov – Moskva yoki Sankt-Peterburg – Omsk – Irkutsk). O'zbekistondagi temiryo'l tizimidagi islohotlar natijasida, Toshkent – Samarqand – Buxoro – Xiva – Shahrisabz shaharlariga tez yurar poezdlarda sayohatlarni amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Turistik poezdi tarkibiga yotoq vagonlaridan tashqari vagon – restoran, vagon-klub, vagon - dushlar ham kirishi mumkin.

O'zbekiston turizm tarmog'idagi turistik turlarning umumiy hajmdagi ulushlari



*DTJ - Bojxona statistikasiga ko'ra doimiy turar joyi O'zbekistonda bo'lgan fuqarolar.

Avtobusli marshrutlar – bunda turistlar mamlakatlarni, butun turistik destinatsiyalarni bir punktdan ikkinchi punktga harakatlanib kesib o'tadilar, umuman turistlar avtobuslarda juda oz uxlaydilar, asosan uxlash uchun qimmat bo'lmagan mehmonxona yoki otellar kuzda tutiladi, ammo bugungi kunda maxsus yotoqli avtobuslar ham mavjud.

Shaxsiy yoki ijaradagi avtomobillardagi turizm (self drive itineraries) o'z mashinasidan ajralmagan holda sayohat qiladigan turistlar guruhi ham mavjud. Ular bir qancha tranzit vizalar olib, murakkab marshrutlar bo'ylab bir necha mamlakatlarni kesib o'tishadi, ayrim vaqtlarda ular mashinalari orqasida ko'chib yuruvchi uylarni sudrab yuradilar, unda ular taom tayyorlashadilar, ovqatlanishadilar va tunashadilar. Bunday turistlar uchun maxsus avtokempinglar va

karvonlar uchun to'xtash joylari o'rnatiladi. Self drive tour – turizm, bunda turist avtomobilni ijaraga olishi yoki kelishilgan marshrut bo'yicha o'zining shaxsiy mashinasida harakatlanishi mumkin. Turistik agentlar kempinglarda turar joylar, otellar, oziq-ovqatlar buyuradilar, xaritalar yetkazib beradilar, bir qancha qulay va qiziqarli safar marshrutlarini taklif etadilar, transport sug'urtalarini rasmiylashtiradilar.

Suvda sayohat qilish marshrutlari – (water tour) shulardan eng ko'p tarqalgani suv sayyohligi (boat tour) - qayiqlarning har xil turlarida, yaxtalarda, poroxod-kemalarda sayr qilib, dam olishni o'z ichiga oladi.

Havo orqali tashish turizmi. Tashishning kattagina qismini havo orqali tashishlar tashkil etib, ular uzoq masofalarga tashishga asosiy e'tiborni qaratadi. Bundan tashqari qit'alararo, okeanlar orqali tashish ham kiradi. Yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan yuqori tezlikka ega va xavfsiz havo laynerlarining yaratilishi bilan turistlarni qit'alararo tashish ortib bormoqda. Turistlarni tashishda mavjud marshrutlar bilan bir qatorda "charter" yo'nalishlari ham amalga oshiriladi. Tashish tizimida mahalliy aviatsiyaning ham roli katta, unda mamlakat ichidagi ko'pgina marshrutlar va uzoq masofaga cho'zilgan hududlarda turistlarni samolyotlarda tashish ko'zda tutiladi.


Ko'pgina turistik safarlar turli xil transport vositalar orqali amalga oshiriladi. Turistlarni uzoq masofalarga tashishda ko'pincha havo transporti vositalaridan foydalaniladi. Turistlar uzoq masofadagi dam olish joylariga borishda vaqtni tejash maqsadida samolyotlardan foydalanadilar.

Misol uchun, dastlab La-Mansh bo'g'ozidan sayyohlik avtomashinasi Stena Link nomli dengiz solida olib o'tiladi, so'ngra temir yo'l platformalariga yuklab belgilangan manzilga yetkaziladi. Turistlarning o'zlari shu poezdning yotoq kupelariga joylashadilar. Avtomashinalarni joyida ijaraga olish ham keng tarqalgan. Xizmatning shunday turistik paketlari mavjudki, ular samolyotlarda tashish va avtomashinalarni aeroportning o'zida ijaraga berishni – (fly/drive tour) o'z ichiga oladilar, avtomobillarni ijaraga berish – (rent a car) ko'pgina

rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan. Rossiyada ham avtomobillarni ijaraga berish firmalari mavjud, ammo ular faqat chet elliklarga beradilar. Hozirgi kunda Respublikamizda turistlar uchun mashinalarga ijaraga berish yo‘lga qo‘yilib kelinmoqda.

Turizm turlarining ko‘rinishlari. Turistik oqimlarning yo‘nalishi bo‘yicha turizm turlari “Kiruvchi” va “Chiquvchi” toifalariga bo‘linadi. Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda turizm uyg‘un holatda taraqqiy etadi, “ichki” va “tashqi” turizm sohasida muvozanat saqlanadi.

Talab nuqtai nazaridan turizmning uchta turini ko‘rsatish mumkin: ichki, kiruvchi va chiquvchi turizm. Geografik prinsip asosida turizm sohasining tasniflanishi bo‘yicha xalqaro, milliy va mamlakat chegarasidagi ichki turizm turlari mavjud (3.2-rasm).



3.2-rasm. Turizmning turlari bo‘yicha tasniflanishi

Hozirgi kunda Rossiyada 10 nafar chiquvchi turistga, 1 nafar ichki turist to‘g‘ri keladi.

2018 yilda O‘zbekiston bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, har 6 nafar chiquvchi turistga, 1 nafar ichki turist to‘g‘ri kelgan.

Turizm bozorini muvofiqlashtirishda Butunjahon turizm tashkiloti (BTT) ishlanmalari bo'yicha qo'yidagi proporsiya tavsiya qilinadi:

1 ta kiruvchi turist- 1 ta chiquvchi turist- 4 ta ichki turist.

Bu proporsiya BTT tavsiyalari bo'yicha eng optimal nisbat hisoblanadi, uni amalga oshirish uchun turistik faoliyatini tartibga soluvchi tegishli qonunlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilishga to'g'ri keladi.

Turizmning xilma-xilligi uning bosh maqsadiga bog'liq holda quyidagi ko'rinishlarga ajratiladi:

1. Dam olish yoki rohatlanish, ko'ngil ochar tur - rleasure tour, delights tour. Bu turistik dam olish va turistik sayohatning keng tarqalgan turidir.

2. Dam olish va sog'lomlashtirish maqsadidagi kurort – resort or health, resort or resort-spa.

Sog'lomlashtirish va davolash maqsadlarida qilinadigan turizm – health and fitnes tour or resort tour. Spa yoki health spa – sanatoriylar, kurortlar, pansionatlar sog'lomlashtiruvchi-davolovchi tashkilotlar, kurort zonalarida, shifobaxsh suvlar, shifobaxsh balchiqlar va boshqalar yordamida (shifobaxsh mineral suvli kurortlarda) olib boriladi. Turistik prospektlarda ixtisoslashtirilgan sog'lomlashtirish maqsadlariga qarab, kempinglarda mineral suvlarni ichish yoki mineralli va oltingurgutvodorodli vannalar qabul qilish imkoniyatlarini belgilaydilar. Mashhur chet el shifobaxsh suvli kurortlaridan - Vishi, Vittel va Eks-le-Ben (Fransiya); Bad-Naukeym, Visbaden va Baden-Baden (Germaniya); Bad-Ishl, Bad-Gastayn va Baden-bey-Vin (Avstriya); Spa (Belgiya); Bat va Bakston (Buyuk Britaniya); Bursa (Turkiya); Atami (Yaponiya) Termal buloqlarining kattagina qismi Gresiya va Vengriyada taniqlidir.

O'zbekistonda ham uning boy tabiati va iqlimidan kelib chiqqan holda, Farg'ona vodiysida joylashgan «Chortoq», «Shohimardon», «Arslonbobo», «Oltiariq», Samarqand viloyatida joylashgan «Nagorni», Buxorodagi «Moxi-xossa» va Toshkent viloyatida joylashgan «Chinobod», «Chimyon» hamda «Turon» kabi mineral suv

bilan davolash hamda dam olish imkoniyatiga ega bo'lgan sanatoriylar, dam olish oromgohlari mavjud.

Ko'ngil ochar turlar (entertainment) – turizm dasturlarida ma'lum ma'noda turistlar uchun qo'shimcha xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan. «Turistning yaxshi ko'ngil ochishi» uchun xizmatlarning barcha qirralarini ochishda yordam beradi. Bu faol o'yinlar (golf, kriket, kegli), otlarda sayr qilmoq, attraksionlarga borish (tematik bog'lar, masalan, Disneylend, Delfi kari, zooparklar), restoranlar, dangsinglar, disko klublar, magazinlar, kazino va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Xorij mutaxassislarining fikricha, 110 dan ortiq keng qo'llaniladigan turizm amaliyotidagi ko'ngil ochar turlar mavjud.

Familiarization trip yoki famtrip, ya'ni tanishtiruvchi, reklama safari. Marshrutni qaytadan batafsil ishlash va uning shartlari bilan tanishish uchun reklamali sayohatlarga asosan turli dilerlar va turoperatorlar yoki turistik agentliklar ishchilari borishadilar. Ular butun marshrutni to'laligicha bosib o'tishadi va yashash sharoitlarini, ekskursiya dasturlarini, ovqatlanish asosini, transferi, madaniy va ko'ngil ochar dasturlarni aniqlashadilar. Ularni mahalliy sharoitlar, udumlar, meditsina va sug'urta xizmatlari, jinoiy holatlar va boshqa kritik holatlarda davlat organlari bilan birgalikda olib boriladigan ishlar haqida to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlaydilar. Qoida bo'yicha tanishtiruvchi turizmga ma'lum chegirmalar beriladi yoki bunday turizm to'laligicha qatnashuvchi kompaniya tomonidan to'lanadi. Ba'zi mamlakatlar, masalan, Isroil qabul qilish bo'yicha turistik faoliyatni faol qo'llab-quvvatlab, tanishtirish bilan bog'liq safarlarni davlat byudjetidan dotatsiyalaydi.

O'rganuvchi turizm (sonnoisscur tour). Turizm markazlariga biror narsa o'rganish uchun borishdan iborat. Bular dunyoga mashhur Nyu-York (har yili 32 mln.dan ortiqroq turist bu yerga o'rganish maqsadida borishadi), Parij, Madrid, Rim, Peterburg, Qoxira, Singapur, Gongkong, Rio-de-Janero, Samarqand, Buxoro va shu kabi shaharlardir. Turistlarning qiziqish ob'ekti bo'lib qadimgi joylar, muzeylar, haykallar, shaharlarning chiroyli landshaftlari xizmat qiladi.

Qishloq turizmining rivojlanishi. Qishloq turizmi (farm tour,

riral tour). Dam olish vaqti har qanday shaharlik uchun qishloqdami yoki dala hovlidami juda ham maroqli hisoblanadi. Bu hayot talabi bo'lib, doimo dala hovlilarini yoki boshqa joylarni ko'p yillar davomida sinalgan va tekshirilgan joylarda dam olish uchun ijaraga olinadi. Qishloq turizmining o'ziga xos tomonlari shundaki, masalan, Sitsiliyaning agrar viloyatlarida ishchi kuchi yetishmasligi tufayli kambag'al turistlar yoki studentlarni ish haqi to'lamasdan, boshpana va ovqat uchun ishga yollashi mumkin. Bunday «dam oluvchi» o'sha yerga borib qaytishi uchun mablag' topsa bo'lgani. Yo'l-yo'lakay bir-ikki kun plyajlarda cho'milishi, muzeylarni, yodgorliklarni va boshqalarni ko'rishi mumkin.

Hozirgi vaqtda qishloq turizmi alohida daromad keltiradigan tur hisoblanib, dunyo turizm xizmat bozorida alohida o'rin tutadi.

Qishloq turizmi dengiz kurortlari kabi katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham, shunga qaramay turizm ishlarida alohida o'rin tutib, uni o'rganib rivojlantirish alohida e'tiborga loyiq. Respublikamizda qishloq turizmi endigina rivojlanib bormoqda. Qishloqlardagi aholinig samimiyligi, tabiatning tozaligi, ekologik jihatdan qulayligi tufayli uning kelajagi bor. Lekin, shunga qaramay, xorijiy turoperatorlarning fidoyiligi, turistlarni o'z qishloqlariga tortishi, turistlarni o'z xalqining va davlatining rivojlanishi uchun olib kelishi, ish joylarini tashkil etishlari, o'z yurtining turistik resurslarini mustahkamlab, davlatga valyuta olib kirishlari va shu daromadlaridan soliqlar to'lab xazinani to'ldirishlari taxsinga loyiq. Umuman qishloqlarda turist bo'lib turish, sanatoriy-kurort zonalarida yoki mashhur turistik markazlarga nisbatan ancha arzon. Hamma ham qimmatbaho turistik markazlarda dam ola olmaydi, shu jihatdan qishloq turizmini rivojlantirish katta ahamiyatga ega.

Qishloq turizmi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- qishloq joylarda alohida kategoriya odamlar uchun ularning pul mablag'lari miqdoriga qaramay, oilasining an'analarga qarab amalga oshiriladi;

- vrach maslahatiga binoan qishloq iqlim sharoitlarida sog'lomlashtirishni olib borishga qarab;

- tabiat bilan yaqinlik, ko‘proq vaqtni toza havoda o‘tkazish maqsadida;

- ekologik toza va arzon mahsulotlar bilan oziqlanishi mumkinligi uchun;

- qishloq xo‘jaligi ishlari bilan band bo‘lishi, ishlash uchun real imkoniyatlar borligi uchun;

- boshqa ijtimoiy toifadagi odamlar bilan muloqotda bo‘lishi, ularning madaniyati, urf-odatlari bilan tanishish, bayramlari va o‘yinlarida qatnashish imkoniyatining mavjudligi uchun.

Qishloqda dam olish – bu tabiat qo‘ynida bo‘lish, yillar davomida shahar sharoitida yig‘ilib qolgan charchoqlarni chiqarish, toza havo, ekologik toza bo‘lgan oziq-ovqatlar, iqlim sharoitlarini o‘zgartirish, aholi sonining kamligi, boshqa tartib-qoida va yashash madaniyati, qishloq xo‘jalik ishlarida ishtirok etish, bog‘dorchilik, chorvachilik, tabiat bergan in‘omlarni to‘plash va qolaversa, dam olishning arzonligidan iborat. Shulardan kelib chiqib, bu turizm turi o‘z harakteriga ko‘ra ekologik turizmning bir ko‘rinishiga kiradi.

Shahar aholisining yozgi issiq kunlardagi va qishki qorli kunlardagi xordiq olishlarini to‘g‘ri tashkil etish imkoniyati mavjudligini e‘tiborga olib, qishloq turizmini Respublikamiz hududida quyidagi tarzda tashkil etish tavsiya etiladi: katta bo‘lmagan uylarni, qishloqlardagi katta bo‘lmagan xonalarni, kottejlarni, tabiat manzaralari chiroyli bo‘lgan joylarni ijaraga olish yo‘li bilan.

Turistlar qishloqdagi fermerning uyida oilasini joylashtirishi maqsadga muvofiqdir, bu – turistlarni qishloq hayoti va u yerdagi yangi insonlar bilan yaqindan tanishtirishga, ularning urf-odatlari va qishloq xo‘jalik ishlari bilan kuchi yetgan darajada ishlashga imkon beradi. Shubhasiz, bu uy egalari uchun noqulayliklar yaratadi, lekin fermerlar uchun qo‘shimcha pul va yangilik olib keladi. Bunda turistlar uchun maxsus bir yoki bir necha xona ajratilib, barcha zaruriy narsalar yetkazib beriladi. Bunday turizmdan davlat ham, fermerlar ham daromad ko‘radi. Shu jihatdan qishloq turizmini qulay va kamharajat turizm turi deyish mumkin.

Go‘zal tog‘li mavzelarga sayohat, tog‘larda sayr qilish, go‘zal joylarni tomosha qilish va h.k. Turistlar e‘tiborini quyidagi ajoyib joylar lol qoldiradi. Grand Kanon, Tosh barmoqlar vodiysi (Avstraliya), Ulkan sharsharalar (Niagara, Viktoriya). Turistlar uchun ularni tomosha qiladigan maydonchalar, moslamalar o‘rnatilgan. O‘zbekistonda bunday go‘zal joylar asosan, Surxondaryoning Saraosiyog‘ tog‘li hududlari, Jizzaxning Zomin tog‘ manzaralari, Toshkent viloyatidagi Chotqol tog‘ tizmalari hamda Qashqadaryodagi Kitob xalqaro geografik kengliklarida joylashgan.

Safari (Safari tour) sayyohat, qo‘riqxonaga hayvonlarni tomosha qilish uchun sayr, ovchilik, baliq ovi maqsadidagi sayohat, fotoovchilik, Keniya yoki JAR qo‘riqxonalariga sayr, tabiatda ajoyib hayvonlarni erkin holda ko‘rish maqsadidagi sayrlarni o‘z ichiga oladi.

Tabiat qo‘yniga yoki qo‘riqxonadagi e‘tiborga loyiq joylarga maxsus mashinalarida (Jip-Safari) sayohat. Sayohat davomida turistlar o‘tirgan maxsus mashinalardan tashqari kuzatuvchi mashinalar kalonnasi bo‘lib, ular oziq-ovqat, palatkalar, yoqilg‘i va shu kabilar bilan yuklanadi. Sayohat dasturiga nafaqat mahalliy joylarni ko‘rish, balki tog‘li hududda avtomobil boshqarish, to‘siqlarni yengib o‘tish, lager hayotiga o‘rganish, favqulodda vaziyatlarda yashab keta olish kabilarni o‘rgatadi.

Urushlar va tarixiy janglar bo‘lgan joylarga urush ishtirokchilari va ularning avlodlari uchun uyushtirilgan turizm. Ular o‘z ichiga quyidagilarni oladi: harbiy ob‘ekt va poligonlar, harbiy texnikada sayr, tanklar, qiruvchi samolyotlar, harbiy qurollardan foydalanish, harbiy o‘quv mashqlari, kosmik kemalar uchirishni tomosha qilish kabilar. Bularni – military tour,-deb ataladi. Shuningdek bu sayohatlarga yana konslagerlar va qamoqxonalarga tashriflar ham kiradi.

Qumsash turizmi – bu asosan qarindosh yoki do‘stlarini ziyorat qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘z mamlakatlaridan ayrim sabablarga ko‘ra ko‘chib ketgan kishilar bilan bog‘liq turizmdir. Ko‘chib ketganlar shartli ravishda ikki turga bo‘linadi:

- majburiy ko‘chganlar, o‘zlarining tarixiy joylarini diniy, harbiy

yoki siyosiy sabablariga ko'ra tashlab ketganlar.

- o'z hohishlari bo'yicha ko'chganlar – o'z yurtlarini yaxshi hayot kechirish uchun tark etganlar.

Majburiy ko'chganlar – sayyoramizda ko'pchilikni tashkil qiladi. Aholi migratsiyasi iqtisodiy, siyosiy va diniy omillar ta'sirida bo'ladi. Ming yillar oldin norvegiyaliklar va irlandiyaliklar, Islandiya va Grilandiyaga ko'chgan edilar. Tarixda Angliyadan Amerika qit'asiga diniy qarashlari tufayli ko'chganlar haqida ham ma'lumotlar bor. Jahon urushlari sanoqsiz kulfatlar va yangi qochoqlar to'liqlinini vujudga keltirdi, ularga urushdan qochganlar va o'z vatanlariga qaytishdan xavfsirab boshqa yerlarga ko'chganlarni keltirib o'tish mumkin.

Qumsash turizmga yaqqol misol bo'lib, O'zbekistonda Sobiq ittifoq davrida yashagan va hozirgi paytda ham ularning qarindosh urug'lari Respublikamizning turli shaharlarida faoliyat ko'rsatib kelayotgan qrim-tatar, zakavkaz xalqlari, nemislar va boshqa millatga mansub bo'lgan aholini ko'rsatishimiz mumkin.

Diniy ziyorat (religious or pilgrim tour) – diniy maqsaddagi sayohat va sayrlardan iborat. Diniy maqsaddagi ziyorat tarixiy sayohat bo'lib, uning ildizlari tarixga borib taqaladi. Bu kabi turistlarning birinchilari o'rta asr ibodatchilaridir. Bu xildagi sayr diniy ishonch, o'z va o'zga dinlarga qiziqish asosida vujudga keladi.

Dunyodagi ko'p odamlar Makkai Mukarramaga, muqaddas yer bo'lgan Vatikan ibodatxonalariga va boshqa joylarni ziyorat qilish uchun sayohat qilishadi. O'zbekistonda bunday muqaddas ziyorat qiladigan joylarga Samarqanddagi, Buxorodagi, Xorazmdagi va boshqa viloyatlarimizda joylashgan tarixiy yodgorliklar misol bo'la oladi. Ayniqsa, musulmon olami uchun kichik haj hisoblangan Imom al-Buxoriy ziyoratgohi diniy turizmni rivojlantirishda muhim o'ringa egadir.

Turizm bozorida Rojdestvo (yangi yil) va boshqa bayramlarni nishonlash uchun, Finlyandiya va boshqa Skandinaviya, G'arbiy Yevropa davlatlariga sayr qilishadigan xizmatlar mavjud. Turistlar ichida ayniqsa Finlyandiyaning qutb chegarasida joylashgan Rovaniymiga, Santa Klaus vataniga sayohat mashhur bo'lib bormoqda.

Bu yerda bolalar va kattalar uchun tantanalar o'tkaziladi. Laplandiyada zamonaviy aeroport qurilib, u yerga xatto samolyotlar ham qatnaydi. Mehmonlar uchun Santa Klaus va gnomlar ishtirokida tomoshalar uyushtiriladi, Santa Klaus qishlog'ida supermarket, g'orlarda bolalar tomoshagohlari qurilgan.

Marosim turizmi (ritual tour) – odatda qarindoshlarning qabrlari yoki janglarda vafot etganlar dafn etilgan joylarga uyushtiriladi. Qarindoshlar yoki yaqinlar qabrlari va maqbaralarini ziyorat qilish marosim turizmining asosini tashkil etadi. Ko'pgina turistlar tarixiy yurtlarga aynan qarindoshlarini qabrlarini ziyorat qilishga boradilar. Yana bir marosim turizmi – bu yaqin orada janglar bo'lib o'tib, shu janglarda halok bo'lgan askar va zobitlar qabrini ziyorat qilish uchun uyushtiriladigan sayohatdir. Respublikamizda bu turdagi turizm bilan «Nuroni», «Shaxidlar xotirasi», «Oltin meros» jamg'armalari shunday ezgu ishlar bilan shug'ullanadilar.

Klubli dam olishni egallash tizimi va uning turlari. Klubli dam olish tizimi jahon turizm biznesida tez o'sib borayotgan sektorlardan biri hisoblanadi, u jahonning 81 mamlakatida o'z rivojiga ega, mazkur tizimda ishlovchi 4500 dan ziyod kurort – turmajmualar faoliyat ko'rsatmoqda. Dam olishning bu turi dam olishni tashkil etish, yashash va ovqatlanishni erkin tanlash xususiyati tufayli G'arb davlatlarida ulkan ommaviylik bilan foydalaniladi. Hozirgi vazifa shundan iboratki, dam olishni bu turini ommabop, qiziqarli va ochiq bo'lishni ta'minlashdan iborat. Klubli dam olishni farqli tomonlaridan biri shundaki, turistlar nomerda emas, balki jihozlangan oshxonalarga ega bo'lgan shinam, dang'illama uy, koshonalarda (apartament) dam oladilar. Bu oshxonada shoshmasdan nonushta tayyorlashni va ayvonda kofe ichishni xush ko'radiganlar uchun juda qulay hamda zavqli hisoblanadi. Agar Sizni yosh farzandingiz bo'lsa yoki Siz parhezda bo'lsangiz mazkur usul eng maqbul, yaxshi variant hisoblanadi. Bu yerda nafaqatgina oddiy tungi nonushta qilish, balki qo'shimcha to'lov evaziga tamaddi qilishning ma'lum turi: pansion (ta'minot) yoki yarim pansionlarni olish mumkin bo'lgan restoran va qaxvaxonalar ham mavjud.

Apartament (dang‘illama uy, koshona)lar studiyadan (bu kattagina xona), jihozlangan oshxonalardan tortib to bir, ikki, uch kishilik tunash joylariga ega bo‘lgan apartamentlar kabi bir necha turlarga bo‘linganligi sababli kichik oilalar ham klubda shinam joylashishlari mumkin.

Haqiqatda bu turistlar o‘z uylariga tashrif buyurganidek obod, shinam har tomonlama qulay kvartira hisoblanadi. Kvartiradan yagona farqli jihat u saroyda yoki otelda joylashgan bo‘lishi mumkin. Klub – bu faqatgina klub a‘zolari va ularning mehmonlari dam oladigan yopiq hudud hisoblanadi.

Bu yerdagi barcha dam oluvchilar klubli dam olishni imkoniyatlari va afzalliklari bilan tanishtiriladigan uchrashuvda ishtirok etishi zarur. Butun dam olish davomida har bir oila juftligiga ularni klubga kelish paytidan boshlab to ketish vaqtigacha dam olish sifatini nazorat qiluvchi va turli-tuman sayohat (ekskursiya) dasturini taklif etuvchi gid (ekskursiya boshlovchisi) biriktiriladi.

Dam olish klubi – turizm industriyasining tarkibiy qismi bo‘lib hisoblangan, turoperatorlik va turagentlik faoliyatini amalga oshiruvchi klub a‘zolarini dam olishni tashkil etish maqsadida yaratilgan tijorat yoki notijorat tashkilotdir.

Klubli dam olish – klub tomonidan belgilangan muddatlarda va qo‘yilgan shartlar asosida klubga tegishli bo‘lgan joylashtirish dam olish joylarida dam olishning bir turidir.

Bo‘lingan vaqt tartibida klubli dam olish (taymsher) – davomiyligi bir haftadan kam bo‘lmagan muddatda har yilning ma‘lum davrida klubda dam olish.

Klubda dam olish huquqi – turizm mahsulotining turlaridan biri bo‘lib hisoblangan ma‘lum vaqt davomida dam olish klubi xizmatidan va joylashish vositalaridan foydalanish uchun oldindan to‘langan huquqlar.

Dam olish klub a‘zosi – klub tomonidan aniqlanadigan huquq va majburiyatlarga ega bo‘lgan, dam olish klubi a‘zolik reestriga qayd qilingan huquqiy yoki jismoniy shaxs hisoblanadi. Sotuvchi – shaxsiy tadbirkorlar yoki huquqiy shaxslar, jumladan, tadbirkorlik faoliyati

doirasida klubli dam olishga xuddi turagent sifatida huquqli sotishni amalga oshiruvchi dam olish klublaridir.

3.3. Turoperator va turagentliklar

Turoperatorlar faoliyati bosh yoʻnalishi ommaviy isteʼmol talablariga moʻljallangan turistik mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan. Ularni safar marshrutlarini standartlash, dasturlar va kompleks xizmat koʻrsatish yoʻli bilan turistlarga yagona paketda (pekij-turlar) sotadilar. Bu esa ularga bozorga raqobatbardosh takliflar bilan chiqishga imkon beradi.

Turoperatorlar tomonidan tashkil qilingan xizmat koʻrsatish turlari uzoq yillar davomida sezilarli oʻzgarishlarga duch keldi. Xizmat toʻplamlari ular tomoniga kamayayotgan pekidj – turlar evolyusiyasi ruy berayapti. Bir tomondan turistik firmalarni bu qisqartirishga kuchli raqobat majbur etayapti. Mijoz uchun kurashda har bir turoperator jalb qiladigan narxlarni belgilashga intiladi. U paketdan ayrim xizmatlarni chiqarib tashlaydi. Bu bilan arzon safar tasavvurini uygʻotadi. Masalan, koʻpchilik firmalar oʻzlari sotayotgan safarlarda faqat marshrut boʻyicha joydan-joyga olib borish va aeroportdan (vokzaldan) mehmonxonaga va yana orqaga transferni saqlaydi. Boshqa xizmatlar (ovqatlanish, ekskursiya, bagajni olib borib berish va boshq.)ni turistlar safar chogʻiga qoʻshimcha pul toʻlash orqali olishadi. Natijada sayohatchilarning asosiy va qoʻshimcha xizmatlarga xarajatlari 60:40 nisbatga keladi. Bunday proporsiyaga turgan gap turizm infrstrukturasi yuksak rivojlangan sharoitda (kafe, barlar, attraksionlar, kazino va boshq.)gina erishiladi.

Hozirgi davrda Respublikamizda turizm sohasini rivojlantirish uchun turoperatorlik va turagentlarga katta eʼtibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-135-son, 2023 yil 27 iyuldagi "Turizm yoʻnalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son Qarorlari tasdiqlangan va bu hujjatlarda turizm sohasini va uning tarmoqlarini jadal rivojlantirish va qulayliklar yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyulda tasdiqlangan "O'zbekiston respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 433-son qarori bilan "Turoperator va turagentlik xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risida"gi Nizom qabul qilingan va bunda turoperator va turagentliklarga qulaylik yaratish bo'yicha vazifalar, me'yorlar belgilab berilgan.

Turoperatorlik – bu turistik marshrutlarni va turlar komplektatsiyasi (butligi)ni ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi turistik tashkilotlar bo'lib, ularni amal qilishini ta'minlaydi, reklamani tashkil etadi, amaldagi me'yorlarga mosligini hisoblaydi hamda, belgilangan tartibda mazkur marshrutlar bo'yicha narxlarni tasdiqlaydi. O'z litsenziyalari orqali va realizatsiya qilish uchun turagentlarga turlarni sotadi.

Turoperator xizmatlar yetkazib beruvchilar bilan shartnomalar bo'yicha va turistlar ehtiyojlariga mos ravishda turlar komplektatsiyasi bilan shug'ullanadigan turistik firma (tashkilot)dir.

Turoperator – bu turistik paket ishlab chiqaruvchidir. U turistik yo'nalishlar ishlab chiqish va turlar komplektatsiyasi bilan shug'ullanadi, ularning amal qilishini ta'minlaydi, reklamani tashkil qiladi, bu yo'nalishlar bo'yicha narxlarni hisoblaydi, turlarni to'g'ridan-to'g'ri yoki turistik agentliklar vositasida turistlarga sotadilar.

Turoperator turistlarni turli turistik xizmatlardan tanlash imkonini ta'minlab beradi va bir vaqtning o'zida boshqa shahar va joylarda xizmat ko'rsatishga buyurtma berish vazifasini o'z zimmasiga olib osonlashtiradi.

Turoperatorlar turizm industriyasida maxsus rolni bajaradilar. Ular turmahsulotlarni (joylarni – samolyotda, nomerlarni – mehmonxonada) sotib oladilar, turistik xizmatlar paketini shakllantiradilar va foyda olish maqsadida turli to'g'ri yoki bilvosita foydalanuvchilarga (turistlarga) sotadilar. Turoperator turistik

xizmatlarni alohida ham sotishi mumkin. Bu yo foyda olish, yoki zaruriyat yuzasidan qilinadi. Masalan, imtiyozli narxlarda sotib olingan samolyotdagi joylar sonini to'ldirish uchun u chiptalarni ham sotishi mumkin va bunda u vositachi sifatida keladi.

Birinchi holda, ya'ni, turoperator paket shakllantirayotganda u turmahsulotlar ishlab chiqaruvchisi sifatida faoliyat yuritadi. Ikkinchi holda, ya'ni, turoperator xizmatlarini alohida sotayotganda turistik xizmatlarning ulgurji dileriga aylanadi. Bu holat turoperator ishlab chiqaruvchidan turistik paketni shakllantirish uchun keragidan ortiqcha turistik xizmatlar sotib olganda bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, hozirda ommaviy (ko'p) sotib olgani uchun mehmonxonalar va xizmatlar yetkazib beruvchilar orasida tegishli imtiyozlarga ega bo'lgan maxsuslashgan ulgurji turoperatorlari mavjud. Turoperatorning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u turistlar uchun iqtisodiy qulay bo'lgan turistik paketlarni shakllantirish uchun oladigan xizmatlarining narxi o'zgarishidan kafolatlan olish qobiliyatiga ega. Ugurji turoperator narxleri har doim mehmonxonalar narxlaridan arzon bo'ladi.

Ammo baribir turoperatorlar mahsulotlarning keng ko'lamining ulgurji sotuvchisi sifatida emas, balki yangi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sifatida ko'rib chiqish lozim. Shunda u haqiqatga to'g'ri bo'ladi, turoperatorning asosiy faoliyati turlar yoki turpaketlarni shakllantirishdan iboratdir.

Turoperatorlar va turagentlar hamkorligi har ikkala tomonga manfaat keltiradi. Turoperatorlarda mavjud tarmoqlangan kontragentlik tarmog'i unga turistik safarlarni sotish hajmini o'stirishga imkon beradi, yangi bozorga chiqadi, jumladan chiqish turizmining provinsial (uzoq joylar) bozoriga kirib boradi. Bu bilan o'z xodimlarini ta'minlash xarajatlarini, ijara binolarini, ularni uskunalarini tejaydi. O'z navbatida turagent safarlarni oxirgi iste'molchisiga sotib bergani uchun vositachiligi uchun komission mukofat oladi. Uning hajmi odatda sotilgan turistik mas'hulot bahosiga nisbatan foiz hisobida aniqlanadi va 10 % ni tashkil qiladi. U ko'paytirilishi ham mumkin (masalan, kelishilgan hajmdan ko'proq turistik xizmat sotilganda). Komission mukofat turagentlikning asosiy daromad manbai bo'lib xizmat qiladi.

Turoperator har doim sotish uchun turmahsulot zahirasi ega bo'ladi, turagent bo'lsa mijoz sotib olish istagini bildirgan holdagina ma'lum xizmatlarni taqdim etadi.

Biroq amaliyotda ba'zan turoperator va turagent orasidagi farqni ajratib bo'lmaydi, chunki har ikkalasi o'xshash vazifalarni hal qilishlari mumkin. Masalan, firma turoperator sifatida yo'nalishlar ishlab chiqishi, turistlar va boshqa agentliklarga sotishi ham mumkin. Xuddi shu vaqtda aynan shu turistik tashkilot turagent sifatida boshqa firmalardan xizmatlar sotib olishi va turistlarga sotishi ham mumkin.

Turizm industriyasining shiddat bilan rivojlanishi, turizm bozorida raqobatning yuzaga kelishi va kuchayishi – hammasi turoperatorlar strukturasiga ta'sir ko'rsatdi va ularning keyingi maxsuslashuvini qayta aniqlab berdi.

Turoperatorlar quyidagilarga ajratiladi:

Faoliyat turiga ko'ra:

1. *Ommaviy bozor turoperatorlari.* Ular ommaviy turizm joylariga charter aviareyslardan foydalangan holda turpaketlar sotadilar.

2. *Maxsuslashgan turoperatorlar* - bozorning ma'lum segmenti yoki mahsulotiga maxsuslashgan turoperatorlardir. Bular o'z navbatida quyidagilar bo'lishi mumkin:

- maxsus qiziqishlar turoperatorlari (masalan, sport-sarguzasht turizmi, Afrikada safari uyushtirish va boshqalar);
- maxsus boriladigan joylar turoperatorlari (masalan, Angliya, Fransiya va boshqa joylarga safarlar);
- ma'lum mijozlar guruhi turoperatorlari (yoshlar, oilalar, ish odamlari va boshqalar);
- maxsus joylashtirish joylari turoperatorlari (dam olish uylari, turbazalar va hokazo);
- ma'lum transport turlaridan foydalanadigan turoperatorlar (teploxod, poezd va boshqalar).

Faoliyat joyiga ko'ra:

1. *Mahalliy (ichki) turoperatorlar*. Ular o'zi yashayotgan mamlakat chegaralari doirasida yo'nalishlar bilan birgalikda turpaketlar tuzadilar.

2. *Chiqish turoperatorlari* turpaketlarni xorijiy davlatlarga yo'naltiradilar.

3. *Qabul qiluvchi turoperatorlar*. Ular turistlarlar boradigan mamlakatda joylashgan bo'ladi va ularga xizmat ko'rsatishadi.

Bundan tashqari, turoperatorlarni *Initsiativ* va *Retseptiv* turoperatorlarga ham bo'lish qabul qilingan.

Initsiativ turoperatorlar – bular turistlarni qabul qiluvchi (Retseptiv) operatorlar yoki to'g'ridan-to'g'ri turistik korxonalar bilan shartnoma asosida xorijga yoki boshqa regionlarga jo'natadigan operatorlardir. Bu operatorlarning faqat o'zgalar turlarini sotish bilan shug'ullanadigan turagentlardan farqli tomoni ular BTT me'yorlari bo'yicha kamida uchta xizmatlardan (joylashtirish, turistlar transportirovkasi va yuqoridagi ikkitasidan boshqa istalgan xizmat turi) tashkil topadigan turmahsulot komplektatsiyasi bilan shug'ullanishadi. Klassik Initsiativ turoperator turli joylardagi mahalliy turoperatorlar xizmatlaridan foydalanib, murakkab yo'nalishli turlarni shakllantiradi, sayohat boshlanadigan joyga borishni va u yerdan qaytib kelishni ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda yo'nalish ichida transport xizmati ko'rsatilishini tashkil etadi. Retseptiv turoperatorlar - qabul qilish joyida qabul qiluvchi va xizmat yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida ish olib boradigan turoperatorlardir.

Real turizm tadbirkorligida, ko'pincha, turizm bozori uchun xarakterli bo'lgan vazifalarning aralashuvi uchrab turadi. Turistik firma o'zining ba'zi mahsulotlariga nisbatan ham Retseptiv, ham Initsiativ turoperator, ba'zi hollarda esa boshqa turoperator tomonidan shakllantirilgan tayyor turlarni sotish bo'yicha turagent sifatida ham kelishi mumkin.

“Turizm to'g'risida”gi Qonun bo'yicha o'z turistik mahsulotini shakllantiradigan va unga o'z yo'llanmasini chiqaradigan turistik tashkilotgina turoperator hisoblanadi. Bunday talablarni turfirma

bajaradi. Yo'llanma turistlar bilan qilinadigan bitimga rasmiy ilovadir (xizmat ko'rsatish joyiga ko'rsatiladigan asosiy hujjat - vaucherdir).

Retseptiv turoperator qabul qilish uchun turlarni shakllantirish bilan shug'ullanadi. Initsiativ maxsuslashgan turoperator, qoida bo'yicha, bir necha punktlarda qabul qilishlardan mujassamlashtirib turlarni shakllantiradi. Bunga misol qilib ijaraga olingan maxsuslashtirilgan transportdagi transturlarni olish mumkin.

Turoperator buyurtma yoki inklyuziv tur bo'lishi mumkin bo'lgan (sotish chog'ida o'zgarmaydigan, oldindan aniq bo'lgan xizmatlar to'plami) dasturlar paketi, turpaket (pekidj-tur) tuzadi. Mos ravishda birinchisi xizmat ko'rsatish variantlari bilan, ikkinchisi - variantlarsiz, xizmatlar kompleksning to'plami bilan sotiladi. Bu qabul qilish imkoniyatlari va sayohatlar yo'nalishiga bog'liq.

Turoperatorning asosiy funksiyalari. Turoperator firmada asosiy funksiyalar va ularni ketma-ket bajarilishi o'z yurtdoshlarini xorijga safarini tashkil qilishda namoyon bo'ladi. Belgilangan funksiyaga muvofiq turistlarning xorijga safarini tashkil etish texnologiyasi bosqichma-bosqich qo'llanadi. Bu bosqichlarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1. Turistik safarni umumiy rejalashtirish, yo'nalishni tanlash (tashrif buyuriladigan mamlakat), turizm turlari, turizmning sonli hajmi, safar davomiyligi va taxminiy sanasi, narx darajasiga yaqinroq xizmatlar to'plami va klasslikligi. Bu ko'rsatkichlar bozor konyuturasi, maqsadli bozor potensialini baholash va turistik talablarni sigmentlash tahlili asosida aniqlanadi. Bunda yana turoperatorning moliyaviy, moddiy-texnik, odamlar va ma'muriy resurslari hisobga olinishi kerak.

2. Tegishli mamlakat (mamlakatlar)da mahalliy turoperatorlar bilan ular orqali turistlarga xizmat ko'rsatish va qabulni tashkil qilish bo'yicha hamkorlik o'rnatish. Ular bilan qabul va xizmat ko'rsatish aniq shartlari kelishib olinadi. Ya'ni:

- qabul qilinadigan turistlarning umumiy soni, guruhlar soni va ularning son jihatdan tarkibi;
- guruh jo'nab ketish va yetib kelish sanasi;
- marshrutlar va dasturlar (turistlarning sayohat kunlari bo'yicha);

- ko'rsatiladigan xizmatlar paketi (joylashtirish, ovqatlanish, uchrashuv va kuzatuv, ekskursiya va boshq.), ularning miqdori va sifatiy xarakteristikasi;

- xizmat paketi bahosi;

- xorijiy tomon majburiyatlari, viza olishga yordamlashish, hisob-kitob shartlari, safarni bronlash va bekor qilish, sotilgan xizmatlarni bekamiko'st bajarilishiga javobgarlik, reklamatsiya tartibi va boshqa mavjud shartlar.

3. Xorijiy mamlakatda turistlarga xizmat ko'rsatish shartlarini kelishib olish bilan birga turoperator milliy yoki xorijiy tashuvchilar bilan guruhlarni yoki individual turistlarni xalqaro tashish uchun zarur o'rinlarni bronlashtiradi.

4. Shunday tarzda shakllangan turmahsulot (mahsulotlar)ni turoperator barcha vositalar imkoniyati bilan chiqish turizmning milliy bozoriga chiqarish choralarini ko'radi. Shu maqsadda o'z moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, u imkoni bo'lgan potensial xaridorlar barcha kommunikatsiya vositalaridan foydalaniladi. Ommaviy axborot vositalarida reklama sotilishni rag'batlantirish, jamoatchilik bilan aloqa, bevosita marketing, taklif qilinayotgan turmahsulotga potensial xaridor chorlashda reklama ta'sirchanligiga erishish muhim.

5. Bir vaqtning o'zida turoperator o'z turlarini vatandosh turistlarga sotish tizimini yaratish chora-tadbirlarini ko'rishi kerak. Sotish hududi masshtabi va bozor talabini sigmentlashga bog'liq holda ko'p yoki kam sonda xususiy va tobe bo'lmagan chakana turagentliklaridan foydalaniladi. Turoperator vazifasi – o'z sotish tarmog'i ishini faol ishlashga rag'batlantirish, sharoit yaratish va o'z turlarining sotilishi ustidan doimiy nazoratni ushlab turish.

Turoperator vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Potensial turistlarning turlar va turistik dasturlarga bo'lgan talablarini o'rganish.

2. Prespektiv xizmat ko'rsatish dasturlari, turlarni tuzish va ularning turistlar talablariga mos kelishini aniqlash maqsadida bozorda aprobatsiyadan o'tkazish.

3. Turlarga shartnoma asosida xizmatlar yetkazib beruvchilar bilan quyidagicha hamkorlik qilish:

- mehmonxonalardan turistlarga yashash uchun joy berishda;
- ovqatlantirish korxonalari bilan turistlarga ovqatlantirish xizmatini ko'rsatishda;
- transport korxonasi, firmasi va kompaniyalari bilan – turistlarga transport xizmatini ko'rsatishda;
- ekskursion firmalar, muzeylar, ko'rgazmalar zallari, parklar va boshqa joylarda turistlarga ekskursion xizmatlarni ko'rsatishda;
- turli maishiy xizmatlar ko'rsatuvchi firmalar bilan turistlarga tegishli xizmatlarni ko'rsatishlarida;
- sport inshootlari ma'muriyati bilan turistlarning sport inshootlaridan foydalana olishlarida;
- shou, kino, video, teatr korxonalari menejerlari bilan turistlarning u yerlarga borishlarida;
- qo'riqxonalar, bog'-xiyobonlar, ov va baliqchilik xo'jaliklari direksiyasi bilan u joylarda turistlar dam olishini va ularga xizmat ko'rsatilishini ta'minlashda.

4. Tur, transtur qiymatini hisoblash va bozor holatini hisobga olgan holda narxlarni aniqlash. Turli tarkib klassi bo'yicha, turlar komplektatsiyasi bo'yicha o'z xizmatlariga narx va tariflarni belgilash.

5. Tur yo'nalishi bo'yicha sayohat qilayotgan turistlarni barcha zarur reklama-suvenir xarakteridagi materiallar, maxsus anjom va inventarlar bilan ta'minlash.

6. Yo'nalishda turistlar bilan aloqada bo'ladigan vazifalarni bajaradigan kadrlarni tanlash, tayyorlash va belgilash, xizmat ko'rsatish dasturlarining bajarilishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish (gid-ekskursovodlar, instruktorlar, animatorlar, metodistlar va boshqalar).

7. Iste'molchilarga o'z turistik mahsulotini yetkazish uchun reklama-informatsion faoliyat.

8. Turagentlik tizimi orqali iste'molchilarga turlarni yetkazish va sotish.

9. Xizmat ko'rsatishning sifati va ishonchliligini nazorat qilish.

10. Xizmat ko'rsatish jarayonida turistlar bilan doimiy tezkor aloqa, paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish.

Turoperator turizm bozorida xizmatlar ishlab chiqaruvchilar va ularning iste'molchilari (turistlar) orasidagi pozitsiyani egallaydi. Uning vazifasi alohida ishlab chiqaruvchilar xizmatlarini, ham asosiy xizmatlar, ham qo'shimcha xizmatlar sifatidagi turmahsulotni kompleks ko'rinishida iste'molchilarga yetkazib berishdan iboratdir.

Turistik agentliklar (turagent) - bu iste'molchiga, ya'ni turistga yoki mijozlarga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxsdir.

Agentlashtirish sohasida faoliyatning bir nechta turlari farqlanadi, shaxs nomidan va korxonaning topshirig'i bo'yicha turlarni sotish. Mohiyatan bu turli xildagi turoperatorlarning "turistik yo'llanmalar do'koni"dir. Turistik yo'llanmada doimo bunday sotishni amalga oshirgan turoperator va turagentning barcha rekvizitlari to'liq ko'rsatiladi, agentlik foizi tushunchasi bor bo'lgan mamlakatlarda, agentlik foizining summasi doimo turistik xizmatlarning cheki yoki vaucherida ko'rsatilgan bo'ladi. Bunday mamlakatlarda yo'llanmalar yuk **vaucher** bo'lib, unda kassa apparatidagi ma'lumotni yozib qo'yish uchun maxsus xoshiya mavjud. Bunday holda agentlikning o'zi barcha oqibatlari va javobgarlikni bo'yniga olgan holda turoperatorlik funksiyasini bajaradi.

Hozirgi paytda turlarni iste'molchiga Internet tarmog'i orqali sotish shakllanmokda, lekin iste'molchiga faqat axborot berish va mahsulot taklif etish, uni mijozning talabnomasi bo'yicha o'zlashtirish bosqichlarga avtomatlashtirish imkoniyatiga ega, ba'zi hollarda, masalan, bankdagi hisob-kitoblarni yoki kredit kartalarining raqamlarini ko'rsatishda haq to'lash ham nazarda tutiladi.

Tayanch iboralar: Turizm industriyasi, turoperator, turagentliklar, transport va mehmonxona xo'jaligi, ovqatlanish xo'jaligi, pansion, yarimpansion, turistlarni joylashtirish, turistlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, turistlarni sayohat joylari bilan tanishtirish, tashish vositalari.

Nazorat savollar:

1. “Turizm” va “industriya” tushunchasini izohlab bering.
2. Turizm industriyasi qanday tasniflanadi?
3. Aktiv va passiv turizm turlarining xususiyatlarining farqi nimadan iborat?
4. Harakatlarning turlariga nisbatan sayyohlik marshrutlar tasnifi qanday ko‘rinishlarga ega?
5. Turizm turlarining tasnifi bo‘yicha qanday turlarni bilasiz?
6. Qishloq turizmining rivojlanishi nimaga bog‘liq ?
7. Diniy turizmning hozirgi ko‘rinishi nimadan iborat?
8. Klubli dam olishni egallash tizimi va uning turlari nimalardan iborat?
9. Turizmni tashkillashtiruvchi tashkilotlarga nimalar kiradi?
10. Turizm sohasini va turoperatorlik va turagentliklar bo‘yicha qanday huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan?
11. Turizm sohasida turoperator qanday vazifani bajaradi?
12. Turagentliklar haqida nimalarni bilasiz?
13. Transport xo‘jaligiga nimalar kiradi?
14. Mehmonxona xo‘jaligiga nimalar kiradi?
15. Turistlarni tashish vositalari deganda nimani tushunasiz?
16. Turistlarni ovqatlantirish nimadan iborat?
17. Vaucher deganda nimani tushunasiz?

IV BOB. MEHMONXONA XO‘JALIGINING TASHKILIIY TUZILMASI

4.1. Mehmonxonadagi jamoaviy qismini tashkil etish

4.1.1. Mehmonxona xo‘jaligining rivojlanish tarixi va turli mamlakatlardagi xususiyatlari

Mehmonxona xo‘jaligining kelib chiqish va rivojlanish tarixini ko‘rib chiqar ekanmiz, unda insoniyat sivilizatsiyasi kabi “mehmondo‘stlik” va uni bajarish uchun qo‘llanadigan mehmonxonalar tarixi shunchalik qadimiy hisoblanadi.

Hozirgi mehmonxonalar qadimgi Gresiyada “stansiya” “taverna”, Rimda “xospitium”, “pansions”, “stabuliatsiya”, Rossiyada “nochleg”, “stansiya”, “yama”, Sharqda “karvon saroy”, G‘arbiy Yevropada “diliyans”, “gerberk”, “traktir”, turish hovlisi, qo‘noq hovlilar va hokazolar deb yuritilgan. Lekin qanday nomi bilan yuritilishidan qat’iy nazar, ularning asosiy vazifasi, musofir, sayohatchi insonlarga qisqa vaqtga yotib-qolish joyi berilib ma’lum xizmatlar ko‘rsatilgan.

Mehmonxonalar tarixiga nazar solganda, albatta, uning vujudga kelish sababi bo‘lgan, sayyohlik, diniy, tadbirkorlik, aloqa, sog‘lomlashtirish, davlat xizmatlari va boshqa yo‘nalishda shularning jamligini ko‘ramiz.

Mehmonxonalarning asosiy faoliyati mehmondo‘stlik bo‘lsa, uning ma’nosi inglizchadan olingan (hospitality) u qadimgi fransuzchadan “hospis”, ya’ni “strannopriyomniy”, “uy” so‘zidan kelib chiqqan va unga ma’nodosh “host” (xo‘jayin), “hospike” (priyud), “xotel” (mehmonxona, atel) deganini bildiradi.

Albatta, mehmonxonalar tarixi insoniyat jamiyati, iqtisodiyot, mamlakatlar tarixi bilan chambarchas bog‘liq ravishda vujudga kelgan.

Iqtisodiyotda turli sohalar bilan birgalikda xizmatlar sohasi bo‘lgan turizmning va uning bir bo‘lagi (qadimgi) sayyohlikning tarixi mehmonxonalar tarixi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Chunki, boshqa rivojlanib kelgan sohalar kabi bu soha mehmonxonalarni xo‘jaligini, korxona sifatida shakllantirib keldi.

Fransuz tadqiqotchisi va geografi Pifiy (kelib chiqishi Massallik – hozirgi Marsel, Fransiya) o'ramizdan avvalgi 230-yilda o'sha vaqtlarda bovar qilmagan tarzda butun Yevropa bo'ylab sayohat qildi.

Ko'p sonli qo'shinlari bilan harbiy yurish qilgan makedoniyalik Aleksandr (eramizdan avvalgi 356-233 yillar) 32 ming chaqirim yo'lni bosib o'tgan.



Amerika qit'asining bir necha marta ochilishi va o'zlashtirilishi. 900-1100 yillarda Islandiya va Grenlandiyaning o'zlashtirilishini alohida qayd etish joiz. Kolumbdan ham avval jasur vikinglar Grenlandiyaga va hattoki Amerika qit'asiga (Nyufaundlend) yetib borganlar



Hujjatlar bilan tasdiqlangan eng qadimgi sayohatchilardan biri Igumen Daniil 1065 yilda Afon va «Muqaddas Yer»ga ziyorat qilgan, borgan va safar davomida ko'rgan xalqlari va yerlari haqida batafsil vozib qoldirgan.



Italiyalik savdogar Morko Polo (1254-1324) 1271-1295 yillarda Xitoyga safar uyushtirib, u yerda 17 yil istiqomat qilgan.

Buyuk arab olimi va sayohatchi Ibn Battuta (Abu abduulloh Muhammad ibn Abdulloh al Lavati at-Tanji) (1304-1368) 21 yoshidan sayohat qilishni boshlagan va Sharqning barcha mamlakatlarini (70 ming chaqirimdan ortiq) piyoda bosib o'tgan.



Buyuk sayohatchi va kashfiyotchi olimlarga misol qilib Fernan Magellan (1480-1521) Vasko da Gama (1469-1524), Xristofor Kolumbni (1451-1506) ko'rsatish mumkin bo'lib, ulardan oxirgisi 1492-1493 yillarda uchta karavellada Atlantika okeanini bosib o'tgan va Amerika qit'asini ochgan.

1471-1474 yillarda Eron va Hindistonga sayohat qilgan Afanasiy Nikitin «Uch dengiz osha sayohat» nomli asar bitgan.



1815 yilda ham angliyadan Fransiya maxsus tashkil qilingan turlar mavjud bo'lgan. Yozuvchi va sayohatchi D.Galinyany keng omma uchun Parijdan Londonga uyushtiruvchi bunday turlarning tashabbuskori bo'lgan. 1829 yilga kelib sayohatchilar uchun maxsus tayyorlangan dastlabki yo'lko'rsatkich K.Vaedeker tomonidan tayyorlangan va nashr qilingan bo'lib, u hozirda ham mashhurdir.

Mashhur sayohatchilar N.N.Mikluxo-Maklay (1846-1888), N.M.Projevalskiy (1839-1888), V.I.Bering (1681-1741) va boshqalar o'z nomlarini tarixda yozib qoldirganlar.

Kuk 1846 yili qo'shni davlat Shotlandiyaga poezd va paroxodda sayohatlar uyushtirdi. Endi bunday sayohat Dasturlarini ishlab chiqib, pul topish Tomas Kuk va uning o'g'li uchun biznes faoliyati bo'lib qoldi. Kuk 1860 yilda Londonda o'zining birinchi turistik korxonasini ochdi va bu korxona Thomas Kuk Trawel nomini oldi.

1832 yilda Yevropa va Amerika qit'alari o'rtasida muntazam kema qatnovi yo'lga qo'yilgan bo'lib, 1866 yilda Kuk AQShga turistlarning dastlabki ikki guruhini jo'natadi. Turlar uzoq muddatli bo'lib, besh oygacha davom etgan.

Jahon miqyosida huquqiy maqomga ega bo'lgan turizm faoliyati tovar ishlab chiqarishdan 10 barobar tez sur'atlar bilan rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lib, eng samarali tarmoq hisoblanadi.

4.1-rasm. Jahonda turizm faoliyatining 3 ming yillik rivojlanish evolyusiyasi (mikrotarixi).

Jahonda turizm faoliyatining 3 ming yillik rivojlanish evolyusiyasi (T.Toshmurodov tuzgan) sxemasi 4.1-rasmda keltirilgan. Ushbu sxema turizmning makrotarixini ko'rsatadi, bundan biz bunga chambarchas bo'lib kelgan mehmonxonalar tarixini ham anglashimiz mumkin. Shu bilan birga, T.Toshmurodov ko'rsatgan turizmning iqtisodiy omillari bo'yicha ilmiy va nazariy fikrlar evolyusiyasi ham (4.2-rasm) qo'yida

Arab olimi Xoldunning (1200-1300 yillar) fikricha, sayohat va turizm – davlat miqyosida tovar savdosini rivojlantirish manbai, karvonsaroylar qurish savdogarlar orqali davlatga qo'shimcha daromadlarni ko'zlash demakdir.



A.Smitning (1776 y.) mutloq ustunlik nazariyasi – ayrim mamlakatlarning tabiiy resurslari va iqlimiga bog'liq bo'lgan tabiiy ustunligi tufayli turizm bu davlatlarda yuqori sur'atlar bilan rivojlanadi.



Thomas Cook – turizm daromad manbai ekanligini amaliyotda ilk bor isbotladi. Kuk 1860 yilda Londonda o'zining birinchi turistik korxonasini ochdi va bu korxona Thomas Cook Trawel nomini oldi. Kukning firmasi 20 yil ichida faoliyatini kengaytirib Shimoliy Amerikaga ham sayohat uyushtirdi.



Amerika iqtisodchisi P.Rotou (1950 y.) birinchilardan bo'lib, turizmga iqtisodiy voqelik sifatida e'tibor berib, turizm daromadining jamiyat boyligi o'rtasidagi korrelatsiyani (iqtisodiy bog'lanishni) aniqladi.



Turkiya turizm universitetining professori Orxan Kalkan (1960 y.) turizmni inson sog'lig'ini yaxshilash va umrini cho'zish manbai ekanligini e'tirof etgan.



Amerika professori Jon Voker va professor Karolin Kuperning fikriga ko'ra, turizm – xalqaro darajada valyuta oqimini vujudga keltirishda qo'llanishi mumkin bo'lgan qudratli iqtisodiy quroldir, deya hisoblashgan.



Xeksher-Olin nazariyasi ko'p kapitalga ega bo'lgan mamlakatlar ko'p kapital talab qiladigan tovarlarni eksport qilishi va ko'p mehnat talab qiladigan tovarlarni va turizm xizmatlarini import qilishini isbotlagan.

4.2-rasm. Turizm bo'yicha iqtisodchi olimlarning ilmiy va nazariya fikrlari.

keltirilganlarning isboti bo‘ladi. Ayniqsa, sayohatchi-tadbirkor angliyalik Tomas Kuk turizm faoliyatini shakllantirib, quyidagilarni ko‘rsatib berdi: transport, mehmonxona va boshqa xarajatlarni o‘z ichiga olgan holda ommaviy sayohat qilish; kreditga sayohat qilish; yoshlar uchun marifiy sayohatlar; ishchilar uchun maxsus sayohatlar uyushtirish, dengiz orti mamlakatlarida sayohatlar, valyuta almashtirish operatsiyalari kabi o‘sha vaqtdagi progressiv fikrlari, hozirgi turizm mehmonxona xo‘jaligi, umuman xizmat va xizmat ko‘rsatishga asos solindi desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Mehmonxona xo‘jaligi tarixida insoniyat sivilizatsiyasidagi har bir kashfiyotlarning bo‘lishi uning rivojiga katta turtki bo‘ladi. Chunki, 1830 yilda kashf etilgan Manchester va Liverpool orasidagi birinchi temir yo‘li, 1833 yilda Rossiyadagi Cherepanov paroxodi, avtomobillarning paydo bo‘lishi va boshqalar buning dalili bo‘la oladi.

Albatta, bunday ulug‘ kashfiyotlar hozirgi zamon turizmining, unga bog‘liq mehmonxonalarning tarixida asosiy omili bo‘lsada, lekin insoniyat tarixidagi yana bir jahonshumul kashfiyot, ya‘ni har tomonlama qulay bo‘lgan yo‘llarning ochilishi, ayniqsa, g‘arb bilan sharqni bir necha yuz yillar bog‘lab kelgan “Buyuk ipak yo‘li”ning ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Bunday yo‘llarda, maqsadli ravishda mehmonxona vazifasini bajaruvchi karvon-saroylarning tashkil etilishi, sayohatchi turistlarga, xizmat ko‘rsatish kompleksi tariqasida vujudga keldi.

Karvon-saroylarni ma‘lum to‘lov bilan ma‘lum vaqtgacha olish mumkin bo‘lib, unda ovqatlanish, tibbiy xizmat ko‘rsatish, ayrimlarida (Turkiya seljuklarda) kambag‘llarga davlat hisobida kiyimlar berilgan.

Turli mamlakatlarda karvon-saroilar ijtimoiy ko‘nikmalardan kelib chiqqan holda turli ko‘rinishda tashkil etilgan. Masalan, Armanistonda zalli (katta to‘g‘ri burchakli binoning neflarga bo‘lingani), Turkiyada va ko‘pchilik Sharq mamlakatlarida esa odamlar uchun alohida, mahsulotlarni saqlash uchun ichki hovlidan, bir necha qavatda (pastki qavatlarda ko‘p holda hayvonlar joylashtirilgan) tashkil etilgan. Undan tashqari himoya devori va boshqa binolar bilan birlashtirilgan.

Karvon-saroilar, asosan, savdogarlarning tijorat yuzasidan yurishlariga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, shu bilan birga ular bilan musofirlar ham yurishgan. Shuning uchun ayniqsa, Sharq mamlakatlarida musofir-mehmonlarga musofir xonalar tashkil etilgan. Ularni ham dastlabki oddiy mehmonxonalarining qadimgi shakli deb hisoblasak bo'ladi.

Ular, ayniqsa eramizdan oldingi V asrdan boshlab Turkiya, Eron, Afg'oniston, Markaziy Osiyo va shimoliy Hindistonda ko'p tarqalgan, unda ikki hovlili (hayvonlarga) va oddiy sayyohlarga yashash joyi tariqasida foydalanilgan.

Xuddi shuningdek qadimgi karvon saroilar turidagi mehmonxonalar Yevropa davlatlaridan Ispaniyada (Grenada) saqlanib qolganlari bor.

Karvon-saroilarning bunchalik tarqalib ketishiga asosan, unda sayyohlarga kompleks xizmatlarning ko'rsatilishi, ya'ni qisqa muddatga yashashga transport vazifasini bajaruvchi hayvonlarga qarashi, sayyohlarga yotoqdan tashqari savdo, maishiy xizmat ko'rsatish, ularning xavfsizliklari va h.k. xizmatlar ko'rsatilganligidadir.

Albatta, boshqa mamlakatlarda ham qadimgi mehmonxonalar turli ko'rinishda rivojlana bordi. Ularda ayniqsa, davlat hukmdorlarining aralashuvi, hamda qonuniy ko'rsatmalarning chiqishi ularning intensiv rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Masalan, Ipak yo'lidagi karvon saroilarning qo'riqlanishi, undagi yashovchilarning xavfsizligini ta'minlash va boshqalar Amir Temur ko'rsatmalarida ko'rsatilgan (Temur Tuzuklari). Xuddi shuningdek, Yevropada Ulug' Karl (768-814yil) Rim imperiyasining imperatori ko'rsatmasiga binoan cherkov va monastirlarga "gospisiya"larni ochish va ularda tunash, ovqatlanish, tibbiy yordam berish va yuvinish joylarini tashkil etish majburiyati maxsus hujjatlar bilan qonuniylashtirilgan. Keyinchalik bular davlatdagi daromadli biznes industriyasiga aylanib bordi.

Inson tarixidagi uyg'onish (renessans) davrigacha mehmonxonalarining turlari shakllangan bo'lib, mehmonxona biznesi industriyasi endi "kurtak" ota boshladi.

Turizm - mehmonxona tarixida angliyalik T.Kukning 1841- yilda tashkil etgan pekidj – turi (bir bahoda kompleks turistik xizmatlar ko‘rsatish) turizmning ommaviylik davrining boshlanishi bo‘ldi. Shundan so‘ng dunyo mamlakatlari bo‘ylab turli xildagi tashkilotlar tashkil topilib, turizm, sayyohlik ommaviylashdi va undagi mehmonxonalar rivojlanib, turli xillari (otel, motel) tashkil etildi. Yevropada mehmonxona ishlariga shveysariyalik sezar Ris, amerikalik Statler boshqalarning ishlari zamonaviy mehmonxonalarni tashkil etishda katta rol o‘ynashdi. Xuddi shu davrda “ekspres”, “komfort”, “dizayn” degan so‘zlar yuritila boshlandi va eski nomlar (Angliyali hovli, eski pochta) o‘rnida “Bristol”, “Metropol”, “Palas”, “Savoy”, “Ekselsior” yoki oddiy “Grand-Otel” degan mehmonxona nomlari kirib keldi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng mehmonxonalar tarixida xalqaro mehmonxona xalqalari shakllana borib, 1950 yillarda “Mariot”, “Ramada”, “Sheraton”, “Redisson” kabi xalqaro mehmonxona xalqalari vujudga keldi.

4.1.2. Mehmonxonalarning umumiy klassifikatsiyasi va ularning xususiyatlari


Butunjahon turistik tashkiloti (BTT) ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan joylashish vositalari standart klassifikatori bo‘yicha, barcha joylashish vositalari jamoaviy (kollektiv) va individual qismlarga bo‘linadi.

Jamoaviy joylashish vositalari mehmonxona tipidagi va maxsuslashtirilgan korxonalarga bo‘linadi.

Jamoaviy (kollektiv) joylashish vositasi bo‘lgan mehmonxona turidagilarga: mehmonxonalar, motellar, yashash mumkin bo‘lgan klublar, pansionatlar, mebellashtirilgan xonalar, yotoqxonalar kiradi.

Maxsuslashtirilgan joylashish vositalariga: sanatoriyalar, profilaktoriyalar, dam olish uylari, turistik qo‘noqlar va to‘xtash joyi, turistik sport bazalari, dam olish bazalari, ovchilar (baliqchilar) uylari, kongress markazlari, kempinglar, botellar, flotellar, rotellar kiradi.


Individual joylashish vositasiga ijaraga beriladigan kvartiralar, kvartiralardagi xonalar, uylar, kottejlar va boshqalar kiradi.



4.3-rasm. Joylashish vositalarining Butunjahon turistik tashkiloti ekspertlari tomonidan ishlangan standart klassifikatori.

Yuqorida keltirilgan 4.3-rasmda joylashish vositalarining klassifikator sxemasi keltirilgan.

Ushbu sxemadan ko‘rinib turibdiki, mehmonxona korxonalari joylashish vositasining asosiy turi hisoblanadi va ular turistik kompleks xizmat ko‘rsatishda o‘zining turliligi bilan har xil tipda bo‘ladi.



4.4-rasm. Mehmonxonalar klassifikatsiyasi.

Yuqorida mehmonxonalarning umumiy klassifikatsiyasi 4.4-rasmda keltirilgan. Mehmonxonalarning turi bo'yicha tavsiflanishi X.I.Axmedov, A.A.Allaberganov tomonidan tuzilgan jadvalda, o'zgartirilgan holda keltirildi.

“Lyuks” oteli – yuqori darajali mebellar bilan, yaxshi jihozlangan jamoaviy xonalar va nomerlar soniga nisbatan xizmatchilar sonining ko'pligi bilan tavsiflanadi.

“Lyuks” otellarida nomerlar soni ham ularning darajasini belgilaydi. Ularning atalishida ham, ichki jihozlanishi, tuzilishi va xizmat ko'rsatish turlarining bo'lishligidan kelib chiqadi.

O'rtacha darajada otel bo'lsa, ular keng tabaqali iste'molchilarga mo'ljallangan bo'lib, yashashning o'rtacha narxi belgilangan bo'ladi. Xuddi shuningdek, iqtisodchilar sinfi uchun otel, ya'ni nomerlar soni kamroq (10 dan 150 gacha) bo'lib, ishbilarmonlarning samarali ishlashlari, yaxshi xordiq chiqarishlariga alohida e'tibor beriladi. Turistlarning avtotransportda sayyohatlari uchun maxsus **motellar** mavjud. Ular avtotransport oldida bo'lishi, narxi baland bo'lmaganligi, ovqat xizmati ko'rsatish yo'qligi bilan ajralib turadi.

Oromgohlar mehmonxonasi ham dam olish joylarida tashkil etiladi, ularda xizmatning barcha turlarining mavjudligiga, ayniqsa, bolalar sport o'yinlari maydonchalari, mashq qilish jihozlarning bo'lishligiga katta e'tibor beriladi. Ularda narxlar bir muncha yuqoriroq bo'lishi mumkin.

Taymsherlar deganda, 50 dan 250 gacha nomerli, alohida yoki birgalikdagi kvartira turidagi, sharoitidagi nomerlar ko'zda tutilgan. Bunday kvartiralarni uzoq muddatga sotib olish ham mumkin. Ularning narxi mavsum bo'yicha o'zgarib turadi. Talab ko'p bo'lganda ko'proq, aks holda arzonroq bo'lishi mumkin. Bunday mehmonxona turlari hozirgi vaqtda 75 ta davlatda mavjud bo'lib, 2022 yili qariyb 30 mlrd. dollarga sotilishi aniqlangan.

Yuqorida keltirilganlardan shu ma'lum bo'lyaptiki, mehmonxonada qisqa muddatda yashovchilarni: ish yuzasidan kelganlar va dam olish uchun kelganlarga bo'lish mumkin.

Ish yuzasidan kelgan mehmonlarning mehmonxonalariga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Joylashish shaharning markazida, administrativ, jamoaviy va boshqa markazlarga yaqin bo'lishi kerak;
2. Asosan nomerlar fondi bir kishilik bo'lishi kerak;
3. Nomerda albatta, yozuv stoli, ishchi kreslosi, stol yoritgichi, yozuv va orgtexnika vositalaridan tarkib topgan ishchi zona bo'lishi kerak;
4. Maksimal darajada tashqi muhitdan, ayniqsa, shovqindan izolyatsiyalangan bo'lishi kerak;
5. Mehmonxonada yig'ilish, seminar, uchrashuvlar, muzokaralar va boshqa joylar, xonalar bo'lishi kerak;
6. Biznes-markazi;
7. Moliya ta'minoti xizmati bo'lishi kerak.

Bundan farqli, dam olishga mo'ljallangan mehmonxonalarga:

1. Shahardan uzoqroqda, tabiat qo'ynida, o'zining o'simlik dunyosining ko'm-ko'kligi bilan ajralib turadigan joyda bo'lishi;
2. Dam olish, sport bilan shug'ullanish va ko'klamzorlashtirilgan maydonlarning bo'lishi;
3. Asosan ikki kishilik nomerlar;
4. Bolalarning o'ynashi, ko'ngil ochish maydonchalari bo'lishi lozim.

Albatta, mehmonxonalarning mo'ljallanganidan kelib chiqqan holda, turli xildagi xonalar, joylar va xizmatlar tashkil etiladi.

Agar **dam olish mehmonxonalari bo'lishi uchun** tibbiy davolash, sog'lomlashtirish xonalari, ovqatlanishdagi parhez taomlarning bo'lishligi lozim bo'lsa, statsionar mehmonxonalar oilaviy dam olishga mo'ljallanadiki, unda albatta, bolalar o'yini, ularga qarab turish uchun xona bo'lishi lozim.

Xuddi shuningdek, turistik-ekskursion mehmonxonada ekskursovod, guruhni olib yuruvchi, sport instruktorlari, tur kabinet, sport inventarini ijarasi, basseyn ularning tarkibida yoki yaqinida bo'lishi kerak. O'zining maxsusligi bo'yicha bo'lingan mehmonxonalar

ham hozirgi vaqtda keng foydalanib kelinmoqda. Ularga kemping, rotel, botel, flotel, yurtalari va boshqalar kiradi.

Kemping – bu avtoturistlar lageri bo‘lib, shahardan tashqarida, yozgi uylar yoki palatkalar bilan ta‘minlangan bo‘ladi.

Rotel – ko‘chma mehmonxona hisoblanib, bir yoki ikki joyli vagonlar bo‘lib, kechki dam olishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Botel – suvda, lekin suzib-ko‘chmaydigan, ko‘p holda statsionar holga keltirilgan kemalarda tashkil etiladi.

Flotel – esa suzib yuruvchi mehmonxona, maxsus komfortabelli kayuta-nomerlari, aktiv dam olish xizmati, muzokara olib borish, konferensiya, kongress zallari, aloqa vositalari, turli barlar va restoranlardan tarkib topadi.

Yuqorida keltirilgan mehmonxonalar joylashish vositasi sifatida klassifikatsiyalanish sxemasi 4.5-rasmda keltirilgan.

Mehmonxonalar turli mamlakatlarda, turlicha klassifikatsiyalanadi. Hozirgi vaqtda, ularning 30 dan ko‘p sistemalari mavjud. Ularga, eng ko‘p tarqalgan: yulduzchalar sistemasi, harflar sistemasi; “kron” (toj) yoki “kalit” sistemasi, razryadlar sistemasi, kategoriyalar, sinflar va h.k. kiradi.

Bunday klassifikatsiyalanish, har bir davlatda o‘z turizm industriyasining rivojlanish tarixidan, milliy xususiyatlari, xizmat ko‘rsatish sifatidan kelib chiqqan holda tashkil etilgan.


Yulduzlar sistemasi – Fransiya, Avstriya, Vengriya, Arabiston, Rossiya va O‘zbekiston va boshqa davlatlarda keng qo‘llaniladi.

Buyuk Britaniya turagentlik Assotsiatsiya – Britich Troul Authoriy (BTA) bo‘yicha:

1* yulduzliga – byudjetdagi mehmonxonalar, shaharlarning markazida joylashtirilgan, minimum qulayliklarga ega bo‘lgan mehmonxonalar kiradi;

2* yulduzli – bir yulduzligiga qo‘shimcha bar va restorani bo‘lgan turistik klassli mehmonxonalar kiradi.

3* yulduzli – o‘rtacha darajadagi, lekin xizmat ko‘rsatish darajasi yuqori bo‘lgan mehmonxonalar kiradi.



4.5-rasm. Moʻljallanganligi boʻyicha joylashish vositalarining klassifikatsiyasi

4* yulduzli – birinchi klassli, juda yuqori sifatli yashash va a'lo darajadagi xizmat ko'rsatish tashkil etilgan mehmonxonalar kiradi.

5* yulduzli – yuqori kategoriyali, xizmat ko'rsatish va yashash o'ta yuqori ekstra klassdagi mehmonxonalar kiradi.

Harflar sistemasi – Gresiyada qo'llaniladi, ya'ni barcha mehmonxonalar juft kategoriyaga: A, V, S, D bo'linadi. **A kategoriyasi** 4* yulduzliga, **V** – uch, **S** – ikki, **D** – bir yulduzliga mos keladi. undan tashqari, yuqori kategoriyalilisiga “de Lux” kategoriyasi beriladi.

Angliyada bunday turlanish murakkab bo'lib, unda yulduzlardan boshqa “kron” yoki “kalitlar” ko'rsatiladi. “Kronlar” yoki “kalitlar” bilan darajalanish sistemasini taqqoslashda “kronlar” yoki “kalitlar” sonidan bittasini ayirish zarur.

Mehmonxonalarning kategoriya bilan bo'linishi Italiyada ko'proq ishlatiladi. Ular uch kategoriyaga bo'linadi: birinchi kategoriyaga – shartli ravishda to'rt yulduzligi, ikkinchiga - uch, uchinchiga – ikki yulduzli bilan taqqoslash mumkin. Italiyadagi mehmonxonalar (40 mingdan ortiq) asosan kam (50-80) nomerli bo'ladi.

Kategoriyali bo'linish Ispaniyada ham ishlatiladi. 5 kategoriyali 1 dan 5 yulduzlilarga mehmonxonalar tipidagi, **bungalo**, apartament va boshqalar – 1 dan 4 yulduzga bo'linadi. To'xtash (yashash) hovlilar – 1 dan 3 yulduzliga, pansionatlar – uch kategoriyaga bo'linadi. Ispaniyada davlatga qarashli mehmonxonalar ham ko'p uchraydi. Ularga qadimgi qal'alar, qo'rg'onlar, saroylar kiradiki, ular “lyuks” otel tipida jihozlangan.

Rossiyada mehmonxonalar va motellar kategoriyalar bo'yicha (GOST R50645-94) bo'linadi. Kategoriyalar yulduzlarga mos keltirilgan, sonining oshishi bilan xizmat ko'rsatish darajasi ham yuqorilashadi.

O'zbekistonda yulduz toifasiga ega mehmonxonalarga doir talablarni belgilaydigan davlat standarti qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son qarorida mamlakatdagi mehmonxonalar, ulardagi sharoitlarni xatlovdan o'tkazib, 2023-yil 1-oktabrga qadar xorijiy

konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda kamida 50 ta mehmonxonaga «to‘rt yulduz» va 200 tasiga «uch yulduz» olib berish choralarini ko‘rish vazifasi belgilangan. Shu bois Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan turizm sohasi ilg‘or rivojlangan davlatlarning mehmonhonalarga yulduz toifasini belgilovchi hujjatlarining talablari o‘rganildi.

O‘rganish natijasida, amaldagi davlat standarti talablari qayta ko‘rib chiqildi va balli tasniflash orqali yulduz toifasini beruvchi yangi standart loyihasi O‘zbekiston mehmonxonalar uyushmasi bilan birgalikda ishlab chiqildi. Yangi davlat standartiga kiritilgan talablar Hilton, Hampton by Hilton, Hyatt Regency Tashkent, Wyndham Hotels & Resorts mehmonxonalari biznes vakillari va boshqa mehmonxona vakillari bilan kelishildi.

Turizm qo‘mitasi qoshidagi STQ 4 “Turizm va madaniy meros” standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita tomonidan O‘z DSt 3296:2023 “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi” davlat standarti ishlab chiqildi. Mazkur davlat standarti O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2023-yil 7-iyuldagi 05-1560-son buyrug‘i bilan qabul qilindi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2023-yil 7-avgustda 194-son bilan hisobga olindi hamda joriy yilning 7-noyabridan amalga joriy etiladi.

O‘z DSt 3296:2023 davlat standarti mehmonxonalarni balli asosda tasniflash tizimini belgilaydi. Toifalar “*” (yulduz) belgisi bilan belgilanadi va beshta toifa bo‘yicha tasniflanadi. Joylashtirish vositalari uchun – eng yuqori toifa “*****” (besh yulduz) va eng past “*” (bitta yulduz) hisoblanadi.

Joylashtirish vositalari mazkur davlat standartining ilovasiga muvofiq tasniflanadi. Bunda “m” bajarilishi majburiy bo‘lgan talablarni belgilaydi. Majburiy bo‘lmagan talablar bajarilganda esa qo‘shimcha ball beriladi. Ballar yig‘indisiga ko‘ra tegishli yulduz toifasi beriladi.

Shu bilan birga yangi davlat standarti O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash

vazirligi, Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bilan kelishildi.

Yangi davlat standarti amalga joriy etilgan sanadan O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligining 2018-yil 7-fevraldagi 05-925-son qarori bilan tasdiqlangan O'z DSt 3296:2018 "Turizm xizmatlari. Mehmonxonalar va o'xshash joylashtirish vositalari. Tasniflash tizimi" davlat standarti o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi

Qo'shimcha ravishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son qaroriga muvofiq mehmonxonalar sonini va ularda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab 3 yulduzli toifa uchun 60 ta xonadan kam bo'lmagan, 4 va 5 yulduzli toifa uchun 120 ta xonadan kam bo'lmagan xonalar fondiga ega besh qavatdan past bo'lmagan mehmonxona 2026-yil 31-dekabrga qadar foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach, investorlarning yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun ketgan xarajatlarining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab berish tizimi joriy qilinadi. Bunda 3 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 40 million so'm; 4 va 5 yulduzli toifaga ega mehmonxonalardagi har bir xona uchun 65 million so'm miqdorlarda mablag'lar qoplab berilishi belgilanganligi ma'lum qilinadi.

Mehmonxonalar 5 kategoriyalarga, motellar esa 4 kategoriya bilan klassifikatsiyalanadi.

Xalqaro mehmonxonalar zanjirining tashkil etilishi va uning ustuvorligi. Hozirgi zamon globallashuv davrida mehmondo'stlik industriyasida mehmonxonalar xalqaro zanjirlari tashkil topganki, bu mehmonxonalar rivojlanishining muhim omili bo'lib xizmat qilayapti.

Xalqaro mehmonxonalar zanjiri deganda, biz mehmonxonalarning turli darajada birlashib, hamkorlikda ish olib borishlariga tushunamiz.

Bunday birlashishlar turli tashkiliy-boshqaruvda model va xillarda xalqaro miqyosda tashkil etiladi. Hozirgi vaqtda asosan uch model (Rits, Xollidey inn, “Erkin” mehmonxona) va ikki xilda (integrallashgan, zanjirli mehmonxonalar, konsorsiumli) ko‘rinishda birlashib xalqaro zanjir tashkil etgan.

Agar zanjirli mehmonxonalar ishida Rits (shveysariyalik tadbirkor sezar Rits nomi bilan) modeli o‘zining Yevropacha izchilligi va aristokratlikka asoslangan bo‘lsa, amerikalik tadbirkor Kemansi Uilson nomi bilan ataladigan “Xollidey inn” xalqaro mehmonxonalar zanjiri o‘zining mijozlar ehtiyojini qondirishdagi moyilligi va yuqori darajada xizmat ko‘rsatish standartlariga rioya etishi bilan ajralib turadi.

“Xollidey inn” modelining asosiy talablariga: mehmonxonalar arxitekturasini, intererining birligi; ularning belgilanishi va tashqi informatsiyasining bir xilligi; hammasida ham keng va funksionallik xollning bo‘lishi; mijozlarning qisqa muddatda rasmiylashtirish; doimiy mijozlarga alohida e’tibor va nomerlarni belgilash; nonushtada “Shved stoli”ni tashkil etish, konferensiyalar zalining mavjudligi; tarif sistemasining moyilligi; boshqaruv, marketing va kommunikatsiya xizmatlarining birligi kiradi. Bu model bo‘yicha dunyodagi 50 %dan ko‘p mehmonxonalar boshqarilib, global xalqaro zanjir hosil qilib kelmoqda.

Mehmonxonalarning bir xil savdo markasi ostida, ma’lum bir standartlarga va xizmat yig‘masiga rioya qilgan holda birlashishi – uchinchi model “Erkin” mehmonxonalar zanjirini tashkil etadi. Ko‘p holda ikkinchi va uchinchi modellar birlashgan ham bo‘lishi mumkin. Masalan, Yevropadagi eng katta mehmonxona zanjiri bo‘lgan “Akkor” xalqaro zanjiri, turli klassdagi otellarni birlashtirib, bir necha (“Pulman”, “Sofitel”, “Novatel”) markalarda ish olib borayapti.

Xalqaro mehmonxonalar zanjirida, mehmonxona zanjirining bir a’zosi bo‘lib, birlashib tashkil topgan, hamkorlik reklamalari va marketing faoliyati, mahsulot harakatiga sarflanadigan mablag‘ fondiga a’zolik badali to‘lab boradi.

Xalqaro mehmonxonalar zanjirlarining hosil bo‘lishi tarixida, tobora kuchayayotgan raqobatga qarshi ularning qanchalik bir-biriga

birlashganligi darajasi bo'yicha birlashish xillari: integrallashgan, konsorsium, oilalar va aralashgan xildagilari hosil bo'ldi.

Integrallashgan zanjirni bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan, ayrim faoliyatlari bilan hamkorlik olib boruvchi mehmonxonalar tashkil topgan bo'lsa, konsorsiumda bir xil yoki har xil "Erkin" mehmonxonalar birlashib tashkil topishdi.

Undanda chuqurroq birlashishni turli oilalar mehmonxonalari sifatida tashkil topdi.

4.1.3. Mehmonxona xo'jaligi jamoaviy tarkibiy qismi

Mehmonxona xo'jaligi tarkibidagi xonalarni asosan yashash, administrativ, xizmat ko'rsatish va yordamchi xonalar guruhlarini tashkil etadi. Yashash xonalar guruhiga undagi barcha kategoriyadagi nomerlar va ularga bevosita bog'liq bo'lgan xonalar kirsada, administrativ xonalar guruhini o'zining barcha xonalari va kommunikatsiyasi bilan vestibyl, administrativ kabinlar tashkil etadi. Mehmonxona xizmatini yuqori darajada bajarish uchun, ularga kinokonsert zalari, musiqali salonlar, konferensiya o'tkazish, uchrashuv xonalari guruhi kiradi. Yordamchi xo'jaliklariga xo'jalik va omborxonalar, ya'ni choyshabxona va kir yuvish xonasi, inventarlar va ta'mirlash ustaxonalari, omborxonalar, ustaxonalar tashkil etadi.

Mehmonxona xo'jaligidagi bu guruh xonalarni, yanada katta guruhlarga bo'lsak, unda ularni asosan jamoaviy va yashash qismiga bo'lish mumkin.

Mehmonxonaning jamoaviy (kollektiv) qismi deb, odamlarning jamoa (kollektiv), guruh bo'lib, birgalikda bo'lib turish joylari, xonalari tushuniladi.

Ularga, mehmonxona binosining ko'p holda birinchi yoki yarim podval qismiga joylashgan: vestibyl – qabul qilish, uzatish guruh xonalari, ovqatlanish korxonasi, turli xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq xonalar, administrativ guruh xonalari kiradi.

Vestibyl, mehmonxonada markaziy xona hisoblanadi, qolganlari undan so'ng yoki uning atrofida tashkil topishi mumkin. Jamoaviy xonalar guruhidagi administrativ xonalar mehmonxona koridorlarining

ikki tomoniga joylashtiriladi. Ovqatlanish korxonasi xonalari anfidial turda – ketma-ket: bar, restoran zali, oshxonasi va ketma-ket joylashtirilgan yordamchi xonalar tashkil etishi mumkin. Turli xildagi konferensiya, konsert, kino va h.k. zallar mavjud bo'lsa, ular ham ma'lum bir kompozitsiyada joylashtiriladi. Umuman olganda, jamoaviy guruh xonalari bir-biriga yaqin va bog'liq holda bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, vestibul guruh xonalari, mehmonxonalar asosiy mehmonlarni qabul qilish va kuzatish xonalar guruhidan iborat. Ular tarkibida: navbatchi administrator, pasport stoli, kassa va xizmat ko'rsatish byurosi kiradi. Bundan tashqari, ularda aloqa agentligi, transport bo'limi, suvenirler, parfumeriya, gazeta va jurnallar sotish kioski bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro aloqa bo'limi, bank bo'limi, transport agentligi, atele va sataroshxona va h.k. ham shu yerda bo'lishi mumkin. Vestibuldan restoran va kafelarga hamda yashash qismiga o'tish qulay bo'lishi kerak.

Mehmonxona jamoaviy qism administratsiya xonalari: direktor kabineti, buxgalteriya va kadrlar bo'limlari tashkil qiladi.

4.1.4. Mehmonxona xo'jaligining jamoaviy qismiga qo'yilgan talablar va ularni tashkil etish

Mehmonxona xo'jaligining jamoaviy qismi iste'molchilar va xizmatchilar ehtiyojidan kelib chiqqan holda, ularning talablarini qondirishi, ham yashashda, ham yashovchilarga xizmat ko'rsatishda qulay bo'lishi kerak. Shuning uchun mehmonxonalarning dastlabki loyihalanishidan boshlab bu talablar ko'rib chiqilishi lozim.

Jamoaviy guruh xonalaridan boshqalariga nisbatan birmuncha muhim hisoblangan vestibulni tashkil etishda, uning mehmonlar kelib va ketish, hamda bo'linish joyi ekanligini hisobga olish kerak. Shuning uchun, uni tashkil etishda albatta, mehmonxonaga bosh – asosiy kirish joyi unda bo'lishi, shu bilan birga vertikal kommunikatsiyalar tutashgan joyi va mijozlar dam olish zonasi bo'lishi kerak. Vestibul rasmiylashtirish stoykasi va qisqa vaqt dam olish joyi orasi o'tish yo'li bo'lmasligi, shu bilan birga yashovchilar kirish lifti yoki zinapoyasi

uncha uzoq bo'lmisligi, ayniqsa nomerlar kaliti olish va berish joyidan uzoq bo'lmisligi kerak.

Vestibyl bilan restoran, kafe va bar, sartaroshxona, yukni tashiydiganlar xonachasi, inventarlar ijarasi punkti, tibbiy xizmat ko'rsatish xonalari bir-biriga qisqa, qulay bog'liqlikda bo'lishi talab etiladi. Vestibyl guruhi xonalari ham hajmiy, ham kenglikda ko'zga ko'rinadigan, did bilan jihozlangan, osoyishta, yorug' va shinam bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning balandligi mehmonxona kategoriyasi, darajasidan, sig'imidan kelib chiqqan holda 3,6; 4,2; 4,8 m yoki bundan yuqori bo'lishi, umuman qanchalik balanda bo'lsa shunchalik hashamatli, ko'rkam ko'rinadi.

Vestibyl guruhidagi xonalarda yumshoq mebel (kreslo, divanlar, stullar) guruh-guruh etib joylashtiriladi. Stol va stullar turli konfiguratsiyada bo'lishi mumkin. Ammo, albatta, ular umumiy intererga qo'yilishi – mos kelishi zarur. Bu yerda televizor, radiopriemnik, Wi-Fi qo'yilsa ham bo'ladi. Pollari parket bo'lmasa albatta, yo'lakli gilamlar, gilamlar to'shalsa yoki plastikli qoplama qoplansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Vestibyl intereri bu mehmonlar ko'ziga birinchi tushadigan joy, shuning uchun uning intereriga ko'proq e'tibor berish zarur.

Mehmonxona vestibylining tartibi, tozaligidan mehmonlar mehmondo'stlik darajasini aniqlaydilar. Mehmonlar vestibulda hujjatlarni rasmiylashtirishlaridan, kerakli axborot olishlaridan tashqari, bu yerda qisqa dam olib, xordiq chiqaradilar, kutadilar.

Vestibylning ahamiyatli elementlaridan yana biri bu zinapoyalar. Ular o'zlarining tuzilishi, kengligi, balandligi bilan umumiy intererni bezashlari kerak.

Vestibulda bo'lgan kiosklar guruhi (gazeta, suvenir, chekish mahsulotlari, parfyumeriya) va xizmat ko'rsatish byurosi, narsalarni saqlash kamerasi, garderoibi ham intererga mos bo'lib, qo'yilishida odamlar oqimiga xalaqit bermasligi kerak.

Qoidaga asosan, administrativ xizmatlar, porte (mehmonxona shveysari) va hisob-kitob bo'limlari umumiy zaldan to'siqlar bilan ajratilishi kerak. Ular mehmonlar bilan muloqotga xalaqit bermasligi

kerak. Bu xizmatlar shunday qurilishi kerakki, xizmatchilar ish davomida mehmonxona vestibyuliga kirib kelganlarni ko'rib turishlari va tartibni nazorat qilib turishlari mumkin bo'lsin.

Mehmonxona intererida ko'klamzorlashtirish ham muhim hisoblanadi. Mehmonxona uchun dekorativ o'simliklar, xonalarda rivojlanadiganlarini tanlash kerak. Gullar vestibyulda, zinalarda keramik yoki plastmassali tuvaklarga ekilib, maxsus tagliklarga qo'yish kerak. Ularni turli usulda kaproniy iplar yordamida osma ravishda ham qo'yib chiqish mumkin. Shu bilan birga turli xildagi sun'iy gullarni ham qo'llash mumkin.

Mehmonxona jamoaviy qismida kontorali, restoran va maxsus mebellar qo'llaniladi.

Kontorali mebeli turli xizmatchilar va navbatchilar uchun ishlatilsa, bar, kafe, restoranlarda restoran mebeli va sataroshxona, hujjatlar va kartochkalar uchun maxsus mebellar qo'llaniladi.

Vestibyuldagi mebellar ham ikki guruhga: xizmat mebeli (administrativ ish joyida, porte, hisobchi, operatorlarga) va mehmonlar uchun mebel bo'linadi. Vestibyulda jamodonlar, sumkalar qo'yish uchun, jurnal stolchalari, yumshoq divan, kreslolar qo'yiladi. Agar maydon yetishsa turli ko'rinishdagi dam olish uchun mebellardan "folcha"lar hosil etish mumkin.

Mehmonxona jamoaviy qismida, yana bir necha ovqatlanish korxonalari bo'lib, ular nafaqat mehmonlarni, ulardan tashqari keluvchi turistlarga kirish bimalol vestibyul guruhidan bo'lishi kerak. Ularni shunday joylashtirish kerakki, yashash qismidan yo'laklar to'g'ridan-to'g'ri bo'lsa, xo'jalik zonasida qisqa bo'lishi kerak. Ovqatlanish korxonalaridagi joylar mehmonxonadagi joyga teng yoki ko'p bo'lishi kerak. Ovqatlanish korxonalari zallari mehmonxona nomerlari va vestibyul bilan qulay bog'liqlikda bo'lishi kerak.

Dam olish, maishiy xizmat ko'rsatish xonalarining bo'lishi, mehmonxonalarining kategoriyasiga bog'liq ravishda bo'lib, asosan 4* va 5* mehmonxonalarda to'liq tashkil topadi. Ular ham vestibyul, ham yashash qismi bilan qulay bog'liqlikda bo'lishi talab etiladi.

Mehmonxonalarda konferensiya zali, ko‘rish zali turli uchrashuvlar uchun xonalar ko‘p holda birinchi yoki ikkinchi qavatlarida joylashtiriladi. Ularni universal maqsadda qo‘llash uchun tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularga kirish, chiqish vestibuldan bajarilishi qulaylik yaratadi.

Mehmonxona jamoaviy qismida maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalarining xonalari ham bo‘lib, ular mehmonxona binosining pastki qavatlarida joylashtirilishi, ko‘p hollarda ularning oxirgi qismlarida rejalashtiriladi.

Turistik sport-sog‘lomlashtirish xonalari: metod kabinet instruksiyalash, inventar ijarasi xonalari, madaniy dam olish xonalari atrofida bo‘lsa, sport inventarlari ombori yarim yoki podval xonalarda joylashtiriladi. Xuddi shuningdek, bu yerda sauna-basseyni bilan, mashq qilish xonalari ham bo‘lishi mumkin.

4.1.5. Jamoaviy qismlardagi xizmatchilar, yashovchilar oqimlari va ularning boshqarilishi

Mehmonxonalar jamoaviy qismini tashkillashtirishda, undagi odamlar harakat oqimlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Chunki, mehmonxona tarkibiy xonalarini o‘zaro bog‘lab turuvchi, undagi oqimlar hisoblanadi.

Mehmonxona ichki, kirish va chiqish oqimlardan tarkib topgan bo‘ladi.

Ichki oqim deb – xonalar yoki guruh xonalari orasidagi odamlar harakati tushunilsa, **kirish oqimiga** – mehmonxonaga kiruvchi yashovchilar, yangi kelganlar, mehmonxona xizmatchilari, restoranlarga kiruvchilar, hamda mehmonxonaga keltirilgan mebellar, inventarlar, toza choyshablar, mahsulotlar, bagajlar va h.k. harakati tushuniladi. **Chiqish oqimlari** – mehmonxonalarga kirish oqimiga teskari bo‘lgan mehmonxonadan ketayotgan, oziq-ovqat chiqindilari, eskirgan jihozlar, yuk va boshqalar harakati tashkil etadi.

Barcha hosil bo‘ladigan oqimlar ma’lum yo‘nalishda va mo‘ljalga qaratilgan bo‘ladi. Hosil bo‘ladigan texnologik oqimlar harakati vaqtida birlashishi yoki teskari bir-biridan izolyatsiyalanib, ajralishi mumkinki,

bularning sababi asosan ularning sanitariya holatining to'g'ri kelmasligi bo'lishi mumkin.

Oqimlarning asosi bo'lib, mehmonxonaga keluvchilar oqimi hisoblanadi. U mehmonxona bosh kirish joyidan qabul qilish stoykasiga, so'ng lift va yashash nomeriga boradi. Mehmonlarni ketishida bu oqim unga qarama-qarshi ravishda bajariladi. Bundan boshqa mehmonlar oqimi yashash qavatlaridan ovqatlanish xonalariga, maishiy xizmat, ko'ngilochar va sport-sog'lomlashtirishga mo'ljallangan xonalarga yo'naladi. Yashovchilar bilan birga xizmatchilar oqimi harakati ham mavjud bo'lib, ularni harakat yo'nalishi va intensivligini boshqarish mumkin.

Mehmonxonalarni tashkil etishda kirish, chiqish joylarining ahamiyati katta hisoblanadi. Asosan, mehmonxonalarda kamida uchta: asosiy, kirish, restoranga kirish va xizmatchilar kirishi hamda chiqish va restoranlarga kelgan mashinalarni bo'shatish maydonchasi bo'ladi. Bunday bo'lishi ularni optimal ravishda ekspluatatsiya etishni ta'minlaydi. Bundan boshqa, har vaqtda choysablar, chiqindilar, jihozlar uchun ochiluvchi-yopiluvchi kirish va chiqish joylari bo'lishi mumkin.

Mehmonxonalar tarkibiy qismidagi xonalarning o'zaro bog'liqligini bajarish maqsadida, ularda vertikal va gorizontal bog'liqlik yoki kommunikatsiyalar amalga oshiriladi.

Xonalarning gorizontal bo'yicha aloqalarni oshirish bir qavatda koridorlar, o'tish yo'laklari, galereyalar, xollar va boshqalar bilan bajariladi.

Vertikal bog'liqlik esa, zinalar va panduslar, lift va turli mo'ljaldagi ko'targichlar, zamonaviy mehmonxonalarda eskalatorlar qo'llaniladi. Ushbu kommunikatsiyalarni bir-biriga qavatlardagi zinalardagi xollar, vestibyl va fayelar orqali bajariladi.

4.2. Mehmonxonadagi yashash qismining tashkil etilishi

4.2.1. Mehmonxonadagi yashash qismi – yashash nomerlari, ularni bog‘lovchi kommunikatsiyalar

Mehmonxona xonalari tarkibi mehmonxona tipidan kelib chiqqan holda, uning yuqori darajada mehmonlarga qulay yashash sharoit yaratilishi va xizmatchilar ishlash sharoitini yaxshilash talab etiladi.

Mehmonxona binosining asosiy qismini yashash xonalari tashkil etadi. Bunga, mehmonxona nomerlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan yordamchi va xizmatchi xonalar kiradi.

Mehmonxona nomerida yashash uchun (oshxonadan tashqari) xordiq chiqarish, ishlash, yotish va mehmon qabul qilish uchun barcha sharoitlar bo‘lishi kerak. Ularning qanchalik qulaylik darajasiga qarab ko‘p nomerli (apartamentlar); ko‘p holda uchta xonadan: yotish, mehmondo‘stlik, ishlash kabineti iborat bo‘ladi. Undan tashqari, mini oshxona, ikkita sanuzel (uning bittasi mehmonlar uchun) bo‘ladi.

Lyuks nomerlari ikki (yotish va mehmon kutish) xonasidan iborat bo‘lishi kerak. **Dubl nomerlarda** nomerlar juftligi hosil qilingan bo‘ladi.

Bulardan tashqari, standart nomerlari – bir xonali standart talablariga javob beruvchi xonalar hisoblanadi.

Yashash qismining yordamchi xonalariga vestibyul, koridorlar, qavatdagi xollar va mehmon kutish joylari kiradi. Ushbu yordamchi qismi yashash qismining bog‘lovchi kommunikatsiyalari hisoblanadi. Bu kommunikatsiyalar odamlar oqimini vertikal, gorizontal ravishda tashkil etadi. Ularning bog‘lanish uzellarida xoll; vestibyul, zonalar maydonchasi va h.k. bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, mehmonxona yashash qismi korpusini, takrorlanuvchi qavatlar tashkil etadi. Ular esa, liftlar, zinalar orqali vertikal ravishda, koridorlar, xoll va vestibyullar yordamida gorizontal ravishda bog‘liqlikda bo‘ladi. Nomerlar koridorning ikki tomonidan bo‘lib, bir butun kompleks hosil etadiki, ularni joylashtirishda albatta, tabiat yorug‘ligini, insolyatsiyani hisobga olish kerak. Yo‘lakning ikki tomonlama nomerli mehmonxonalar keng tarqalgan bo‘lsada, ba’zi

xollarda, nomerdan chiqqanda, ma'lum ko'rinish bo'lishi uchun (masalan, dengiz, tog') nomerlar koridorning faqat bir tomoniga joylashtirilishi mumkin.

Yashash qismi qavatida nomerlardan tashqari, yordamchi xonalar ham bo'ladi. Ularning bo'lishi albatta, ularning tarkibi mehmonxonada xizmat ko'rsatish shaklidan kelib chiqqan holda: avtonom, yarim avtonom yoki markazlashgan bo'ladi.

Yordamchi xonalarning avtonom joylashishi, agar hamma funksional xonalar (farroshlar xonasi, tozalash inventarini saqlash xonasi, ofitsiantlar xonasi, kalitli xo'jalik) yashash qavatida bo'lsa, bunday sharoitda mehmonlarga ko'p xilli xizmatlar ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Markazlashgan formada barcha funksiyalar mehmonxonaning jamoaviy qismida integratsiyalanadi.

Yarim avtonom forma avtonom va markazlashgan xizmat ko'rsatishning o'rtasida bo'lishi mumkin.

Yashash qismining yordamchi xonalari xizmat ko'rsatish formasiga bog'liq bo'ladi. Bunday bog'liqlik 4.1-jadvalda keltirilgan.

Yashash qismining yordamchi xonalari shunday joylashtirilishi kerakki, xizmat ko'rsatuvchilar mehmonlar yashash vaqtida ularga xalaqit bermasligi kerak.

Yashash qismining gorizontal kommunikatsiyalariga ularning koridor va xollari, vertikal liftlar (odamlar va yuk uchun), eskalatorlar va axlat o'tkazish trubalari, choyshab o'tkazgichlar kiradi.

Xo'jalik lifti va zinasi, axlat o'tkazgichlar va choyshab o'tkazgichlar shunday joylashishi kerakki, personal oqimi mehmonlar oqimi bilan kesishmasligi kerak. Ular koridorining kengligi shunday bo'lishi kerakki, jamodonlar bilan qarama-qarshi yurganlar bir-biriga to'qnashmasinlar.

Yashash qismining qavatida, yuqorida ko'rsatilganlardan boshqa kafe, kichik peregovor (suhbatlashish) xonasi ham bo'lishi mumkin.

4.1-jadval

Mehmonxona yashash qismidagi yordamchi xonalar tarkibining xizmat ko'rsatish formasiga bog'liqligi

№	Yashash qismining yordamchi xonalari	Xizmat ko'rsatish formasi		
		avtonom	yarim avtonom	markazlashgan
1.	Farrosh xonasi			
	Inventar saqlash	+	+	+
2.	xonasi			
	Toza choyshablar	+	+	
3.	xonasi			
	Kir choyshablar	+		+
4.	xonasi			
	Personal san uzeli	+	+	
5.	va dushi			
	Axlat yig'ish	+	+	
6.	xonasi	+		
7.	Ofitsiantlar xonasi	+		
8.	Kiyim dazmollash xonasi	+		

4.2.2. Mehmonxonalardagi yashash va yordamchi xonalarini tashkil etishga qo'yilgan talablar

Mehmonxona yashash qismidagi qavatlardagi xollar qabul qilish, hamda mehmon kutish, dam olish yoki xizmat yuzasidan uchrashish joyi hisoblanadi. Shuning uchun ham u yerdagi mebellar (kreslo, divan, stullar) yumshoq bo'lishi guruh-guruh etib joylashtirilishi talab etiladi. Stollar, stullar turli konfiguratsiyada bo'lsada, lekin xollning umumiy intereriga mos ravishda bo'lishi kerak.

Xollarda, televizor, radipriemnik, Wi-Fi bo'lishi ham talabga muvofiq bo'ladi. Uning poliga yo'lak gilamli, gilamlar solinishi, ularning rangi albatta, tinchlantiruvchi bo'lishi talab etiladi. Agar pol parket bo'lsa, unda gilamlar to'shalmasligi ham mumkin.

Yashash qismi nomerlaridagi hamma narsalar yashashning barcha talablarini qondirishi, uning shinamligi, joylashganligi, qo'yilishi xordiq chiqarishga, dam olishga mos bo'lishi kerak. Nomerlardagi mehmon ishlatadigan idishlar, ichish priborlari, vazasi, kuldon va boshqalarning ahamiyati ham katta hisoblanadi. Shuning uchun, ularning tuzilishi, rangi, konfiguratsiyasi, nomerning umumiy intererini to'ldirishi umumiy ko'rinish ansambligini to'ldirishi zarur.

Nomerlardagi kiyim shetkasi, axlat shetkasi, satilchasi, kurakchasi va boshqalar ham, xuddi shuningdek intererga mos, zamonaviy bo'lishi kerak.

Yashash nomerlardagi mebellar, turli vositalari chiroyliligi, mosligidan tashqari, ular o'zining yengilligi, ixchamligi bilan nomerni yig'ishtirishda, xizmat ko'rsatishga ham qulay bo'lishi kerak.

Mehmonxona garnaturalari, ko'p holda yog'ochli, yorqin rangda, laklangan, ishchi yuzalari plastikli bo'lishi mumkin. Nomerlardagi mebellar statsionar (biriktirilgan), kombinatsiyalashgan va ko'chirish mumkin bo'lgan yoki seksiyali bo'lishi mumkin. Ayrim hollarda osma mebellar ham qo'llanilishi mumkin. Bu yerda ham zonali, ya'ni dam olish, ishlash zonalari bo'yicha qo'yiladi.

Nomerlarda bir, ikki yoki uch krovat bo'lsa, mos ravishda, bir joyli, ikki yoki uch joyli bo'lishi mumkin. Agar nomerda uch krovatdan ko'p krovat qo'yilsa, ular yotoqxona hisoblanadi. Krovatlar konstruksiyasi, nomerlar intereriga mos ravishda bo'lishi kerak.

Nomer kirish old tomonida kiyimlar shkafi yoki polkali, kiyimosgich, oyoq kiyimi qo'yadigan taglik, oyna bo'lishi kerak. Dam olish uchun nomerda yumshoq mebel turli tuzilishda va kattalikda, chiroyli va qulay bo'lishi lozim.

Mehmonxona yumshoq jihozlariga turli xildagi matohlar, drapirovka, parda, deraza pardasi, choyshablar, gilamlar, yo'lakli gilamlar, krovat oldi gilamchalar, ko'rpa-yostiq, yopgichlar, yostiq va odyollar kiradi.

Dekorativ moddiylar yumshoq mebelga tortadigan va drapirovka qo'llaniladiganga bo'linadi. Bularga pardalar (zanoveskalar), shtorlar,

qalin pardalar, deraza parda (gardinalar), jalyuzilar, gilamli va choyshablilarga bo‘linadi.

Gilamli qatlam, yo‘lakcha, krovat oldi gilamchalar nomerlar intererini tashkil etishdan tashqari, yana shovqindan izolyatsiya rolini ham o‘ynaydi.

Yengil gazlamalardan derazalarga pardalar, yig‘iladigan yoki to‘liq yopadigan gardinalar, qalin matodan qilingan, deraza va eshikni to‘la yopadigan shtoralar (deraza-eshik pardalari). Ular tushadigan va ko‘tariladigan bo‘lishi mumkin. Drapirovkalarga yana lamberklar, ya’ni deraza va eshik yuqori qismiga qilinadigan kichik pardachalar ham kiradi. Pardalar va gardinlar harakatlanuvchi etib bajariladi. Ularning rasmlari, ranglari umumiy intererga mos ravishda bajarilishi kerak.

Yashash va jamoaviy qismlarning chiroyli bo‘lishiga pardalarga qo‘llaniladigan karnizlarning ahamiyati katta hisoblanadi. Mehmonxonalarda turli konstruksiyadagi karnizlar qo‘llaniladi. Ular metalli, plastmassali, taxta-yog‘ochli bo‘lishi mumkin. Albatta, ular zamonaviy umumiy ansamblga mos, qulay bo‘lishi kerak.

4.2.3. Mehmonxonadagi yashash va jamoaviy xonalarining ta’minoti va bezalishi

Mehmonxonaning barcha tashkil etgan mulkni saqlanishga g‘amxo‘rlik qilish, bilimli, to‘g‘ri ekspluatatsiya olib borish, vaqtida ta’mirlash ishlarini bajarish, mehmonxona personalining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Mehmonxona ta’mirlash ishlarini maxsus korxonalar olib boradi. Mehmonxonalarda maxsus interer rassomi bo‘lmasada, mehmonxona ishchilari, ayniqsa, qavatlardagi personallar, har bir nomerlarni, yo‘lak va xollar, vestibyullarni zamonaviy interer talablariga to‘g‘ri kelishiga qiziqishlari kerak. Shuning uchun intererga qanday qilib zamonaviy ko‘rinish berishni bilishlari kerak. Buning uchun, yumshoq inventarlarga rang va ko‘rinishga, shtoralar, choyshab yopgichlar, zanoveska-pardalar, odyollar, gilamlarga qarab yoki teskari yumshoq mebel rangi va ko‘rinishiga qarab tanlanishi; ta’mirlash vaqtida devorlar va potoloklar rangini tanlashni bilishlari kerak.

Mehmonxonalarni bezash, ko'p holda uning shu joylarda o'tgan tarixiy voqealar, madaniy urf-odatlaridan kelib chiqsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun albatta, turli jihozlar va vositalar qatori, dekorativ san'at predmetlari hisoblangan keramika, mozaika va panellarning qo'llanilishi samarali hisoblanadi. Xollarda va vestibyullarda, nomerlarda turli rasmlarni qo'yilishi ham mumkin.

Mehmonxona binolarini ichki va tashqi tomonini bezashda ranglarning va yorug'likning ahamiyati katta hisoblanib, ularning to'g'ri tanlanishi mehmonxonalarni yanada chiroyli, shinam qilishi mumkin.

Mehmonxona xonalarida mehmonlarning qancha muddatda bo'lishlari bilan ular uzoq va qisqa muddatliga bo'linadi.

Uzoq muddatda bo'ladiganlariga nomerlar va boshqa yashash qismlari: xollar, mehmon kutish, dam olish joylari kiradi.

Qisqa muddatlisiga: vestibyullar, zinapoyalar, lift xollari, koridorlar kiradi. Har bir guruh o'ziga mos aniq rangli va yorug'lik talab etadiki, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri yechimi ayniqsa, kechki paytda seziladi. Chunki, aynan shu vaqtda mehmonlar mehmonxonada bo'lishadi.

Agar ranglar ikki guruhga bo'linsa, birinchi guruhga oq, qora va kulrang; ikkinchi guruhga qizil, sariq, yashil, moviy, ko'k, pushtu ranglar kiradi. Xonlardagi turli rangdagi mebellar, xona rangi, inventar va boshqalar rangi bilan, bir butun bir-biriga mos kelgan rangli sezilarli manzarani, ko'rinishni hosil qilish mumkin.

Ranglarning ba'zilar odamlarga uyg'otuvchi, ba'zilar esa tinchlantiruvchi ta'sir etadi. Ranglar va yorug'lik o'zining ta'sir xususiyatiga ko'ra: issiq va sovuq, yorug' va qoramtir, xonani keng va qikichik ko'rsatishi, bir butun yoki bo'lingan qilib va og'ir yoki yengil qilib ko'rinishi mumkin. Ranglar, bundan boshqa tez ko'zga ko'rinuvchi, odamni o'ziga jalb qiluvchi bo'lishi ham mumkin.

Ranglarni va yorug'likni tanlash yo'li bilan o'z maqsadlarimizga ishlatishimiz mumkin. Ularning yordamida mehmonlar kayfiyatini ko'tarish asosiy ish hisoblanadi. Buning uchun ranglar qonunini bilish zarur. Ma'lumki, quyosh nuri spektri, asosan yetti rangdan: qizil, to'q

sariq, sariq, yashil, havorang, ko'k, binafsha rangga bo'linadi. Agar ularni yetti seksiyaga bo'lsak, ularning qo'shni ranglari bir-biriga yaqin hisoblanadi. Agar ular bir-biriga qarshi turgan bo'lsa, ular kontrastli hisoblanadi. Masalan, qizil, yashil bilan; binafsha rang sariq bilan va h.k. bir-biriga kontrastli bo'ladi.

Ranglar issiq va sovuq bo'lishi mumkin. Issiq ranglarga: qizil, to'q-sariq, sariq kirsa, havorang va binafsha ranglar sovuqlikni bildiradi. Yorqin ranglar nisbatan quvnoq, sovuq ranglar bo'shliqni xuddi kengaytirgandek, mallarang esa bo'shliqni kichraytirib, lekin nisbatan shinam etib ko'rsatadi.

Mehmonxona nomerlarida ranglar yorqin va yumshoq tusda bo'lishi kerak. Polning yorqin bo'lishi, ya'ni sovuq yorqin kulrang yoki och-yashil lineolium yoki gilamli qoplama, polning tozaligidan va shaffofligidan darak beradi.

Mehmonxonalarda ranglarning to'g'ri tanlanishidan bir qatorda, yorug'lik bilan ta'minlash ham katta ahamiyatga ega. Chunki, ular bir-biriga bog'liq, hamohang hisoblanadi. Yoritish sistemasining tanlanishi, ya'ni tabiiy yoki sun'iy yorug'liklarning qo'llanilishi ham ma'lum talablar bo'yicha bo'lishi kerak. Yorug'lik sistemasi mehmonxona binosining arxitekturasini va intereriga mos bo'lishi kerak.

Mehmonxonalarda turli yoritish sistemasi qo'llaniladi. Umumiy xonaning hammasini yoki alohida uchastkasini yoritishga xizmat qiladi. Umumiy yoritish katta zallarga, koridorlarga, zinapoyalarda, omborxonalarda qo'llaniladi. Mahalliy yoritish yashash, administrativ va xizmat xonalarida ishlatiladi. Nomerlar va boshqa yashash xonalarida to'g'ridan-to'g'ri yorug'lik tushirish bilan yoritilsa, yotish xonasida tarqalgan, aks ettirilgan (qaytarilgan), xollarda qaytarilgan va tarqalgan to'g'ri yorug'lik qo'llaniladi.

Koridorlardagi yorug'lik sistemasi yashovchilarning tez orientorlanish omillariga yordam beruvchi va asosiy yorug'lik oqimi eshik tomon yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Kechki yoritish kunduzgiga nisbatan bir necha barobar ko'proq bo'lishi talab etiladi.

Mehmonxonalarda normal yashash sharoitini yaratishda belyo va ko'rpa-to'shaklar katta ahamiyat kasb etadi. Bularga: choyshab,

yuqorigi va pastki yostiq jildi, shaxsiy hammom, maxerli sochiqlar, ko'rpa jildi, odyol, yostiqlar, yopgich va matraslar kiradi.

Almashish jihozlariga ishlab chiqarish inventari, instrumentlar, vositalar kirs, xo'jalik inventariga esa kontora mebeli va osgichi, garderoibi, telefon apparatlari, yong'inga qarshi inventarlar kiradi. Bulardan tashqari, maxsus kiyimlar: maxsus oyoq-kiyimi, kambenzonlar, kostyum va kurtkalar, shimlar va xalatlar, qo'lqop, ko'zoynak, gaz niqobi (protivogaz), respiratorlar ham saqlanadi.

Omborxonadan belyolarni olishda, albatta, ularning hammasida mehmonxona shtampi yoki yozilganligi ishga qo'yilgan vaqti ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Belyolar ichida eng chidamlisi va qulayligi bu paxtali va poxolli moddiylardan qilinganlari hisoblanadi.

Mehmonlar uchun belyolar o'lchami, mehmonlarni qoniqtiruvchi, yotishda, dam olishda qulay, shu bilan birga o'lchamlari ko'rpa-yostiqqa mos bo'lishi kerak. Ko'p holda ko'rpa jildi 215x143 sm, choyshab 214x150 sm, yostiq jildi 70x70 sm va vafelli sochiq 120x143 sm bo'lsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mehmonxona xizmatchilariga ham mehmonxona hisobidan maxsus ishchi kiyimlar beriladi. Xizmatchilarga beriladigan maxsus kiyim ro'yxati 4.2-jadvalda keltirilgan.

4.2-jadval

Xizmatchilarga beriladigan maxsus kiyimlar ro'yxati

№	Lavozimi	Maxsus kiyim	Kiyish muddati, oy
1.	Gornichniy	Paxta moddiyidan xalat (3 dona), Fartuk va ro'mol (3 dona), Rezinali qo'lqop (1 juft)	24 24 ishdan chiqqunicha
2.	Garderoibchi	Paxta moddiyidan xalat	12
3.	Omborchi	Paxta moddiyidan xalat, Kombinatsiyalangan qo'lqop	12 3
4.	Ekspeditor	Suvni o'tkazmaydigan plash	36
5.	Kurer	Suvni o'tkazmaydigan plash Terili oyoq kiyimi	36 12
6.	Ishlab chiqarish va xizmat xonalari farroshi	Paxta xalat Qo'lqop kombin. Rezinali etik Rezinkali qo'lqop	12 2 12 6

Berilgan kiyim-boshning berilgan vaqtdan e'tiboran hisob-kitobi olib boriladi. Barcha kiyimlarda ham mehmonxona tamg'asi yoki tikilib yozilganligi bo'lishi kerak. Ular mehmonxona mulki hisoblanib, personalning ishdan ketishi yoki yangisini olish vaqtida qaytariladi.

Navbatchi kiyimlar berilib, qo'llanilgandan so'ng yana qaytarib olinadi.

Albatta, har bir mehmonxona mulkining mehmonxonada bo'lishi kerak bo'lgan minimal soni mavjudki, ular mehmonxonalarni tashkil etishda qo'llaniladi.

4.3. Mehmonlarni qabul qilish va joylashtirish xizmatini tashkil etish texnologiyasi

4.3.1. Mehmonlarni qabul qilish, joylashtirishni tashkil etishning umumiy tavsifi

Oxirgi vaqtda mamlakatimizda turizmning jadal sur'atlarda rivojlanishi bilan mehmonxonalar ham ko'payib, ularga bo'lgan talablar ham oshib borayapti.

Mehmonxonalar uchun professional ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida malakaviy kadrlar tayyorlanib kelinayapti.

Mehmonxonalarni qabul qilish, joylashtirish ishlarida, ishlarning murakkablik darajasiga qarab turli malakaviy lavozimlar belgilangan.

Turli mamlakatlardagi mehmonxonalarning qabul qilish, joylashtirish xizmatlarida xizmat ko'rsatuvchilar lavozimlari turlicha nomlanadi. Masalan, Rossiya davlatining malakaviy talabnomasi bo'yicha (professional standartiga ko'ra) qabul qilish va joylashtirishda birinchi malakaviy darajada: aloqa operatori, shveysar va xizmatchi yuk tashuvchilar kiritilsa, undan yuqori ikkinchi darajada: qabul qilish va joylashtirish menedjeri, mehmonlarga xizmat ko'rsatish menedjeri, administrator, porte, kassir, pasport va ma'lumotlar stoli ishchilari kiradi. Uchinchi darajada: qabul qilish va joylashtirish xizmati boshlig'i, katta administrator, administrator lavozimlari belgilangan.

Aksariyat rivojlangan chet el davlatlari mehmonxonalarida esa klerklar, konferjlar, pajlar ham ish olib boradi.

Klerk - ingliz tilida soʻzlashadigan mamlakatlarda xizmatchi –bu xodim xizmatchi, ofis ishchisi deb yuritiladi,

Oʻzbekistonda xalqaro zanjirga kirgan mehmonxonalar, zanjirning bosh mehmonxonasida qanday lavozimlar boʻlsa, shunga qarab tayinlanadi. Xuddi shunday qoʻshma korxonalarda ham kelishuv asosida talabga qarab lavozimlar belgilanadi. Albatta, ularning xili va soni mehmonxona quvvati (nomerlar fondi) va turiga bogʻliq ravishda boʻladi. Lavozimlarning qanday atalishidan qatʼiy nazar mehmonxona qabul qilish va joylashtirish xizmatida boʻlganlar faoliyatining asosiy yoʻnalishiga: mehmonlarni kutib olish va qayd qilish, nomerlarga joylashtirish, yashaganligi va xizmatlar uchun hisob-kitob qilish, turli xildagi boshqa xizmatlar koʻrsatish, joʻnatish kabi ishlarga rahbarlik qilish, quyi daraja ishchilar ishini nazorat qilish xizmatlari bajariladi.

Mehmonxona qabul qilish va joylashtirish xizmati mehmonlarning mehmonxonaga kelib mehmonxonadagi birinchi uchraydigan xizmati va joyi hisoblanadi. Undan olgan taassuroti, yaʼni birinchi tanishish jarayonidan mehmonlarning mehmonxona xizmat koʻrsatish haqidagi umumiy taassurotini belgilaydi. Bu xizmatning asosiy funksiyasiga yuqorida koʻrsatilganidek: mehmonxona joyini (nomerini) bronlash, mehmonlarni roʻyxatdan oʻtkazib joylashtirish, mehmon ketish vaqtida hisob-kitobni oʻtkazish, shu bilan birga turli xildagi maʼlumotlarni berish kiradi. Shuning uchun ham mehmonxona xodimlari qanday lavozimda boʻlmasin, oʻzlariga yuklatilgan majburiyatni sifatli qilib bajarishlari shart.

Mehmonxona qabul qilish va joylashtirish xizmati aksariyat mehmonxonalarda ertalab soat 9⁰⁰ dan 24 soat kunu-tun ish olib boradilar.

Bu xizmatning asosiy vazifalaridan yana biri bu mehmonxona nomerlarini maksimal darajada toʻldirish hisoblanadi.

Mehmonxonalarning kunu-tun uzluksiz ishlashi uni maishiy xizmat koʻrsatish korxonasi vazifasiga oʻxshash vazifalarni bajarishga toʻgʻri keladi. Ularning faoliyatlari maxsus qoida va shartlar koʻrsatilgan nizom boʻyicha olib boriladi.

Mehmonxonada yashash vaqtinchalik, kelishilgan muddatgacha, lekin bu 30 sutkadan oshmasligi kerak. Shu vaqtgacha mehmon yashash qoida-qonunini buzmagani bo'lsa, uni administratsiya chiqarishga haqli emas. Agar mehmon yashash muddatini oshirmoqchi bo'lsa, unda hisob-kitob vaqtidan 2 soat oldin administratsiyaga bildirilishi kerak.

Mehmonxonaga yashash uchun mehmon o'z pasportini ko'rsatishi lozim. Harbiy xizmatchilar esa harbiy bileti yoki shaxsiy guvohnomasini ko'rsatishi talab etiladi.

Administratsiya hujjatlarni diqqat bilan ko'rib chiqishi, unda yozuvlar o'zgartirilmagan, buzilmagan bo'lishi kerak. Ayniqsa rasmini tekshirish kerak.

Mehmonxonada joylar umumiy yoki alohida nomerga berilishi mumkin. Bir necha joyli nomerga barcha joylar to'lovi to'lash sharti bilan bir kishiga berilishi ham mumkin.

Mehmonxonada yashovchi mehmonlar umumiy ovqatlanish va boshqa xizmatlarda navbatsiz kirishlariga haqli hisoblanadilar.

4.3.2. Qabul qilish va joylashtirishdagi texnologik operatsion jarayonlar

Qabul qilish, joylashtirishda mehmonlarni kutib olish va ro'yxatga olish, nomerlarga joylashtirish, muddati tugab ketishida hisob-kitob qilish va shularga bog'liq bo'lgan administrativ ishlarni bajarish uchun lavozimlarni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1) menedjer assistenti, registrator, aloqa operatori, shveysar, yuk tashuvchi;

2) qabul qilish va joylashtirish xizmati menedjeri, mehmonlarga xizmat ko'rsatish menedjeri, administrator, konserj, porte;

3) qabul qilish va joylashtirish xizmati boshlig'i, qabul qilish va joylashtirish xizmati menedjeri, smena kattasi, katta registrator, katta administrator.

Konserj xizmati – bu o'z mijozlarining qulayligi va qulayligi haqida qayg'uradigan ma'lum bir muassasa yoki kompaniya tomonidan taqdim etiladigan ixtisoslashtirilgan xizmat.

Maqsadga muvofiq birinchi darajadagi xodimlar professional ta'limdagi kasbiy ta'lim va kasbiy kurslarni o'tagan bo'lishlari; ikkinchisida diplomli mutaxassis, bakalavr, professional ta'lim; uchinchisida diplomli mutaxassis, bakalavr va professional ta'limiga ega bo'lgan xodimlar ish faoliyati ko'rsatishi mumkin.

Qabul qilish va joylashtirish xizmati xodimlarining lavozimlari bo'yicha qilishlari lozim bo'lgan ishlar, majburiyati sifatida 4.3-jadvalda keltirilgan.

4.3-jadval

Qabul qilish va joylashtirish xizmati xodimlari lavozimlari va majburiyatlari izohi

№	Lavozimlar nomi	Majburiyati	Izoh
I	Menedjer assistenti, registrator, aloqa operatori, shveysar, yuk tashuvchi, xizmat menedjeri, administrator, konserj, porte	Mijozning o'z tilida ish olib borish, yuqori madaniyatda munosabatda bo'lish	Mijozni kutib olish, ro'yxatga olish, yozma va og'zaki joylashish haqida informatsiya berish, yuqori madaniyatda so'zlashish, muloqotda bo'lish
		Mijozga g'amxo'rlik ko'rsatish	Yuqori madaniyatda, psixolog sifatida muomala qilish, salomlashish, dastlabki qayd etish, ro'yxatga olishni to'liq bajarish, savollarga javob berish, jo'natishda xayrlashish, barcha xizmatlar tezkorlik bilan bajarish, etiket qoidalariga rioya etish
		Mehmonlarga peshvoz chiqib saomlashish	Yuqori madaniyatda kutib olish qoidasiga (ochiq ko'ngilda, etiket qoidasi bilan, salomlashish kartochkasini qo'llab, mijozga nomini aytib gapirish, ichimlik taklif etish, tushlikka buyurtma olish va h.k.) rioya etgan holda bajarish, maxsus mijozlarga alohida e'tiborli bo'lish va shu bo'yicha

			operatsion jarayonni bajarish
		Mijozlar bilan savol javob qilish	Mijoz talablariga e'tiborli bo'lish, barcha savol va iltimoslarni bajarishga harakat qilish lozim
		Mijozlarga axborot berish	Mikrofon va e'lon doskasidan foydalanish
		Ekstremal holatlarda birinchi yordam berish va harakat qilish	Tezkorlik va aniqlik bilan harakat qilish lozim, yong'in bo'lsa yong'in o'chirgichdan foydalanish, uni o'chirish, kerakli joylarga xabar berish, hodisa joyida masala yechishni topish, favqulotda vaziyatlarda (yiqilsa, kuysa, biror jonot chaqsa, yurak xurujida, insult, shok, qon yo'qotishda va h.k.) malakali yordam berish lozim
		Ish o'rnida xavfsizlik texnikasiga rioya etish	Xavfsizlik qoidalari bo'yicha yo'riqnoma bilan tanishgan bo'lishi va unga rioya qilishi kerak
		Smena tugaganda ishni topshirish	Bajarilmagan ishlarni qayd qilish, yangi smenali taklif berish, kech kelgan mijozlarni ro'yxatdan o'tkazish, muhim xabarlarni berish, biror hodisa yoki muammo bo'lgan bo'lsa daftarga qayd etish, ish joyini tartibga solib topshirish kerak
II	Menedjer assistenti, registrator, aloqa operatori, administrator, konserj, porte	Ishni tayyorlash va tashkil etish	Ish joyini tashkil etish, ma'lumotlar va ishchi moddiylarni tanlash, ofis jihozlarini (kompyuter, printer, faks, kopiya oluvchi, yozuvchi, telefonlar va h.k.) tekshirish, kredit kartani egalik qilish, plastikli karta-kalitlar tayyorlash, mijoz holda mikroklimat qilishda qatnashish (yorug'lik, shamollashtish, harorat, reklama rolik), kelganlar- ketuvchilar ro'yxatini tuzish, bo'sh nomerlarni

			aniqlash
		Zamonaviy telekom-munikatsiya (telefon, faks, kseroks, personal kompyuter, noutbuk, netbuk) vositalarini qo'llash	Aloqa vositalarini ishlata bilish, qo'ng'iroqlar, ularni adreslarga yuborish, kutish rejimi, telefonogrammalarni qabul qilish va jo'natish. Turli spravochniklarni ishlatish. Faksimal, telefon apparatlari va teleks tiplarini aniqlash, ular yordamida bronlash
		Kompyuter sistema-sidan axborotlarni olish va saqlash	Kompyuter fayllaridan foydalanish, hisobini olib borish, informatsiya olish, kompyuterni bilish
		Pochta va xabarlar bilan ishlash	Kiruvchi va chiquvchi pochtni qayta ishlovi, mehmonlar korrespondensiyasini saralash, ularga aytish, ularga bo'lib berish. Ularga mos tovarlarni sotish
III	Restrator, yukta-shuvchi, xizmat menedjeri, administrator, konserj, porte	Mijozlarni qayd qilish va joylashtirish	O'zaro munosabat madaniyati, etiketga rioya etib, kalitlar va yacheykalar bilan ishlay bilish, mijozlar bilan salomlashish. Hujjatlar (pasport, vizalar) bilan ishlash, alohida yoki guruh yoki maxsus mijozlar, bronssiz kelganlarni ro'yxatdan o'tkazish, mehmonlarga nomerlarni taqdim etish, sotish
		Nomerlar kalitlarini berish va nazorat qilish	Kalitlarni berish va hisoblash, bunda kalitlar stoykasini qo'llash, kalitlarni saqlash, universal kalitlar (master-kalit) bilan ishlay bilish
		Mijozlarni jo'natish va kuzatish	O'zaro madaniyat va etiketni bajarib yuk bilan ishlash, transportni tashkil etish, mehmonxonani tanlaganliklari uchun minatdorchilik bildirish, xayrlashish, mijozlar taqrizi, fikri bilan ishlash
IV	Xizmat menedjerlari,	Mijozlarning qimmatbaho	Dekozyator yacheykalarni, umumiy seyfni, mehmonlar

	administrator, konserj, porte	narsalarini saqlash	kartasi, kalitlar sistemasi, konvertlar yashigini qo'llay bilish. Narsasini yo'qotgan mijozlar bilan ish olib borish
		Mijozlar arzi bilan ishlash	O'zaro munosabat madaniyatda, kasbiy etiketda mijozlar arzi ko'rib chiqish: quloq solish, arzi belgilash, uning fikrini bilish, uning ehtiyojini o'rganish va bu masalada qarorlar qabul qilish
		Mijozlar ketishida hisob-kitob o'tkazish	Kassa apparatlarini qo'llay bilish, hisob-kitobda: tezlik, schet tayyorlash, to'lovni olish, standartlariga rioya etish. Mijozlar ketishini registratsiya etish; kalitlar stoykasiga kalitlarni qo'yish, kassaga hisobni berish, mehmonxona nomeri bo'shlig'ini kompyuterga kiritish, shveysar, xizmatchiga aytish. Olingan kalitlarni saqlash, mehmonxona haqini to'lamaganlar bilan ish olib borish
V	Qabul qilish, joylashtirish boshlig'i, mnedjer, katta registrator, katta administrator	Mijozlarning o'z tilida ular bilan ishlash	O'z faoliyati bilan hamsuhbatda bo'lish, ishchi yozuvni olib borish, barcha madaniyat, etiket qoidalariga rioya etish
		Ishga tayyorgarlik va tashkil etilganligining nazorati	Xodimlar ish joyini tayyorgarligini, konstovarlar, blankalar va formalarning bor-yo'qligini, telefon, teleks, faks, elektron pochtaalarda ishlash yangiliklarini, ofis jihozlarini, kredit kartalarni hisoblovchi mashinani, mijozlarga beriladigan informatsiya paketini, turli risola, prospekt, preyskurantlarning mijozlarga berilishini, xoldagi mikroklmatni, jihozlarni

			boshqarishni (shamollatish, harorat, musiqa, reklama roliki), kelganlar-ketganlarning ro'yxatini, bo'sh nomerlarni, bronlarni xodimlar ishini, ularning ko'rinishi, ishdagi munosabatini nazoratini olib borish kerak
		Mijozlarga g'amxo'rlik qilish	Xodimlarga xizmat standarti va maxfiyligi (salomlashish, dastlabki ro'yxatga olish, savollarga javoblar, ketish maxsus takliflar berish, xayrlashish to'g'risida instruktaj va nazorat olib borish. Barcha harakatda tezlik, etiket qoidalari, xizmat ko'rsatish stiliga rioya qilish kerak bo'ladi
		Mijozlar bilan uchrashish va qutlovini nazorat qilish	Mijozlar bilan uchrashda: muloyimlik va etiket qoidalariga rioya etishni, qutlov kartochkalarining borligini, ularning ismi-sharifini, lavozimini to'g'ri aytishlarini, muhim (VIP) mehmonlarni qutlashlarini, ularga informatsiya berilishini, oldindan to'lov o'tkazganligini nazoratini olib borish kerak
		Mijozlarni ro'yxatga olinishini va joylashishini nazoratini olib borish	Nomer fondi bo'yicha informatsiya bazasini, hujjatlarni, pasport va vizalarni, etiket qoidalariga rioya etilishini alohida turistlarni, muhim guruhni, bronsiz kelganlarni, nizoli sharoitlar profilaktikasini nazoratini olib borish
		Qabul qilish va joylashtirish xizmati informatsion bazasini qo'llab-quvvatlash va olib borish	Kompyuter fayllardagi informatsiyalar to'g'riligini, kompyuterni qanchalik xodimlarning bilishini nazoratini olib borish
		Mijozlarga informatsiya berish va	Tez informatsiyalarni berish, so'rovlarga qanday qaralishi,

		savollarga javob berish	boshliqlar va hamkasblar bilan aloqani nazorat qilish
		Mijozlar qimmat-baho narsalarini saqlashni tashkil etishni nazorati	Dekozitor yacheykalarni, umumiy seyflarni, mehmonlar kartalarini, kalitlar sistemasi, konvert-yashiklarni, yo'qolgan narsalarga berilgan arzlarni nazorat etish
		Ekstremal holatlarda birinchi yordam berish	Murakkab holatlarda o'z-o'zini nazorat qilish va birinchi yordamni tashkil etish. Yong'in o'chirgichni qo'llash texnikasini, o'z vaqtida xabar berish, hisobot tuzish, vrachni, tez yordamni chaqirish, yong'in o'chirish guruhini chaqirish, vaqt me'yorlariga rioya etish. Turli baxtsiz hodisalarda: yiqilib tushish, kuyish, hashoratlarning chaqishi, favqulotda vaziyatlar: yurak xuruji, insult, shok, ko'p qon yo'qotishda, xushiga keltirishda, sun'iy nafas oldirish va h.k. texnikasini ishlab chiqib, qo'llay olish kerak
		Hisob-kitoblarni tayyorlash, mijozlar ketishini va uzatishni tashkil etish	Hisob-kitob tezligini, schetlar bilan mijozlar to'lovini, kredit kartalarini tasdiqlash, naqd pul hisob-kitob to'g'riligini, qayd etishning borishini, kalitlarning qaytarilishini, kassir bilan munosabatni, mehmonxona fondi xizmati, yuklarni olib chiqarishga ruxsat berish, yuklarga kartochkalarni to'g'ri rasmiylashtirish, pul to'lamagan mijozlar bilan ish olib borishni nazorat qilish
		Mijozlar ketishini tashkil etish nazorati	Transport xizmatini tashkil etishni, xayrlashishni, ularning mehmonxona haqida, xizmat ko'rsatish komfortligi haqida fikrlarini bilish
		Ish joyida texnika	Ish joyida texnika xavfsizligiga

		xavfsizligiga rioya etishni nazorat qilish	uzluksiz rioya etishni, inventar bilan statsionar jihoz bilan, seyf va omborxona bilan ishlashni nazorat etish
		Smena tugashi bilan ishni topshirish nazorati	Bajarilmay qolgan ishlarning yozuvi, kech kelganlarni qayd etilganligini, muhim xabarlarni berishni, smenani topshirishni, ish joyini tartibga keltirishni, barcha jihoz va materiallar borligini nazorat qilish
		Qabul qilish va joylashtirish xizmati ehtiyojini rejalashtirish	Resurslarga ehtiyojni tahlil etish va aniqlash, ehtiyojlarni rejalashtirish qoidalarini yaratish va tatbiq etish, biznes-rejalashtirish, strategik va operativ rejalashtirishni tashkil etish
		Qabul qilish va joylashtirishda muammolarni aniqlash va uning tahlili	Muammolarni aniqlash va tahlillash, oqibatini prognozlash, sababini aniqlash, murakkab holatdan chiqish yechimini topish, proflaktik ishlar olib borish
		Innovatsion menejment elementlarini tatbiq etish	Innovatsiya kiritish omillarini aniqlash, tahlil etish, ish uslubini, sharoitini o'zgartirish, xodimlarni o'rgatish, malakasini oshirish, innovatsiya effektivligini oshirish
		Xodimlarga instruktaaj o'tkazish	Instruktaaj o'tkazish texnikasi, ularni xodimlarga yetkazish, qarorlar bajarilishini nazorati, xodimlar javobgarligini oshirish, xodimlar arzi bo'yicha ish olib borish
		Ishlab chiqarish muammolarini yechishda xodimlarga yordam berish	Muammolar tahlili va klassifikatsiyasi, yechimi, sababini aniqlash va bartaraf etish, ogohlantirish
		Qo'losti xodimlar javobgarlik darajasini va majburiyatini o'zaro bo'llash	Ishlarni rejalashtirish va tashkil etish, ish sifatini aniqlash, tahlillash texnikasi, javobgarlik darajasini bo'llash, ishlarini

			tahlillash
		Ishchilar motivatsiyasi	Xodimlar javobgarligi va motivatsiya sistemasini bilish, rag'batlantirish tizimini nazorati, uning samaradorlik tahlilini o'tkazish
		Nizoli holatlarni boshqarish	Strategik va taktik boshqaruv metodini bilish, undan chiqish, boshqarish, sababini tahlil etish, profilaktika ishlarini olib borish lozim
		Ish vaqtini rejalashtirishni boshqarish	Ish kunini rejalashtirish, notekis yuklama vaqti sharoitini rejalashtirish texnikasi. Vaqt sarfi tahlili, kunlik, kelajak ishlarni rejalashtirish, ish vaqtini samaradorligini tahlili, ish natijalarini baholash
		Ishbilarmonlik uchrashuvlarni o'tkazish va tashkil etish	Ishchi uchrashuvni rejalashtirish, uchrashuvni tashkil etish texnikasi, qayta aloqani olish texnikasi, ishchi uchrashuvlarni tahlili

Ushbu jadvalda Rossiya kasbiy standartlaridagi malakaviy talablardan, mehmonxona xodimlariga qo'yilgan talablardan qisqacha izohlab berildi. Bunday talablar bizdagi va boshqa chet el mehmonxonalaridagi xizmatlar asosini tashkil etadi.

Qabul qilish va joylashtirish xizmati operatsion jarayonlarini, ularni bajaruvchi xodimlar, bajariladigan hujjatlar va ish haqi tizimi bo'yicha I.Yu.Lyapina tomonidan tuzilgan jadvalni keltiramiz (4.4-jadval).

Qabul qilish va joylashtirish texnologiyasi operatsion jarayonlarini bajaruvchi xodimlar turli malakaviy bilim darajasiga, kasbiy mahoratga ega bo'lishlari talab etiladi.

Bu operatsion jarayonlarni bajarishda birinchi va ikkinchi darajada ular ish mavzu bo'yicha so'z boyligi tadbirkorlik ish yuritish, shaxsiy, o'zaro muammoli nazariyasini, sog'liqni saqlash, gigiena asoslarini, qabul qilish va joylashtirish tizimini, orgtexnika bilan ishlash

qoidasini, mehnat qonuni, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini, mintaqaviy va mahalliy urf-odatlarini mijoz ehtiyoji, niyatini, personal kompyuterda ishlashni, aloqa tizimini, mehmonxona bozorini, hujjatlar bilan ishlashni va ayniqsa etika va kasbiy etiket qoidalari bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishlari talab etiladi.

Xuddi shuningdek, uchinchi darajadagi boshqaruv xodimlari ham, ko'rsatilganlardan boshqa, yana mehmonxona xo'jaligini, mehmonxona xizmatlari o'zaro bog'liqligini, mehnatni ilmiy tashkillashtirish asoslarini, xizmat ko'rsatish sifatini, nazorat metodlarini, mehmonxona iste'molchilari va tavsifini, huquqiy hujjatlarni, mijozlarga yuqori darajada xizmat qilish sanoatini, psixologiya asoslari, fiziologiya va farmokologiya asosini, barcha xizmatlar texnika va texnologiya bilim va ko'nikmalariga ega bo'lish, shu bilan birga muntazam ravishda quyi daraja xodimlari malakasini oshirish ishlarini ham bajarishlari lozim.

4.4-jadval

Xizmat ko'rsatish operatsion jarayoni


Jarayon	Xodimlar	Hujjatlar	Ish haqi
Mehmonxonaga oldindan joy buyurtma qilish	Bronlash yoki qabul qilish xizmati menedjeri	Bronga buyurtma to'lov kafolati	Qayd etish vaqtida hisobga olinadi. Administratsiya belgilaydi
Uchrashuv	Garaj xizmati, shveysar xabarchi	-	Choy-chaqa
Ro'yxatga qayd qilish	Administrator, qabul xizmati prote, kassir	Anketa, joylashtirishga ruxsa, schet, mehmondo'stlik kartasi	Hisob raqami bo'yicha: joyga tarif, solig'i, maxsus yig'imlar
Asosiy va qo'shimcha xizmat taklif etish	Qabul xizmati, gornichniy xizmati, ovqatlanish, garaj animatorlari, tibbiyot xizmati, sport va turistik instruktorlar, kir yuvish xizmati, ustaxonalar	Xizmatga buyurtmani og'zaki yoki buyurtma blankasini to'ldirish bilan olib boriladi	O'rnatilgan xizmat tarifi bo'yicha
Oxirgi hisob-kitob va ketishni rasmiylashtirish	Administrator, porte, kassir	Hisob raqam	Hisob raqami bilan

4.3.3. Mehmonxonalarda joylarni va nomerlarni bronlash sistemasi

Bronlash deb, mehmonxonaga oldindan joy yoki nomerni buyurtma qilishga aytiladi. Bu ish bilan mehmonxona bronlash xizmati menedjeri yoki administrator shug'ullanadi.

Bronlash jarayoni o'zining necha marotaba bronlanganligi, qaysi vosita yordamida, qanday kafolatlanganligi, necha kishiligi bilan farqlanishi mumkin. Shu asnoda uning klassifikatsiyasi 4.6-rasmda keltirilgan.

Bir marotabali (oddiy) bronlashda bir oy yoki nomer faqat bir mijozga bo'lsa, ikki martaligida mehmonxona bir o'rinni bir vaqtda ikki mijozga berishligi tushuniladi. Albatta, bu bilan mehmonxona ma'lum darajada tavakalchilikka boradi. Lekin ko'p holda ulardan biri joyni qaytarishi va yoki kelmasligi mumkin. Shunda mehmonxona (ayniqsa mavsum davrida) joyni himoyalagan bo'ladi.



Rasm 4.6. Bronlash klassifikatsiyasi

Bronlashda mijoz va mehmonxona orasida turli aloqa yo'llar qo'llaniladi. Bularga zamonaviy kompyuter orqali, o'z o'rnida ular internet orqali yoki mehmonxona WEB sayt orqali bajariladi. Bundan

tashqari, elektron pochta, faks, telefon va teleks orqali ham bajarilishi mumkin.

Bronlash kafolatlanganlik darajasi bo'yicha kafolatlangan (depozitli, ya'ni avansli yoki kredit kartochkali), kafolatlanmagan, otel tomonidan tasdiqlangan bo'lishi mumkin.

Bronlash bronlar soni bo'yicha individual, guruh uchun, komanda yoki jamoa uchun, shu bilan birga tashkilot, idora, vazirlik, firma va h.k. tomonidan berilishi mumkin.

Bronlash yana yozma, og'zaki holda, elektron vositalar orqali (kompyuterli) bo'lishi mumkin.

Bronlash qanday bo'lishligidan qat'iy nazar mijoz tomonidan buyurtma xati berilishi lozim. Yozma ravishda berilgan buyurtma-xat strukturasi 4.7-rasmda berilgan.

Turistik firma «Oriyon» Samarqand, A.Temur ko'chasi, 58 schet №00000001 №-bankida	«Hilton» mehmonxonasi direktoriga
Buyurtma Bizning firma xodimlari O.L.Asqarov va R.S.Qosimova ikkita bir o'rinli nomerni 01.02.2023 dan 05.02.2023 gacha kirish soat 12 ⁰⁰ da bronlashingizni so'raymiz. To'lovni 12.A.01.06.18 y. shartnomaga asosan kafolatlaymiz. Sizdan bronlanganlikni 123-45-67 faks orqali tasdiqlashingizni so'raymiz.	
Hurmat bilan Direktor Bosh buxgalter	Odilxo'jaev A.S. Samova O.A.

4.7-rasm. Bronlash uchun buyurtma xati


Berilgan har bir buyurtma ro'yxatdan o'tishi kerak. Buyurtma firma, tashkilot maxsus blankasida, albatta uning nomi, adresi, telefon va faksi, bankdagi hisob raqami ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Har qanday holatda ham buyurtmada: nomer kategoriyasi va soni, mehmonxonada yashash muddati, keluvchilar ismi-sharifi, to'lov formasi ko'rsatilishi lozim.

Buyurtma olingandan so'ng ro'yxatdan o'tkaziladi va unga ro'yxat nomeri beriladi hamda tasdiqlanganligi yoki yo'qligi 4.8-rasmda ko'rsatilgan shaklda javob xati beriladi.

Albatta, mehmonxonalarda bunday shakllar tayyorlanib qo'yiladi, faqat kerakli ma'lumotlar o'zgartirilib, tezlik bilan jo'natiladi. Telefon orqali buyurtma olishda, nomerlar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan xodim, telefonning maksimal besh qo'ng'iroqdan so'ng olishi tavsiya etiladi.

Kompyuter orqali bronlash hozirgi vaqtda keng tarqalgan usul hisoblanadiki, uning qulayligi, bronlash agar o'zida joy bo'lmasa, boshqa mehmonxonalarga yuborilishi ham mumkin.



4.8-rasm. Bronlanganlik to'g'risida tasdiqlovchi xat shakli.

Shuningdek, hozirgi kunda telegramm orqali ham bronlash mumkin. Bu bronlash har bir mehmonxonaning o'zining telegramm sahifasi orqali amalga oshiriladi.

Agar mehmonxona o'zining Internet-sahifasiga ega bo'lsa yoki Internet-bronlash sistemasining (Akademservis, WEB International, Nota Bene kabi) a'zosi bo'lsa, shu orqali tezlik bilan bronlash mumkin.

Bronlash jarayoni bu sistemalarda quyidagicha bajariladi: mijoz Internet-bronlash WEB – saytiga kirib bronlash qoidasi bilan tanishadi va mehmonxonani tanlaydi. Bo'sh nomerlarning borligini bilib, kerakli ma'lumotlar maydonchasini to'ldirib *e-mail* orqali buyurtmani jo'natadi. Sistema avtomatik ravishda buyurtmani qayta ishlab, boshlang'ich javobni, ya'ni oldindan to'lash sharti bilan tasdiqlovchi ma'lumot beriladi va kutish varag'iga kiritiladi.

Mijozdan so'nggi kartochkani olgandan so'ng (oldindan to'lov yoki kafolat xati) oxirgi bronlanganlik haqida tasdiq beriladi, uning nusxasi mehmonxonaga yuboriladi. Agar mehmonxona o'zining shaxsiy WEB-saytiga ega bo'lsa, unda shu tarzda ishlar to'g'ridan-to'g'ri mehmonxona bronlash bo'limi orqali bajariladi.

Olingan buyurtmalarga asoslanib mehmonxona 4.5-jadvalda ko'rsatilgan shaklida o'zining kunlik rejasini tuzadi.

4.5-jadval

Olingan buyurtmaga asoslanib kunlik reja tuzish

Buyurt ma raqami	Mam- lakat	Ismi- sharifi	Qabul qiluvchi tashkilot	Kelishi	Ketishi	Xona nome ri	Izoh
01/00	RF	Zaxarov V.	Biznes-tur	01.01 14.00	06.01 12.00	541	Nome rga nonus hta
02/00	MDH	Vronova A.	Litsey-tur	01.01 10.00	02.01 12.00	142	
03/00	MDH	Zvanov	Rossel-tur	01.01 12.00	05.01 12.00	322	
04/00	Belgiya	Shuls V.	Biznes-tur	01.01 18.00	10.01 12.00	201	
05/00	AQSh	Braun D.	Litsey-tur	01.01 14.00	06.01 12.00	108	

Bronlashda mehmon soat 18⁰⁰ gacha aytgan kunda kelmasa, mehmon xona ehtiyojidan kelib chiqib, bron bekor qilinishi mumkin. Mehmon kechikkanda ham bronni saqlanishi uchun, bron kafolatlangan bo'lishi lozim. Bunday bronlashda mehmonning kredit kartochkasi nomeri yozib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Kafolatli bronlashning yana bir turi bu depozitli (avansli) to'lovli, ya'ni oldindan avans o'tkazish yoki to'la to'lov bajarilishi bilan bo'ladi. Oldindan to'lov, ayniqsa turistik guruhlariga ham so'raladi.

Mijoz bronlangan joyga kechikib kelsa, bron dan tashqari yana nomerning bir kundan ko'p bo'lmagan muddatdagi to'lovi ham olinadi. Agar bir sutkadan ko'pga kechiksa bron bekor qilinadi.

Bron uchun to'lov miqdori bronlanayotgan o'rinning umumiy bahosini 50 %dan oshmasligi kerak. Turistik guruhlariga chegirma beriladi, uning miqdori guruhdagi mijozlar soniga, yashash muddatiga bog'liq, o'rtacha ta'rifning 25-35 %ini tashkil etadi.

4.3.4. Mehmonxonalarda mehmonlarni ro'yxatga olish va joylashtirish tartibi

Mehmonxona kutib olish va joylashtirish xizmatida mehmonlarni rasmiylashtirish, ro'yxatdan o'tkazish muhim ishlardan hisoblanadi.

Kutib olingan mehmonlarni administrator tomonidan mehmonxonada o'rnatilgan qoidaga rioya etgan holda ro'yxatdan o'tkazadi. Bunda u mehmonlarga mehmonxona anketasini to'ldirish uchun beriladi.

Anketa (4.9-rasm) mehmonlar tomonidan to'ldiriladi. Unda mehmonning pasport ma'lumotlari, kelishdan maqsadi, yashash muddati va yong'in xavfsizlik qoidasi bilan tanishganligi haqida ma'lumot beriladi.

Administrator anketa ma'lumotlarini pasport ma'lumotlari bilan solishtirib tekshiradi, mijoz bilan beriladigan o'rin yoki nomerning kategoriyasini aniqlaydi. Shundan so'ng, anketadagi joylashgan sana va vaqtni, xona nomerini, yashash muddatini qo'yib imzo qo'yadi. Anketa to'liq bajarilgandan keyin mehmonga ikki nusxada: biri operator

kartotekasiga, ikkinchisi porte (klerk) kartotekasi uchun joylashishga ruxsat va schet hamda tashrif (vizit) kartochkasini to‘ldirib beradi.

«Registon» mehmonxonasi

ANKETA

Familiyasi Ochilov

Ismi Sharif

Otasining ismi Odilovich

Tug‘ilgan sanasi 01.06.1980

Pasport №9534697 Seriya AA

Qaerda registratsiyada Namangan sh. Normat ko‘chasi 100 uy

Kelishdan maqsadi Xizmat safari

Yashash muddati 01.03.2023-06.03.2023

Xizmat safari nomeri №987

Tashkilot nomi «Litsey Tur»

Yong‘in xavfsizlik qoidasi bilan tanishdim

Imzo

Xona nomeri 109

Keldi 01.03.2023 14-00

Ketdi

Yashashni davom ettirish

Administrator imzosi

4.9-rasm. Yashovchining registratsiya kartasi (anketasi).

Joylashishga ruxsat (4.10-rasm), schet (4.11-rasm) mehmon kartasi yoki tashrif kartochkasi keltirilgan shakllarda bajarilishi mumkin.

«Registon» mehmonxonasi

Schet **№033417**

Sana **01.03.2023 y.**

Familiyasi **Ochilov Sh.O.**

Xona **№109**

Kirish **01.03.2023** chiqish **06.03.2023**

Yashaganlik haqida to'lov

To'lov turi	Tarif	Sutka soni	To'lovga
Yashash	22000 so'm	5	110000 so'm
Bronlash	10000 so'm	-	10000 so'm
Jami:			120000 so'm

Summa yozuvda: **bir yuz yiqirma ming so'm**

Olindi: **120000 so'm**

Kassir: **Sergeeva S.S.**

4.10-rasm. Yashaganlik uchun schet.

«Registon» mehmonxonasi	
Mehmon kartasi	
Familiyasi	<u>Ochilov</u>
Ismi	<u>Sharof</u>
Otasining ismi	<u>Odilovich</u>
Yashash muddati	<u>01.03.2023 – 06.03.2023</u>
Xona nomeri	<u>№109</u>

4.11-rasm. Tashrif kartasi (mehmon kartasi).

Ko‘p holda turistik guruhlar oldindan joy buyurtma berganliklari uchun administrator oldindan tayyorlov kartasi va nomerlarga joylashtirish (bron kartasini) tayyorlaydi.

Turistik guruhlar uchun tayyorlov kartasi va nomerlarga joylashtirish (bron kartasi), yo‘llanma shakllari va ularning to‘ldirilish misoli 4.12, 4.13, 4.14-rasmlarda keltirilgan.

«Rastur» Turistik firmasi Moskva sh. Cherbanov ko‘chasi 100. schet №00000001 v №__ bankda	«Registon» mehmonxonasiga
Joylashtirish uchun yo‘llanma	
Ajratilgan joylar hisobidan Moskva shahridan 6 kishilik turistik guruhni 02.03.2023 yildan 06.03.2023 yil soat 12 ⁰⁰ gacha joylashtirishingiz so‘raladi.	
Joyni tayyorlash va yashash qiymatini naqd pulsiz hisob-kitob to‘lovi rasshifrovkasiga kiriting.	
Menedjer	Xoliqova O.T.

4.12-rasm. Joylashtirishga yo‘llanma.

Joylashtirishga ruxsatnoma	
Guruh uchun:	<u>2-qavatga</u>
Davlat:	<u>RF. Moskva sh.</u>
Buyurtma:	<u>11/00</u>
Yashash:	<u>02.03.23 dan 06.03.23</u>
Xonalar:	<u>№ 207, 210, 212, 213, 214</u>
Joylashish indeksi:	<u>TP</u>
To'lov turi:	<u>naqdsiz, pul ko'chirish bilan</u>
Bron to'lovi:	<u>50%</u>
Qo'shimcha ma'lumotlar:	_____

4.13-rasm. Joylashishga ruxsatnoma.

Rasmiylashtirilgan barcha shakllar aniq, tushunarli, kompyuterda terilgan yoki to'ldirilgan bo'lishi talab etiladi. Shakllarning har biri o'zining mohiyati bilan zarur va yuridik hujjat hisoblanadi.

Anketa (registratsiya kartasi) xizmat ko'rsatishda bajaruvchi bilan iste'molchi orasidagi shartnoma hisoblansa, tashrif kartasi (mehmon kartasi) mehmonxonaga kirish va nomer kalitini olish huquqiy hujjat hisoblanadi. Tashrif kartasi o'z o'rnida mehmonxona reklama vositasi hamdir.

Turistik guruhlarini qayd etilishida yo'llanma, bron kartasi, joylashishga ruxsatnoma umumiy qilinsa, tashrif kartasi guruh a'zolarining har biriga alohida beriladi. Hisob-kitob naqd pulsiz ko'chirish bilan bo'lganda schet to'ldirilmaydi.

Ko'p hollarda turistik guruh a'zolarining bagajlariga nomerlar beriladi, joylar ham shu nomerlar bilan berilsa, yuk tashuvchilar shunga qarab bagajlarni eltib berishadi. Ketishda qo'shimcha yana bir kunga to'lamaslik uchun bagajlar saqlash kamerasiga topshiriladi va faqat bitta nomer turistlar dam olishiga qoldiriladi.

«Registon» mehmonxonasi

Bron kartasi № 0210

Buyurtma 11/00

Yashash muddati 01.03.2023 - 06.03.2023

Tashkilot Ros-tur

Xona nomeri	Tarif	Familiyasi	Kirish	Chiqish	Bron	Kechikish	Yashash	Jami
100	5000	Voronov	02.01 14-00	06.01 12-00	2500	0,00	25000	27500
106	5000	Sidirov	02.01 14-00	06.01 12-00	2500	0,00	25000	27500
203	5000	Ivanov	02.01 14-00	06.01 12-00	2500	0,00	25000	27500
304	5000	Semenov	02.01 14-00	06.01 12-00	2500	0,00	25000	27500
500	5000	Shaxova	02.01 14-00	06.01 12-00	2500	0,00	25000	27500
512	5000	Pak	02.01 14-00	06.01 12-00	2500	0,00	25000	27500
530	5000	Li	02.01 14-00	06.01 12-00	2500	0,00	25000	27500
Jami:								192500

Yashash: 4 P/S summa 192500 so'm

Nonushta: 50000 so'm

Sug'urta yig'imi: 7200 so'm

Jami: 249700 so'm

Administrator: Vasileva A.A.

Sana: 02.03.2023 yil

4.14-rasm. Bron kartasi.

Ko'pgina administratorlar mehmonlar kartasini (tashrif kartasini) hisobini olib borish maqsadida maxsus temir daftar (kompyuterda fayl) tutishadi. Unda 4.15-rasmda berilgan shaklda ma'lumotlar yozib boriladi.

Sana	Navbatchi administ- rator famiyasi	Katta admin. №dan №gacha olingan	Smena sarflan- gan	№ dan № gacha smenada berilgan	Smena beruvchi va oluvchi imzosi	Kata adminis- trator imzosi	Izoh

4.15-rasm. Mehmonlar tashrif kartasini hisob-kitob jurnali.

Mehmonxonalarga chet eldan kelgan mehmonlarning ro'yxatga olinishida albatta, viza bor-yo'qligi tekshiriladi.

Viza – bu hukumat tomonidan davlat hududiga kirish-chiqish, yashash yoki tranzit o'tish haqidagi berilgan ruxsatnoma hisoblanadi.

Har bir mamlakatda odatda turli nomlarga ega ko'plab toifadagi vizalar mavjud⁴. Vizalarning eng keng tarqalgan turlari va nomlari quyidagilardan iborat:

Maqsad bo'yicha:

Tranzit vizalar - berilgan mamlakat orqali ushbu mamlakatdan tashqaridagi manzilga o'tish uchun qo'llaniladi.

Tranzit vizalarining amal qilish muddati odatda qisqa muddatlar bilan cheklanadi, masalan, mamlakatning kattaligiga yoki ma'lum bir tranzit marshrutining sharoitlariga qarab bir necha soatdan o'n kungacha bo'lishi mumkin. Ular ham o'z navbatida 2 ga bo'linadi:

1. Ba'zi mamlakatlar o'z aeroportlari orqali hatto passport nazoratisiz o'tish uchun havo yo'lining tranzit vizasi.

⁴ <https://platina.uz/2024/03/19/ozbekiston-fuqarolari-qaysi-davlatlarga-vizasiz-borish-mumkin>

2. Samolyotlarda, kemalarda, poezdlarda, yuk mashinalarida, avtobuslarda va boshqa xalqaro transport vositalarida ishlaydigan yoki o'qitiladigan shaxslarga beriladigan ekipaj a'zosi, styuard yoki haydovchi vizasi.

Qisqa muddatli yoki mehmon vizalari:

Taklif qilingan mamlakatga qisqa muddatli tashriflar uchun quyidagi vizalar talab etiladi:

1. **Xususiy viza**, mamlakat aholisining taklifiga binoan shaxsiy tashriflar uchun.

2. **Turistik vizalar**, cheklangan vaqt davomida sayohat qilish uchun, bunda biznes faoliyatiga ruxsat berilmaydi.

3. **Tibbiy viza**, tashrif buyurilgan davlat shifoxonalari yoki boshqa tibbiy muassasalarda diagnostika yoki davolanish kursini o'tkazish uchun.

4. **Biznes vizasi**, mamlakatda tijorat bilan shug'ullanish uchun. Ushbu vizalar odatda doimiy ishga joylashishda istisno qiladi, chunki buning uchun ish vizasi talab qilinadi.

5. **Ishchi dam olish vizasi**, mamlakatlar o'rtasida sayohat qiluvchi shaxslar uchun ishchi ta'til dasturini taklif qiladi, bu yoshlarga sayohat paytida vaqtinchalik ish bilan shug'ullanish imkonini beradi.

6. Musobaqalarda, konsertlarda, shoularda va boshqa tadbirlarda ishtirok etuvchi sportchilar va ijrochilarga (va ularning yordamchi xodimlariga) beriladigan **sport yoki badiiy viza**.

7. **Madaniy almashinuv vizasi** odatda madaniy almashinuv dasturida ishtirok etayotgan sportchilar va ijrochilarga beriladi.

8. **Qochqinlar vizasi** ta'qiblar, urush yoki tabiiy ofat xavfidan qochgan shaxslarga beriladi.

9. **Ziyorat vizasi**: bu turdagi vizalar asosan diniy marosimlarda qatnashish niyatida bo'lganlarga beriladi. Bunday vizalar odatda nisbatan tez va arzon narxlarda olinishi mumkin; Ulardan foydalanadiganlar odatda faqat guruh sifatida sayohat qilishlari mumkin. Bunga eng yaqin misol Saudiya Arabistonining Haj vizasini keltirish mumkin.

Uzoq muddatli vizalar:

Nisbatan uzoq muddatda qolish uchun amal qiladigan vizalar quyidagilardan iborat:

1. Talabalik vizasi (AQShda F-1), bu uning egasiga berilgan mamlakatdagi oliy ta'lim muassasasida o'qish imkonini beradi. F-2 vizasi talabaning qaramog'idagi shaxslarga AQShda ularga hamrohlik qilish imkonini beradi.

2. Tadqiqot vizasi, qabul qiluvchi mamlakatda amaliyot ishlarini olib borayotgan talabalar uchun.

3. Vaqtinchalik ishchi vizasi, qabul qiluvchi mamlakatda oldindan tasdiqlangan ishga joylashish uchun. Ularni olish odatda qiyinroq, lekin biznes vizasiga qaraganda uzoqroq muddatga amal qiladi. Bunga misol qilib *Qo'shma Shtatlarning H-1B va L-1 vizalarini* keltirish mumkin. Muayyan mamlakatga qarab, vaqtinchalik ishchi maqomi doimiy rezident maqomiga yoki fuqarolikka aylanib ketishi mumkin.

4. Jurnalistlik vizasi, ba'zi davlatlar o'z axborot tashkilotlariga chet eldan ushbu kasbdagi odamlarni jalb qiladi. Buni talab qilayotgan davlatlar qatoriga Kuba, Xitoy, Eron, Yaponiya, Shimoliy Koreya, Saudiya Arabistoni, AQSh (I-viza) va Zimbabve kiradi.

5. Yashash vizasi, mezbon mamlakatda uzoq muddatli yashash huquqini olgan shaxslarga beriladi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, Yangi Zelandiyada, uzoq muddatli viza olish davlat fuqaroligi maqomini olish uchun zarur qadamdir.

6. Siyosiy boshpana vizasi, o'z mamlakatida siyosiy faoliyati yoki qarashlari, xususiyatlari yoki ijtimoiy guruh bilan aloqasi tufayli ta'qibdan aziyat chekkan yoki asosli ravishda qo'rqqan odamlarga beriladi.

7. Ba'zi boshqa turdagi uzoq muddatli vizaga ega bo'lgan oila a'zolariga (masalan, vaqtinchalik ishchi vizasiga ega bo'lgan malakali xodimning turmush o'rtog'i va farzandlariga) beriladigan **qarovchilik vizasi**.

Hozirgi kunda O'zbekiston fuqaroligi pasporti bilan viza talab qilinmaydigan davlatlar 4.6-jadvalda keltirilgan.

Shuningdek, yaqinda O‘zbekiston fuqarolari 30 kundan oshmagan muddatda Birlashgan Arab Amirliklari hududida bo‘lishi davrida viza talablaridan ozod etildi. Shunday qilib, BAAni ham viza talab qilinmaydigan davlatlar qatoriga qo‘shsak bo‘ladi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston fuqarolaridan viza olmasdan borishlari mumkin bo‘lgan boshqa davlatlar ham mavjud. Biroq vizalar belgilangan mamlakatga kelganda aeroportda yoki oldindan onlayn tarzda olinishi lozim bo‘ladi. Bu davlatlar: *Boliviya, Yamayka; Nikaragua. Mali; Gambiya; Burundi; Kabo-Verde; Komor orollari; Jibuti; Gvineya-Bisau; Keniya; Madagaskar; Mavrikiy; Mozambik; Togo; Uganda; Zambiya; Palau. Iordaniya, Kambodja, Laos, Livan, Makao, Maldiv, Nepal, Shri-Lanka, Suriya, Tailand, Timor-Leshte.*

Demak, bunday ruxsatnoma, mehmonning pasportiga yoki alohida hujjat sifatida davlat chegarasi tomonidan beriladi.

Mehmonxonlaar chet el fuqarolarini registratsiya qilish uchun xalqaro turistik faoliyat olib borish litsenziyasiga ega bo‘lishlari kerak.

4.6-jadval

**O‘zbekiston fuqaroligi pasporti bilan viza talab
qilinmaydigan davlatlar**

Davlat nomi	Vizasiz yashash muddati	Davlat nomi	Vizasiz yashash muddati,
1	2	3	4
<i>Shimoliy va Lotin Amerikasi:</i>		<i>Okeaniya:</i>	
Dominika	21 kun	Kuk orollari	1 oy
Barbados	28 kun	Mikroneziya Federativ Shtatlari	1 oy
Antigua va Barbuda	1 oy	Niue	1 oy
Sent-Vinsent va Grenadina	1 oy	Tuvalu	1 oy

1	2	3	4
Ekvador	3 oy	Samoa	60 kun
Gaiti	3 oy	Osiyo:	
Afrika:		Qozog‘iston; Malayziya	30 kun
Seyshel orollari	1 oy	Turkiya	30 kun
Namibiya	2 oy	Qirg‘iziston	60 kun
Yevropa:		Ozarbayjon	90 kun
Rossiya; Belarus; Armaniston; Gruziya; Kosova	90 kun		
Moldova	90 kun		
Ukraina	90 kun		

Ularni qayd qilishda administrator bularga alohida e’tibor berishi lozim, mehmonlar vizasiga mehmon qayd qilingan nomeri, mehmonxona nomi, sanasi qo‘yilishi talab etiladi. Ayrim mehmonxonalarda mehmonlar anketa to‘ldirmaydi, chegaradan keyingi birinchi punkt bo‘lsa 20 % davlat boji olinadi. Diplomatik vizalar bilan bo‘lsa boj olinmaydi. Mehmonxona pasport – viza xizmatiga kunlik hisobot berib borishi talab etiladi.

Tayanch iboralar: mehmonxona xo‘jaligi, xotel, karvon saroy, jahon turizmi faoliyati, “Ipak Yo‘li”, renessans, jamoaviy joylashish vositalari, “Lyuks”, otel, taymsheer, motel, flotel, tasniflash, kemping, botel, flotel, yulduzlar sistemasi, harflar sistemasi, O‘zDst 3296:2023 standarti, xalqaro mehmonxonalar zanjiri, vestibyul, oqimlar, mehmonxonaning yashash qismi, yordamchi xonalar, maxsus kiyimlar, qabul qilish, texnologik operatsion jarayonlar, bronlash, mehmonlarni joylashtirish, viza.

Nazorat savollari:

1. Mehmonxona xo‘jaligi xonalarini nimalar tashkil etadi?

2. Mehmonxonaning jamoaviy qismi deganda nimani tushunasiz?
3. Vestiblyu guruh xonalariga qaysilar kiradi?
4. Mehmonxonaning jamoaviy qismiga qanday talablar qo'yiladi?
5. Vestibyul boshqa xonalar bilan qanday bog'liqlikda bo'ladi?
6. Vestibyul intereri qanday holatda bo'lishi kerak?
7. Dam olish, maishiy xizmat ko'rsatish xonalari mehmonxonaning nimasiga bog'liq bo'ladi?
8. Mehmonxona qanday oqimlardan tashkil topgan?
9. Mehmonxonaning asosiy qismini nimalar tashkil etadi?
10. Standart nomerlar qanday talabga javob berishi kerak?
11. Yashash qismining yordamchi xonalari nimalardan tashkil topgan?
12. Yashash qismining yordamchi xonalari qanday xizmat ko'rsatish shakliga bog'liq bo'ladi?
13. Mehmonxonalarning yashash va yordamchi xonalariga qanday talablar qo'yiladi?
14. Mehmonxona personalining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
15. Mehmonlarning mehmonxonada bo'lish muddati nechta turga bo'linadi?
16. Mehmonxonalarda ranglarning turlicha bo'lishining ahamiyati nimadan iborat?
17. Mehmonxonalarda yoritish sistemalarining mohiyati nimadan iborat?
18. Mehmonxonalardagi belyolar va maxsus kiyimlarga nimalar kiradi?
19. Mehmonxonalarni qabul qilish, joylashtirish ishlarida qanday lavozimlar belgilangan?
20. O'zbekiston mehmonxonasida xalqaro zanjirga qarab lavozimlar qanday tayinlanadi?
21. Mehmonxonada administrativ ishlarni bajarishda lavozimlar qanday guruhga bo'linadi?
22. Qabul qilish va joylashtirishda xizmat xodimlari lavozim va majburiyatlari nimalardan iborat?

23. Xizmat ko'rsatish operatsion jarayonda qanday ishlar amalga oshiriladi?

24. Bronlash deganda nima tushuniladi?

25. Bronlash klassifikatsiyasi nimalardan iborat?

26. Buyurtma xati, bronlanganik hujjati, kunlik reja tuzish hujjatlari qanday amalga oshiriladi?

27. Mehmonxonada qayd etish kartasi, joylashga yo'llanma, ruxsatnoma va bron kartasi hujjatlari qanday rasmiylashtirib boriladi?

28. Viza nima va uning vazifasi nimalardan iborat?

29. Vizaning qanday turlari mavjud?

30. O'zbekistonda qaysi davlatlarga viza talab etilmaydi?

V BOB. RESTORANDA ISHLAB CHIQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI

5.1. Restoranlarning tasniflanishi

Restoranlar oziq-ovqat sanoatining ajralmas qismi bo‘lib, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Mijozlar so‘rovlarining kengayishi tufayli restoranlar bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Restoran – bu odamlar nafaqat ovqatdan, balki atrofdagi muhitdan, xizmat ko‘rsatish va mukammal xizmatdan ham alohida zavq oladigan joy. Har qanday restoranning muvaffaqiyati to‘g‘ri strategiyani tanlash, uni boshqarish va nazoratga bog‘liq.

“Restoran biznesi falsafasi” degan tushuncha bor. Restoran biznesining falsafasi – bu kompaniyaning mohiyatini aks ettiradigan va benuqson imidj yaratishga qaratilgan vazifalarni bajaradigan g‘oyalarning rasmiy taqdimoti.

Hozirgi kunda turli darajadagi mijozlarga yo‘naltirilgan juda ko‘p sonli restoranlar mavjud. Restoranlarni hisob-kitob miqdori (demokratik, tejamkor, hashamatli), GOST (birinchi toifadagi restoran, ikkinchi toifadagi restoran, ovqat xonasi, bar, kafe), oshxona va boshqalar bo‘yicha tasniflash mumkin.

Boshqaruv texnikasi va qo‘llaniladigan texnologiyaga ko‘ra restoranlarni quyidagi toifalarga bo‘lish mumkin:

Gastronomik restoran – bu murakkab retsepti bilan turli xil taomlarni taklif qiladigan restoran. Mijozlar tomonidan to‘lov hisob yopilgandan so‘ng amalga oshiriladi. Barcha mijozlarga stollarda xizmat ko‘rsatiladi. Menyudagi taomlar yilning vaqtiga va oshxonada mahsulotlarning mavjudligiga qarab farqlanadi. Alkogolli ichimliklarning keng assortimenti, xususan, sharob taklif etiladi.

Tasodifiy (har kungi) restoran – gastronomik restorandan taomlar assortimenti va narxlari bilan ajralib turadi va taomlarni oldindan hamda yarim tayyor mahsulotlar asosida tayyorlash mumkin.

Bar (pab yoki taverna) – bu restoranning o‘ziga xos turi bo‘lib, mijoz hisobni to‘g‘ridan-to‘g‘ri barning o‘zida amalga oshiradi.

Xodimlarning roli zaldagi stollarni tozalashdir. Bunday korxonalarda turli sport tadbirlari, shuningdek, videokliplar, musiqalar efirga uzatilishi mumkin.

Oshxona odatda kichik, shuning uchun taomlarni tanlash cheklangan va tayyorlash oson.

Tezkor xizmat (quick service) - ushbu turdagi korxona yuqorida aytilganlarning barchasidan ofitsiantlarning yoʻqligi va oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatishning mavjudligi bilan ajralib turadi. Pishirish tezligiga muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlardan foydalanish va taomlarni oldindan tayyorlash orqali erishiladi. Ushbu turdagi oziq-ovqat, ayniqsa, piseriyalarda (pissa markazlari) keng tarqalgan.

Fast tamaddi (Fast food) – zanjirli korxona hisoblanadi. Bu yanada qattiqroq standartga ega tezkor xizmatning bir turi. Oziq-ovqat assortimenti juda tor. Hozirda “McDonald’s” ushbu tarmoqning taniqli vakili hisoblanadi.

Koʻcha taomlari yoki kechki ovqat (Street food). Xaridor peshtaxtada ovqatlanadi. Minimal assortiment, tez, arzon, lekin har doim ham juda mazali emas.

Oshxona – ovqatlanish uchun eng mashhur va arzon joy. Mahsulotlarning mavjudligiga qarab, menyu va retsept har kuni oʻzgarishi mumkin. Ushbu turdagi korxonaga oilaviy restoranlar yoki bir oila aʼzolari ishlaydigan oilaviy restoranlar ham kirishi mumkin.

Keytering – ziyofatlar oʻtkazish (yoki joyida xizmat koʻrsatish). Ovqatlar asosan kilogrammda hisoblanadi. Qoida tariqasida, hamma narsa oldindan toʻlanadi, shuning uchun toʻlov bilan bogʻliq muammolar yoʻq, sotilmagan mahsulotlar yoʻq.

Restoran bozorining oʻzi uning xizmatlaridan foydalanishga odatlangan odamlardan iborat. Restoran ochish uchun uning kelajakdagi egasi bozorni tahlil qilishi va ushbu bozor hududida maʼlum bir mahsulotga talab darajasini aniqlashi kerak. Restoranning hayotiyligini aniqlashning bir usuli – egasini qiziqtirgan hududdagi restoranlarning taxminiy sonini va unda mijoz odamlar soniga boʻlish orqali amalga oshiriladi. Masalan, AQShda har bir restoranda 500 kishi, Avstraliyada esa 160 kishi bor. Restoran biznesida turizm

industriyasining moddiy-texnik bazasining muhim qismi to'plangan. Restoranning muvaffaqiyatli ishlashi quyidagi omillarga bog'liq:

- 1) restoran joylashgan joyi;
- 2) qurilish sifati;
- 3) uskunalar va jihozlar darajasi;
- 4) keng qamrovli xizmat darajasi;
- 5) sayyohlarga o'z vaqtida va to'g'ri xizmat ko'rsatish;
- 6) dizayn xususiyatlari va joylashgan joyiga mosligi.

Keling, ushbu omillarning ba'zilarini batafsil ko'rib chiqamiz va restoran joylashgan joyni tanlashdan boshlaymiz.

Tanlangan restoran biznes-rejasi muvaffaqiyatli bo'lishi uchun uni potensial tashrif buyuruvchilarni hisobga olgan holda amalga oshirish kerak. Bu yerda siz quyidagi mezonlarni tanlashingiz mumkin:

- 1) ijtimoiy-iqtisodiy;
- 2) demografik;
- 3) bozorning mavsumiyligi;
- 4) geografik;
- 5) turizmni rivojlantirish;
- 6) moda.

Disko restorani yorqin va g‘ayrioddiy yechimlar bilan jamoatchilikni jalb qilish imkonini beruvchi yoritish uskunalari bilan jihozlangan keng baland xona bilan ajralib turadi. Mijozlarni xursand qilish uchun **DJ (didjey)** taklif qilinadi, bu esa o‘z navbatida restoranga berend yaratishga imkoniyat beradi. Professional didjey (DJ) birinchi navbatda artistdir. Diskotekaga kelgan odamlar nafaqat raqsga tushishadi va musiqa tinglashadi, balki DJning iste’dodi va malakasiga to‘liq bog‘liq bo‘lgan spektaklni tomosha qilishadi. Amerikalik jurnalist va teleboshlovchi Uolter Vinchell bu atamani yulduzga aylangan birinchi ***DJ bo‘lgan radio boshlovchisi Martin Blokka*** nisbatan ishlatgan.

DJ odamlar bilan musiqa, yorug‘lik, imo-ishoralar, plastik va so‘zlar orqali muloqot qilishi kerak. Afsuski, so‘nggi davrda harakat raqqosalardan yopiq va o‘ralgan xonadan olib boriladigan joylar mavjud. Bunday restoranlarni yetarlicha ishonch bilan diskotekalar deb atash dargumon. Aksincha, ular zamonaviy nomga ega bo‘lgan raqs maydonchalari. Haqiqiy, juda mashhur diskotekalar har doim iste’dodli DJlarning ismlari, ularning g‘oyalari va yorug‘lik va musiqiy shou haqidagi ijodiy qarashlari bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda ham DJlar mavjud. Ularga ***DJ Trace, Roger Gunn, DJ Sam, DJ Niki va DJ Voyvov***larni keltirish mumkin.

DJ Trace (Oybek Jabborov)⁷. U House va Progressive house yo‘nalishlarida treklar yaratadi. 2019 yil may oyida britaniyalik musiqachi Tom Star bilan birgalikda trek yozgan. Trekning o‘ziga xos xususiyati – o‘zbek tanburi va elektron musiqa sadolari hisoblanadi. Uning musiqasi “Tomorrowland”, “Medusa”, “ADE”, “Battered Bruised & Bloody Tour” festivallarida yangragan.

⁷ <https://bugun.uz/2021/05/17/toshkentda-mashhur-djlar-ishtirokida-yoshlar-uchun-kecha-tashkil-etiladi/>

Roger Gunn (Sarvar Po‘latov) — musiqachi, didjey va musiqiy prodyuser. U House, Tech-House, Future va Progressive House yo‘nalishlarida treklar yozadi.

S.Po‘latov mashhur “Milliy TV” ko‘ngilochar telekanalining musiqiy prodyuseri hisoblanadi.

Roger Gunnning mualliflik treklari va remikslari “Revealed” va “EnormousTunes” xalqaro leybllarida chiqarilgan. Ular Benny Benassi, Don Diablo, Afrojack, Blasterjazz, Hardwell, Mr. White, Thomas Gold va shu kabi dunyodagi eng mashhur didjeylar tomonidan ijro etiladi.

So‘nggi paytlarda u yanada mashhurlikka erisha boshladi. Uning Chimyon tog‘lari fonida, poytaxtdagi teleminorada va Buxorodagi Minorai Kalonda olingan kliplari juda mashhur. Shu tariqa, musiqa yordamida u O‘zbekistonning sayyohlik joylariga e‘tiborni jalb qiladi.

DJ Sam (Safarjon Mirzaev) — mamlakatdagi eng yaxshi didjeylardan biri. Club house, Electro House, Progressive House, RnB va Trap uslubida ijro etadi.

2013 yilda u “Lounge Bar Gorod”dagi “DJ`s Battle Tashkent”da sovrindor bo‘lgan va 2016 yilda poytaxtning eng yaxshi 10 DJ‘lari orasida 1-o‘rinni egallagan. Toshkentda “Black Star inc.” leybli a‘zolari, MC Doni, DJ Philchansky, L’One , Natan va Skrudji bilan hamkorlik qilgan.

Shuningdek, **Konsert o‘tkazuvchi maydonli restoranlar mavjud.** Bu turli xil janrlarning navbatma-navbat ijro etuvchi artistlarning chiqishlari orqali olib boriladi. Bunda artistlar, dekoratsiyalar, fonogrammalar, yoritish uskunalari va turli xil maxsus yordamchi xonalarni tezda o‘zgartirishni talab qiladi.

Konsert o‘tkaziladigan restoranda ovozli va yorug‘lik operatori uchun joy ajratish kerak bo‘ladi. Va agar raqs restoranida ovoz va yorug‘likni boshqarish ba‘zan raqs zalidan tashqarida joylashgan bir kishi tomonidan birlashtirilsa, u holda konsert o‘tkaziladigan joy yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi, ular u yerda nima bo‘layotganini doimiy ravishda kuzatib borishlari kerak.

Ovoz muhandisi va yorug‘lik operatori uchun ideal joy zalning o‘rtasida – operatorning sodir bo‘layotgan voqealarni idrok etishi

ko'pchilik tomoshabinlarning idrokiga imkon qadar yaqin bo'lgan joy hisoblanadi. Restoran egasi shuni tushunishi kerakki, hatto juda tajribali mutaxassislar ham zal va saytga moslashish uchun biroz, ba'zan esa ancha vaqt kerak bo'ladi. Bu vaqt ichida, albatta, nomuvofiqliklar bo'ladi: chastota muammolari, yetarli yoki ortiqcha ovoz darajasi.

Restoranning keyingi turi **universal restoran turi**. Diskotekaga moslashtirilgan restoranda "jonli" musiqachilarning chiqishlarini o'tkazish yoki murakkab rang-barang konsert dasturini tashkil qilib bo'lmaydi. Odatda, diskotekalar jonli musiqa yangraydigan restoranda o'tkazilmaydi. Ammo, hozirda bu muammoni hal qilish mumkin. Tabiiyki, bunday loyihalar juda jiddiy investitsiyalarni talab qiladi. O'z mijozlariga sahna va raqs maydonlarini tanlash huquqini beradigan restoranlar katta foyda keltiradi. Bunday muassasada o'tkazgan har bir kecha avvalgisidan mutlaqo farq qiladi. Mehmonlar restoranga nafaqat ovqatlanish uchun, balki keyingi harakatlarga – diskoteka, "jonli" ijro yoki konsert dasturini ko'rish uchun ham tashrif buyurishadi.

6.2. Shou dasturlarini tashkil etish

"Marketing", "reklama", "kreativ" - bu atamalar har qanday biznesda, shu jumladan restoranlarda ham asosiy rolni o'ynaydi. Eng so'nggi biznesni tuzish sxemalari va rejalari uning ko'lami yoki turiga bog'liq emas. Restoran biznesida bu tushunchalar ancha vaqtdan beri qo'llanilib kelinmoqda. Buning sababi shundaki, bugungi kunda mahalliy restoran biznesidagi ko'plab marketing va reklama texnologiyalari Yevropa modeliga to'liq moslashtirilgan. Ushbu texnologiyalar orqali turli shou dasturlarni o'tkazishdir. *Shou dasturi*, restoran egalarining nuqtai nazarida, reklama texnologiyasi va aqlli marketing rejasidir.

Shou dasturi har qanday bayramning asosiy komponenti bo'lib, uning go'zalligini va tantanaliligini oshiradi. Ko'ngilochar dasturni tashkil qilgan kishi o'zini va boshqalarni ijrochi artistlarning unutilmas tajribasini taqdim etadi.

Shou dasturi rasmiy qismdan iborat bo'lib, keyinchalik ko'ngilochar dasturga aylanadi. Turli janrdagi artistlar, musiqachilar, estrada, raqs guruhlari, fokuschilar ishtirok etishi mumkin bo'lgan shou-dastur senariy bo'yicha olib boriladi.

Har qanday shou dasturining formati har xil va nostandart bo'lishi mumkin. Hammasi quyidagi omillarga bog'liq:

- 1) muassasa maydoni;
- 2) dasturga ajratilgan mablag'lar;
- 3) artistlarning mahorat darajasi;
- 4) ijodiy jamoaning harakatlarini kuzatadigan va muvofiqlashtiradigan badiiy direktorning tasavvuri va kreativligi.

Shou dasturini tanlashda joyning kattaligi asosiy element hisoblanadi. Bu nafaqat korxonadagi o'rindiqlar soni, uning maydoni va joylashuvi, balki uning auditoriyasi, ya'ni bar, restoran yoki kafe bo'ladimi, ushbu korxonalarga tashrif buyuradigan odamlar haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi muhim ahaiyatga ega.

Turli korxonalardagi ko'ngilochar shoular mijozlarni o'ziga jalb qiladi va shu bilan korxonaning mashhurligi va daromadini oshiradi.

Bugungi kunda ovqatlanish korxonalaridagi ko'ngilochar dasturlar juda keng tarqalgan, chunki ushbu mahsulotning ko'plab iste'molchilari mavjud. Agar maqsadli auditoriya haqida gapiradigan bo'lsak, asosiy massa rivojlanayotgan o'rta sinf va VIP sektor deb ataladi. Media-guruh vakillarini alohida sektorda ajratib ko'rsatish mumkin, chunki bugungi kunda turli xil taqdimotlar, seminarlar, konferensiyalar o'tkazish ko'pincha shou dasturlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'ngilochar joylarda o'yin formatiga "bog'langan".

Shou dasturini yaratish bo'yicha marketing strategiyasi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

- 1) ommaviy axborot vositalarida ommaviy reklama;
- 2) tadbirlarda ishtirok etish va tashkil etish;
- 3) homiylik;
- 4) PR qo'llab-quvvatlash va hokazolar.

Har kuni raqobatdosh ovqatlanish korxonalari mijozlarni jalb qilish uchun yangi, g'ayrioddiy g'oyalarni taklif qilishadi va

iste'molchilar, o'z navbatida, ko'proq va ularning imtiyozlarni ko'proq qayd qilib bormoqda. Har bir restoran bunday tadbirlarni o'tkazishda ko'pchilik mijozlarning e'tiborini jalb qiladigan strategiyani ishlab chiqishi kerak.

Zamonaviy jamiyatni ikkita asosiy pozitsiyada – ommaviy ishlab chiqarish va ommaviy iste'molda ko'rish mumkin. Mahsulotlar o'z mijozlarini topishi uchun ishlab chiqaruvchilar ommaviy reklamadan foydalanadilar. Ammo, bu turdagi ma'lumotlar keng tarqalishi tufayli iste'molchi tomonidan unchalik qabul qilinmaydi.

Aksariyat korxonalar ommaviy reklamadan foydalanib, o'z mijozlarini yo'qotib qo'yish xavfini tug'diradi, chunki katta axborot oqimidagi potensial mijoz matbuot, radio va televideniya eshitiladigan reklama xabarlariga aylanadigan bunday xabarlarni eshitmasligi mumkin.

Reklama xabarlarining axborot oqimining katta hajmiga yetgan yuqori raqobatbardosh iste'molchilar jamiyatida mahsulotni samarali va arzon reklama qilish uchun yangi marketing strategiyasi zarur. Ushbu strategiyada asosiy element mijozlarga yo'naltirilganlikdir.

Ushbu konsepsiya mijozni cheksiz reklama bilan bezovta qilmaslik, uni sotuvchi uchun foydali bo'lgan ma'lum bir mahsulot yoki xizmatni iste'mol qilishga majburlashga urinish vazifasiga asoslangan. Mijozga xayoliy erkinlik hissi berilishi kerak, bu sotuvchi o'z ehtiyojlarini moslashtiradi va kutadi, o'z usullari va iste'mol hajmlarini yuklamaydi degan taassurot qoldiradi.

Reklama va mahsulotni ilgari surishning boshqa usullari bayram tadbiri – event marketing marketingiga aylantiriladi. Ingliz tilida “yevent” so'zi “voqea” degan ma'noni anglatadi. G'oya iste'molchiga tovarlar va xizmatlarni sovg'a sifatida ko'pincha iste'molchining o'zi ishtirok etadigan yorqin va unutilmas harakatlar shaklida taqdim etishdir. Demak, ma'lum usullar ish bermay qolganda, maqsadli auditoriya bilan ishlashning yangi usulini topish uchun ixtiro qilingan “sovg'alar marketingi” tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Sovg'alar marketingi reklamani bepul sovg'aga aylantirish usuli. O'zlarining kommunikatsiyalari orasida voqealar orqali reklama

xabarlarini yetkazib berish usulidan foydalanadigan ko'proq kompaniyalar **event-marketingni** – kompaniya xodimlari va iste'molchilar o'rtasidagi bevosita muloqotning eng samarali vositasidir deb bilishadilar.

Ammo, har qanday biznesda bo'lgani kabi, ba'zilarining **nuanslar** (noziklik, biror narsaning ma'nosini chuqurlashtiradigan yoki o'zgartiradigan kichik tafsilot yoki xususiyati) mavjud. Savdo markazi doirasida faqat aksiyani tashkil qilish va eeffektni kutish yetarli emas. Voqealar marketingi o'zining qat'iy va juda aniq maqsad va vazifalarini ko'zlaydigan reklama xabarini yetkazish usuli ekanligini unutmaslik kerak. Axir, hatto xayriya ishlaridan ham imijni mustahkamlash va sodiqlikni oshirish shaklida juda aniq dividendlarni olish mumkin.

Shunga ko'ra, shou dasturlarini tashkil etishning yana bir jihati event marketingdir. **Event-marketingida** quyidagi tadbir turlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

1. Trade events – hamkorlar, mijozlar, dilerlar va distribyutorlar uchun tadbirlar. Bu zavq va ko'ngilochar komponentni istisno qilmaydigan biznes tadbirlari. Ushbu guruhga konferensiyalar, taqdimotlar, ziyofatlar, seminarlar, forumlar, kongresslar, sammitlar, PR kompaniyalari, savdo yarmarkalaridagi maxsus tadbirlar va boshqalar kiradi. Bunday tadbirlarni tashkil etishdan maqsad – uning afzalliklarini aniq ko'rsatib, mahsulotni taqdim etishdir. Shuningdek, ushbu toifadagi tadbirlar ko'pincha yangi xizmatlarni taqdim etish, tajriba almashish, yangi strategik sheriklar topish va hokazolar maqsadida tashkil etiladi.

2. Corporate events (HR tadbirlari) – korporativ tadbirlar (xodimlarning birgalikdagi dam olishlari, kompaniyaning yubileylari, kasb bayramlari).

Korporativ tadbirlar kompaniya g'oyalarini bevosita xodimlarga yetkazish uchun noyob imkoniyat yaratadi. Ular, shuningdek, samarali tashqi marketing vositasi bo'lib xizmat qilishi mumkin, chunki siz har doim doimiy mijozlar va sheriklarni korporativ tadbirlarga taklif qilishingiz mumkin. Ushbu taklifnoma bilan siz taklif qilinganlarning

sodiqqligini ta'minlashingiz va ularni muhimligini his qilishingiz mumkin.

Korporativ tadbirlar guruhiga kompaniyaning yubileylari, xodimlarning tug'ilgan kunlari, partiyalar, bayramlar, pikniklar kabi tadbirlar kiradi. Har qanday kompaniyaning puxta o'ylangan korporativ madaniyati xodimlarning uyushgan jamoaviy bo'sh vaqtini nazarda tutadi. Voqealar marketingining ushbu sektori ko'plab kompaniyalar tomonidan qo'llaniladi, ular uchun o'z xodimlariga g'amxo'rlik qilish tashkilotning obro'si hisoblanadi.

Professional tarzda o'tkaziladigan har qanday korporativ tadbir menejment obro'sini oshirish va korporativ g'ururni yaratishga qaratilgan. Axir, do'stona, hamjihat jamoa muvaffaqiyatli biznesning kaliti ekanligi ma'lum.

Shuni esda tutish kerakki, har qanday tadbirni tayyorlashda siz joy tanlash, shou dasturini tashkil qilish, korporativ uslub, mehmonlarning xohish-istaklari va boshqalar kabi ko'plab omillarni hisobga olishingiz kerak. Shuningdek, mijozga tadbirning ma'nosi va uni o'tkazish maqsadini yetkazish muhimdir.

Tadbir haqiqiy voqeaga aylanishi va mehmonlar tomonidan esda qolishi uchun siz ularni har safar g'ayrioddiy ssenariylarni ixtiro qilib, hayratda qoldirishingiz kerak.

3. Special events – maxsus tadbirlar. Ushbu tadbirlar guruhiga barcha turdagi festivallar, konsertlar, shoular, ommaviy tadbirlar ("yeklama sayohatlari" yo'l-shou) kirishi mumkin. Bu kompaniya yoki brend imidjiga foydali ta'sir ko'rsatadigan voqealar va voqealar to'plamidir.

PR-kompaniyalarning professional seriyasidan keyin maqsadli auditoriyaning keng ijobiy munosabati kuzatiladi, bu kompaniyaga sodiqlikning oshishi va potensial mijozlarning qiziqishi ortishi bilan ifodalanadi. Ushbu guruh shuningdek, firmaning maqsad va vazifalariga javob beradigan va kompaniyaning ijtimoiy imidjini targ'ib qilishni samarali ta'minlaydigan homiylik va xayriya dasturlarini o'z ichiga oladi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, tadbir (yoki sovg'a) marketingi iste'mol bozorining turli segmentlariga ta'sir o'tkazish imkonini beruvchi vositadir. Marketingning bu turi katta investitsiyalarni talab qilmaydi. Bundan tashqari, bu qisqa muddatli ta'sir bilan cheklanmaydi va undan qaytish ancha uzoqroq bo'ladi.

Voqealar marketingining tobora ommalashib borishi tufayli professional tadbir menejerlariga talab juda yuqori. Tadbir menejerlari nafaqat ijodiy va ijodiy shaxslar bo'lishlari, balki voqealar marketingining barcha jihatlarini yaxshi bilishlari, barcha reklama vositalarining ishchi modellarini, shuningdek psixologiya asoslarini bilishlari kerak.

Afsuski, ushbu sohadagi hozirgi mutaxassislarning aksariyati marketingning asosiy asoslarini bilmaydigan shou-biznesdan keladi. Shuning uchun ko'p tadbirlar foyda bermaydi.

Ayni paytda bozorda malakali xodimlarga ega bo'lgan va bayramlar va shou dasturlarini tashkil qilish uchun yaratilgan tadbir agentliklari yetarli.

6.3. Dasturlarni texnik qo'llab-quvvatlash

Dasturning texnik jihozlanishi shou dasturini tashkil etishda juda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Bunga yoritish, ovoz, sahna va diskoteka dizayni, lazer nurli proektorlardan foydalanish va video proeksiyaning maxsus effektlari, professional ovoz chiqarish uskunalari, DJning masofadan boshqarish pulti, karnay va monitorlar, mikrofonlar, maxsus effektlar (pirotexnika, tutun generatori, shampun pufagi generatori, lazerli namoyishi), konfeti va boshqalar.

Tadbirni tashkil qilishda maydonni yoritish uchun yoritish moslamalarini to'g'ri joylashtirish kerak. Noto'g'ri o'rnatilgan yorug'lik dasturning butun taassurotini buzishi mumkin. Yoritish moslamalaridan malakali foydalanish, aksincha, ajoyibotlar yaratishi mumkin: yorug'lik maxsus muhit yaratadi, tadbir g'oyasini oshirishi, dasturning muhim elementlarini ko'rsatishi va mehmonlarning kayfiyatini ko'tarishga yordam beradi.

Bayramni shunchaki fon musiqasi yoki professional musiqiy akkompaniment bo'ladimi, ovozli dizaynsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ovoz uskunasi tanlashda siz **uchta asosiy holatlarga e'tibor berishingiz kerak:**

1) maydonni texnik mutaxassis bilan oldindan tekshiring. Ovoz uskunasi tanlashda ovoz mutaxassisi tanlangan joyning barcha xususiyatlarini hisobga oladi va amalga oshirilayotgan dastur asosida uskunaning eng yaxshi joylashishini aniqlaydi;

2) mehmonlar sonini hisobga oling. Xuddi shu joyda Siz banket yoki furshet tashkil qilishingiz mumkin. **Furshetda** bu joy ikki baravar ko'p mehmonlarni qabul qilishi mumkin, shuning uchun ular muloqot qilishadi va ikki baravar baland ovozda olqishlashadi. Agar siz **"banket"** mehmonlari uchun mo'ljallangan audio uskunadan foydalansangiz, taklif etilgan mehmonlar uy egasi nima deyayotganini va musiqa guruhi nima haqida kuylayotganini aniqlay olmaydilar. Shuning uchun, bu holda, yuqori quvvatli uskunalaridan foydalanish kerak;

3) "jonli" musiqani ijro etadigan musiqiy guruhlarining ishtirokini hisobga oling. Har bir musiqachining ijrosi individual texnik jihozlar bilan ta'minlanishi kerak va shuning uchun kerakli jihozlar ko'payadi.

Tadbirda maxsus effektlardan foydalanish dasturning kulminatsion lahzalarini ko'rsatishi, mehmonlar e'tiborini nima bo'layotganiga qaratishi va muhim daqiqada hissiy darajani oshirish uchun mo'ljallanganligini unutmaslik kerak. Maxsus effektlar, masalan, **feyerverklar** (pirotexnika vositalari) har qanday bayram tadbirining ajoyib bezakiga aylanadi.

Dekorativ chiroqlar va pirotexnika moslamalari shahar muhitiga juda mos kelishi kerak. Tanlangan restoran hovlisida feyerverklarni tashkil qilish mumkin. Yerdagi feyerverklar displeyi juda chiroyli va ixchamdir. Yuqori balandlikdagi feyerverklardan farqli o'laroq, yerga asoslangan feyerverklar bunday qattiq xavfsizlik talablariga ega emas, shuning uchun ularni deyarli hamma joyda tashkil qilish mumkin. Pirotexnika ko'rgazmasida turli xil mumkin bo'lgan elementlar

mavjud. Feyerverklar yonayotgan favvoralar, aylanuvchi stollar, olov sharsharalari va boshqalar shaklida bo'lishi mumkin.

Agar siz konfetidan foydalansangiz, juda yaxshi bayram tashkil etiladi. Ko'p rangli va metall qog'oz zarralari bilan havoqurollarini otish ajoyib jozibadorlik berishi mumkin.

Sharlar nafaqat bolalar bayramida uchiriladi, balki yoshi katta tomoshabinlar ham osmonga ko'tarilgan yuzlab sharlarni ko'rishdan xursand bo'lishadi.

Quyoshli kunda rangli sharlar kunduzi yorqinligini yo'qotadigan otashinlardan farqli o'laroq kayfiyatni ko'taradi. Bayram o'tkaziladigan joydan uzoqda joylashgan sharlarning uchirilishi mehmonlar uchun yoqimli syurpriz bo'ladi. Agar mehmonlarga osmonga chiqish uchun sharlar berilsa, har kim bayramda ishtirok etishini his qilishi mumkin.

Bayram tadbirining texnik dizaynidan tashqari, siz rangli tutundan foydalanganda sir va o'yin-kulgini qo'shadigan tutun generatorlaridan foydalanishingiz mumkin.

Restoranning ichki dizayniga jiddiylik bilan yondashish kerak, shunda tashrif buyuruvchilar xotirasida faqat yoqimli taassurotlar qoladi.

Mijozlar restoranga tashrif buyurganlarida, mazali taomlar va alkogolli ichimliklardan tashqari, ular atrofdagi ichki dizayn, fasad, yorug'lik va ovoz ta'sirini his qilishlari kerak, ular bir-biri bilan uyg'un tarzda birlashtirilishi kerak.

Fasadni yoritish. Mijozlar fasaddan o'tmasdan restoranga yoki boshqa joyga kira olmaydi. Tashqi ko'rinishiga foydalanuvchi e'tiborini jalb qilish uchun fasad binolari ma'lum xususiyatlarga ega bo'lishi kerak. Bu yorqin ranglar, mehmonxona me'moriy xususiyatlarini yoritish va boshqalar bo'lishi mumkin. Dizaynerlar va yoritish texniklarining tasavvurlari va badiiy ijodining chegarasi yo'q. Shu boisdan ham restoranning fasad qismiga alohida jiddiy e'tibor berishlari kerak.

Interer. Hozirgi vaqtda ichki dizayn sohasida ko'plab mahalliy restoranlarning uslubi ijobiy sharhlarga sabab bo'lmoqda. Restoran,

bar yoki kafening kelajakdagi ichki qismi qanday bo'lishini dizayner korxonaning tematik, milliy va tarixiy yo'nalishiga qarab belgilaydi. Ichki qismni loyihalashda dizayner o'z ishini yorug'lik va tovush bo'yicha mutaxassislar bilan maslahatlashishi kerak.

Yoritish. Moda restoranlarida (feshenebelli restoranlar) oddiy ishlatiladigan yorug'lik ham ishlatilmaydi. Qulaylik va qulay muhit hissi yaratish uchun menyu satrlari va plastinka tarkibiga qat'iyat bilan qarab, ko'zingizni zo'riqtirmaydigan yorug'likni yaratish kerak. Ammo, ayni paytda yorqin kontrastlar bo'lmasligi kerak. Bu ikki qarama-qarshilik turli yo'llar bilan hal qilinadi. Dizayner ushbu muammolarni xonaning uslubiga muvofiq hal qilish bilan shug'ullanadi. Vakolatli loyihani yakunlash funksional maqsadlarga xizmat qilishi va noqulaylik tug'dirmasligi kerak bo'lgan shovqinsiz ishlaydigan yoritishdan iborat.

Ichki yoritish odatda dekorativ yechimlar bilan birlashtiriladi, masalan:

- 1) stilize qilingan devor chiroqlari;
- 2) qiziqarli "jonli" rasmlar, sharsharalar;
- 3) "miltillovchi" chiroqlar;
- 4) yoritilgan haykaltaroshlik guruhlar, portikolar (binoning chiqadigan qismi ko'rinishidagi kirish guruhining bir qismi sifatida uch tomondan ochilgan galereya), kolonnalar (ustun), rotundalar (aylana shakl).

Rang va intensivlik bilan uyg'unlashgan, bezovta qilmaydigan vizual kontrastni yaratish mumkin, bu hech qanday holatda siqilmaydi, lekin restoran maydonini zamonaviy tarzda yopadi va qulaylik hududini belgilaydi.

Shunday qilib, past shiftlar ularni qora rangga "cho'ktirish" va miltillovchi yulduzli osmon effektini yaratish orqali ajoyib tarzda ko'tariladi. Agar zal yetarlicha baland bo'lsa va ba'zi dizayn xususiyatlari sizga ma'lum qurilmalarni joylashtirishga imkon bersa, shiftni oddiy yoki lyuminessent bo'yoqlar bilan bo'yashda siz kunning o'zgaruvchan vaqtining ta'sirini yaratishingiz mumkin. Ochiq osmon (yulduzlar, quyosh botishi, quyosh chiqishi) illyuziyasi mutlaqo

haqiqiydir. Butun yorug'lik tuvalini tezda almashtirish mumkin: bugungi kunda mijoz bitta intererda, ertaga – butunlay boshqasida ovqatlanadi.

Modernistik stilistika doirasida ba'zi jihatlarni yengil ta'kidlash, shuningdek, boshqa, eng xilma-xil va ba'zan radikal yechimlar juda qulaydir. Aslida, zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlarini sanab o'tish shart emas, barchasi dizaynerning tasavvuriga va restoran egasining xohishiga bog'liq. Hozirgi vaqtda ichki bezatish elementlari yoki me'moriy ob'ektlar eng hayolij g'oyalarni amalga oshirish uchun xizmat qilishi mumkin.

Xona dizayneri va yoritish bo'yicha mutaxassisning ishi odatda taqqoslanmaydi. Dizayner kelajakdagi loyihani taklif qilganda, restoran uslubi uchun javobgardir. Ammo, eng muvaffaqiyatli yechimlar dizayn va yoritish bo'yicha mutaxassislarning teng hamkorligiga tayanadi. Dizayner yoritish bo'yicha mutaxassisning tavsiyalarini inobatga oladi, u loyiha asosida texnik ishlanmalarni amalga oshiradi. Ushbu kasblar birlashmasining natijasi – bu ichki dizayner umumiy kayfiyatni o'rnatadigan va yoritish bo'yicha mutaxassis uni amalda amalga oshiradigan vaziyatni to'g'ri tanlaganligidir.

Agar restoran, bar yoki kafe an'anaviy va qimmat korxona bo'lsa, unda ko'pincha o'ziga zarar keltirishi mumkin. Agar korxona yoshlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, unda binolarning ichki qismini loyihalash va tashkil qilish, albatta, chiroyli, biroz qiziqarli va jozibali, antiqali elementlarni o'z ichiga olishi kerak.

Shuningdek, ovqatlanish korxonalarida, jumladan restoran, kafe va barlarda mijozlarning yaxshi dam olishlari uchun ovozning o'ri ham muhimdir.

Ovoz. Agar restoran, bar, kafe va boshqa turdagi korxonalarga tashrif buyuruvchilar tinch vaqt o'tkazish uchun kelgan bo'lsa va shou tadbirlarida ishtirok etishni rejalashtirmagan bo'lsa, unda akustik mutaxassislar intilishi kerak bo'lgan asosiy narsa – bu eshitish qulayligidir. Eshitish qulayligining asosiy komponenti tovush manbasining to'g'ri tanlanmaganligida.

Mijoz ovoz chiqayotgan joyni sezmasligi kerak, shunda uni topish istagi yo‘q.

E’tibor bering, milliy restoranlarda yangragan musiqa tashrif buyuruvchilarga yoqmasligi mumkin. Yapon taomlarini tatib ko‘rish uchun Yapon restoraniga tashrif buyurganida, mijoz milliy musiqa tinglashga majbur bo‘ladi. Ovoz bo‘yicha mutaxassisning asosiy vazifasi musiqiy fonni atributlarning qulay elementiga aylantirishdir.

Tayanch iboralar: sahna janri, fon musiqasi, jonli musiqa, diskoteka restorani, didjey (DJ), DJ Trace, Roger Gunn, DJ Sam, DJ Niki, DJ Voyvov, rejali, kreativ, shou dastur, naunslar, event marketing, furshet, banket, feyerverk, dizayn, fasad, ovoz, yorug‘lik.

Nazorat savollari:

1. Fon musiqasi deganda nimani tushunasiz?
2. Jonli musiqali restoran qanday talablarga javob berishi kerak?
3. Diskoteka-restoranga qanday yoshdagi odamlar tashrif buyuradi?
4. Didjey qanday tushuncha va uning yaratuvchisi kim bo‘lgan?
5. O‘zbekistonda didjeychilardan kimlarni bilasiz?
6. Shou dasturi deganda nimani tushunasiz va ular qanday tashkil etiladi?
7. Shou dasturni yaratishda qanday marketing strategiya elementlaridan foydalaniladi?
8. Sovg‘alar marketingi nima?
9. Event marketingning qanday turlari mavjud?
10. Shou dasturlarni tashkil etishda qanday texnik vositalardan foydalaniladi?
11. Ovoz uskunasi tinchlovchilarga ta’sirida qanday holatlar hisobga olinadi?
12. Restoranlarda fasad, dizayn, yorug‘lik va ovoz ta’sirlarining o‘rni nimada?

VII BOB. MEHMONXONA BIZNESIDA XODIMLARNI BOSHQARISH

7.1. Mehmonxona xo‘jaligidagi servis xizmati va uning maxsusligi

Mehmonxona xo‘jaligi o‘zining servis xizmat ko‘rsatish turlari bo‘yicha turli darajada bo‘lsada, lekin barcha mehmonxonalarda asosan: qabul qilish va joylashtirish, savdo xo‘jalik ishlari, muxandislik, xavfsizlik, sotib olish, ovqatlanish va boshqa servis xizmatlari yo‘lga qo‘yiladi. Albatta, mehmonxona turi, quvvati, darajasiga qarab bunday xizmatlar turini kamaytirilishi yoki kengaytirilishi mumkin. Masalan, bronlash xizmati alohida bo‘lishi yoki kommersiya ishlari bilan qo‘shilishi, xarid qilish xizmati moliyaviy xizmat bilan, banket xizmati ovqatlanish xizmati bilan bo‘lishi mumkin.

Mehmonxona darajasiga qarab yangi xizmat turlari: biznes-markaz, fitnes-markaz, tibbiyot, dam olish va boshqa servis xizmatlari tashkil etiladi.

Mehmonxonalarda qabul qilish va joylashtirish servis xizmati ingliz tilida «Reception» deb ataladi va mehmonxona komanda punkti hisoblangan Front office tarkibida bo‘lib, mehmonxona yuzi, mehmonlarning mehmonxona bilan tanishishi va ular bilan xayrlashish joyi hisoblanadi. Uning tarkibida konserj, shveysarlar, bagaj tashuvchilar, pajlar, telefon operatorlari, mehmonxonalar bilan ishlash menedjeri, kassir va ko‘p holda bronlash xizmati kiradi.

Bunday servis xizmatidan klerklar (mehmon kutuvchilar) yaxshi psixolog bo‘lib, mehmonlar bilan tez til topishi, uni o‘rganishi (masalan, mehmon jimjitlikni xush ko‘radimi yoki ko‘ngil ochar ishlarnimi) lozim bo‘ladi.

Qabul xizmat ko‘rsatishda xodimlar mehmonxona haqida barcha ma’lumotlarni (nomerlarning tavsifini, kamchiligi va yaxshi tomonlarini, barcha xizmat ko‘rsatish joylarini va ularning ishlash rejimini) shahardagi diqqatga sazovar joylarni, ularga borish yo‘llarini, transportlarning yurish jadvalini, teatr, muzeylar va h.k. bilishi lozim.

Qabul qilish va joylashtirish servis xizmatining asosiy vazifasi kelgan mehmonlarni qayd qilish, nomerlarga bo'lish, ularni joylashtirish, mijozlarni ketishini belgilash va yana turli qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi. Bunday xizmat ko'rsatish kecha-kunduz ish rejimida ishlaydi. Kechki smenada ishchilar soni kunduzgiga nisbatan bir muncha oz bo'lishi mumkin.

Front officeda mijozlar haqida ma'lumotlar (ularning nimani yaxshi ko'rishi, tug'ilgan kunlari) yig'iladi va saqlanadi. Shu bilan birga ular o'zlarining servis bo'yicha hamkorlari (ekskursion byurolar, avtomobil ijara firmalari, turistik agentligi va h.k.) bilan muntazam aloqada bo'ladi.

Qabul qilish va joylashtirish xizmatida bronlash ham muhim hisoblanadi. Chunki, bunda turli aloqa vositalari yordamida (elektron pochta, faks, telefon, teleks) nomer fondiga byurtmalar kelib tushadi va kompyuterda yoki jurnalda ularning familiyasi, manzili, necha kishi ekanligi, qanaqa nomer bo'lishi, muddati va to'lov kafolati kim tomonidan to'lanishi (maxsus tilaklari) yozilib boriladi. Har bir byurtmaga alohida nomer beriladi. Bunday ma'lumotlar olingandan so'ng, bo'lajak mijoz haqida tahlil olib boriladi. Uning oldin shu mehmonxonada yashaganmi, yo'qmi va u haqidagi ma'lumotlar ko'zdan kechiriladi. Agar byurtma ko'p nomerga bo'lsa, buning uchun alohida shug'ullanadigan xodim tayinlanadi.

Mehmonxonada bo'sh nomerlar borligi haqida mijozlarga albatta, javob beriladi va broni tasdiqlanadi. Bunda joylashish kuni, nomer tipi, yashash muddati, buyurtma nomeri ko'rsatiladi. Agar yashash muddati ko'rsatilmasa, unda nomer faqat bir kunga bronlanadi. Mijoz mehmonxonaga soat 18 gacha kelishi kerak, agar kech keladigan bo'lsa, u haqda oldindan xabar berishi kerak. Umuman olganda, byurtma, bu yozma kontrakt hisoblanadi.

Mijozlarning broni bekor qilishlari yashash muddatidan 48 soat oldin xabar berilishi so'raladi. Amaliyotdan shu ma'lumki mijozlarning 10 % broni bekor qilishadi, 5 % aytilgan vaqtda kelmaydi. Shuning uchun mehmonxonalar keragidan 10 % ko'proq bron beriladi. Bunday

holatlar mehmonxona administratsiyasi tomonidan mijozning tomoniga hal etiladi.

Chet el mehmonxonalarida bunday vaziyatlar: bronni tasdiqlash – confirmation, kech kelishi haqida belgilash – late arrival, qayta bronlash – overbooking, mehmonxonaning o‘z hisobidan boshqa mehmonxonalardan joy topib berishi – farm out, ma’lumotlarni xo‘jalik xizmati ma’lumotlari bilan taqqoslash – housekeeping deb nomlanadi.

Qabul qilishda bronlash usuli ikki tomon: mehmonxona va mijoz o‘rtasida qulay bo‘lgan munosabat hisoblanadi. Bunda mehmonxona o‘zining ish faoliyatini oldindan rejalashtirsa, mijozlar ortiqcha ovoragarchilikdan holi bo‘lishadi.

Mehmonlarning kelishi bilan ro‘yxatga olish ishlari olib boriladiki, bunda mehmonning mehmonxonada yashashi uchun qonuniy hujjatlar: qayd etish kartochkasi tuzilib, ikki tomondan imzolanadi, ya’ni shu bilan mehmonxona va mijoz o‘rtasida shartnoma tuziladi. Bu haqidagi ma’lumot kassirga uzatilib, mehmonga mehmonxona vizitkasi beriladi. Shundan so‘ng mehmonnni xonasiga joylashtiriladi.

Mehmonning mehmonxonadan ketishi vaqtida, u mehmonxona ro‘yxatidan chiqariladi. Bu haqda mehmonxonaning barcha xizmat ko‘rsatuvchilariga xabar beriladi.

Mehmonxona xo‘jalik xizmati, mehmonxonaning va uning nomerlari tozaligiga javob beradi. Mehmonxona xonalarini tozalash bo‘yicha maxsus ko‘rsatma ishlab chiqarilishi kerak. Uni bajaruvchi mehmonxona xodimlari bunga qat’iyan amal qilishadi.

Bu ko‘rsatma qisqacha quyidagicha bo‘lishi mumkin: 1) nomerni eshigini ochishdan oldin 3 marta taqqillatishi va unda hech kim yo‘qligiga ishonch hosil qilgandan so‘ng nomer eshigini ochish kerak; 2) derazani ochib axlatni yig‘ish kerak; 3) ko‘rpani olish, kir choyshabni yig‘ish, tozasiga almashtirish va qo‘lni yuvish kerak; 4) idishlarni yuvish, to‘nkarib qo‘yib ustiga sochiqni yoyish lozim; 5) sanuzelni tozalash kerak. Bunda toza sirtdan kiriga yo‘nalish lozim; 6) derazani yopib tepadan pastga qarab changlarni tozalash kerak; 7) polni tozalash: oldin supuriladi, so‘ng changyutgich bilan tozalanadi.

Xo‘jalik xizmati majburiyatiga nomerlarni tozalashdan boshqa xollar, koridorlar, restoran binosini ham tozalash-yig‘ish ishlari yuklatiladi.

Mehmonxonalarda *tozalash ikki standart*: kunlik normal tozalash-yig‘ishtirish va e’tiborli yoki nufuzli, ya’ni chang kuniga ikki marotaba tozalanadi. Bundan tashqari, mehmonxonada mavsumiy tozalash-yig‘ishtirish ham mumkin. Bunda devorlar yuviladi, mebellar tozalanadi, kichik ta’mirlanadi, ayrim nomerlarni ta’mirlashga qo‘yiladi.

Barcha tozalash ishlari mehmonxona imidjini ko‘tarishdan, boshqa tomondan yana mijoz salomatligiga g‘amxo‘rlikni oshiradi, mebellar, gilamlar umrini uzaytiradi.

Ko‘pgina mehmonxonalarda xo‘jalik ishlariga kiriyuvish va yoddan chiqarib qolgan narsalar byurosi ham kiradi. Mehmonxonada yoddan chiqarib qoldirilgan narsalar uzog‘i bilan uch oy muddatda saqlanadi.

Mehmonxonadagi *muxandislik xizmati* barcha mavjud muxandislik jihozlari hisoblangan: tez harakatli liftlar, konditsionlash, isitish, suv ta’minoti, kanalizatsiya sistemasi, elektr (katta quvvatdagi) va gazli oshxona jihozlari, kabelli televidenie, kompyuterlar va h.k. muntazam ishlatilishiga javobgar hisoblanadi.

Ko‘p holda bu xizmat xodimlarini o‘rindoshlik sifatida ishga olinib foydalaniladi.

Muxandislik jihozlari xizmatiga bundan boshqa gilamlar, mebellarni ta’mirlash, nomerlarni kichik ta’mirlash ham kiradi.

Muxandislik xizmatining asosiy vazifalaridan biri. Bu mehmonxona yong‘in xavfsizligini ta’minlash hisoblanadi. Chunki, yong‘in juda ko‘p tarqalgan texnogen xususiyatli vaziyat hisoblanadiki, uning bo‘lishi mehmonxona ish faoliyatini izdan chiqaradi. Uning asosiy sabablari chekuvchilar, oshxona va nomerlardagi elektr jihozlarning nosozligi, kaminlardan noto‘g‘ri foydalanishi, axlatlarning yondirilishi hisoblanadi.

Mehmonxonalar *xavfsizlik xizmati*, mehmonlarni himoyalash, mehmonxona moddiy boyligini turli jinoyatlardan himoyalash

vazifasini bajaradi. Bu boradagi ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilmasa mehmonxona qiyin holatga tushishi va o'zining imidjini yo'qotishi mumkin. Masalan, 1974 yili amerikalik estrada xonandasi Koni Frensis besh yulduzli mehmonxonada zo'rlanganligi va keyingi sudlashishdan so'ng otel 1,5 mln. dollar to'lagan.

Ko'p holda, mehmonlarning o'zlari ham nomerning sochig'ini, choyshabini yoki suviner joyida kuldonini olib ketishadi. Bunday mehmonlarni mehmonxona administratsiyasi qora ro'yxatga olib, kelgusida nazorat ishlarini olib boradi. Xuddi shunday, bunday ro'yxatga professional arziqiluvchilarni ham kiritishadi.

Xavfsizlik xizmatining asosiy vazifasi nojo'ya ishlarni axtarish, so'rov emas, balki oldini olish hisoblanadi. Ular so'rov o'tkazishi, tintuv va boshqa harakatlar qilishga haqli emas. Bu xizmat xodimlari boshqa xizmatlar bilan ayniqsa, moliyaviy departament va personal bo'limi hamda mahalliy ichki ishlar bo'limi bilan hamkorlikda bo'lishi kerak.

Xavfsizlik xizmat xodimlari mehmonxonani xavfsizligini oshirish bo'yicha loyiha – dastur ishlab chiqib, mehmonxona direktori tomonidan tasdiqlanib ish faoliyatida qo'llab borishlari lozim. Bu xizmatning albatta, mehmonxonada o'zining alohida xonasi, garderoibi va hujjatlar saqlash xonasi bo'lishi kerak.

Xavfsizlik xizmatining funksiyasi turli xil bo'lib, unda xonalarni tekshirib turish, ayniqsa kechki vaqtda nomerlar eshiklarning ochiq qolmasligini, xizmat kirish eshigini nazorati, mehmonxona boshliqlarini, inkassani himoyasi, kalitlarni nazorati, xodimlarning shaxsiy qo'llashlariga berilgan moddiy boyliklarini saqlanishini nazorati, evakuatsiya vaqtida tartibni va moddiy boylikni saqlash va h.k. funksiyalarni bajaradi. Vaqti-vaqti bilan mehmonxona administratsiyasiga hisobot berib boradi.

Mehmonxonaning xarid qilish bo'limining funksiyasiga, mehmonxona kerakli tovarlarni talab darajasidagi sifatda, o'z vaqtida kelishgan narxda olish hisoblanadi.

Mehmonxona faoliyatini yurgizishda muntazam ravishda kerak bo'ladigan tovarlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Mahsulotlar.
2. Ichimliklar.
3. Jihozlar va mebellar, idish-tovoq, choyshablar.
4. Sarf moddiylari (asosan nomerlarni va jamoaviy xonalarni tozalashda kerakli materillar).

Bu tovarlarni olishda bo‘lim menedjerlari: mol yetkazuvchining reputatsiyasiga (obro‘-e‘tiboriga), tovarlarning bahosi va sifatiga, oladigan partiyaning hajmi, to‘lov shartiga (yaxshisi kreditga, oldindan to‘lovsiz), olingan tovlarga servisli xizmat ko‘rsatilishiga va yetkazib berish bahosi va yetkazuvchining uzoq yaqinligiga e‘tibor berish zarur.

Yuqorida keltirilgan mehmonxona asosiy xizmatlaridan yana biri bu **ovqatlantirish xizmati hisoblanadi.**

Mehmonxona ovqatlantirish xizmati, asosan shu mehmonxona tarkibidagi ovqatlanish korxonasi (restoran, kafe, oshxona, bufet, bar va h.k.) tomonidan bajariladi. Uning asosiy vazifasi mehmonlarni o‘z vaqtida qulay, sifatli, aql darajasidagi narxda yuqori servis darajasida ovqatlantirish hisoblanadi. Bunda ovqatlarni tayyorlash muddati, sanitariya normalari talabiga javob berishi, ishlab chiqarish sarf-harajatini kamaytirish, mijozlar talabini yuqori qo‘yish, boshqalar bilan raqobatda bo‘lish lozim bo‘ladi.

Ovqatlantirish xizmatida ovqatlantirish korxonasining qayerda joylashganligi, menyu (taomnoma)ning o‘lchami, servis xili, ovqatlanish joyi dizayni, oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish va uni saqlash spesifikatsiyasi, oshxona, banket xizmati, nomerlarga ovqatlantirish xizmatining yo‘lga qo‘yilganligi, ovqatlanish korxonasining ishlash rejimi, alkogol ichimliklarining turliligi, ovqatdan zaharlanishning oldini olish, sanitariya-gigiena talablariga javob berish, texnika xavfsizligi va h.k. ham muhim o‘rin egallaydi.

7.2. Mehmonxona boshqaruv strukturasi

Barcha korxonalar kabi, mehmonxonalar ham davlatning bir butun infratuzilmasi tarkibida bo‘lib, turli tizimli boshqaruvga ega bo‘lsada, ular davlat tizimidagi o‘rni 7.1-rasmda keltirilgan.

Mehmonxonalarining davlatdagi boshqaruv strukturasi shuni ko'rsatayaptiki, boshqaruv asosan makrodarajada, ya'ni prezident, oliy majlis, Vazirlar Mahkamasi va tarmoq vazirliklari, markaziy iqtisodiy idoralar miqyosida, hamda mikrodarajada mehmonxonalar, turistik kompaniyalar va boshqalar.

Agar biz yuqorida keltirilgan boshqaruv strukturasi mehmonxona tashqi boshqaruvi deb bilsak, unda mehmonxona xo'jaligining ichki boshqaruv strukturasi katta quvvatli mehmonxona misolida 7.2-rasmda va uncha katta bo'lmagan mehmonxonalar 7.3-rasmda keltirilgan.

Albatta, mehmonxona tashqi boshqaruvida bozor iqtisodiyoti sharoitida turli xildagi assotsiatsiyalar, ittifoqlar, kompaniyalar va birlashmalar, konsernlar, konsorsiumlar, qo'shma korxonalar tashkil etilishi va mehmonxona shular tarkibida bo'lishi mumkin.

7.4-rasmda mehmonxonalar taxminiy boshqaruv strukturasi keltirilgan.


Agar Prezident, Oliy majlis, Vazirlar Mahkamasi boshqaruv siyosatni strategiyasini belgilab bersalar, quyi zvenolar makro-, mikrodarajada uni bajarilishini ta'minlaydilar.

Mavjud boshqaruv strukturasi markaziy iqtisodiy idoralarning ahamiyati katta o'rin egallaydi. Ular yordamida sohaning rivojlanish davlat dasturlari tuziladi, xalqaro kelishuvlarga takliflar tayyorlaydi, soha investitsiyasi, innovatsiyasi rivojlanishiga rahbarlik qiladi. Shu bilan birga valyuta-kredit siyosatini olib borishni, to'lov balansini tashkil etishda, markaziy valyuta resurslardan foydalanishga ko'maklashadi.


Iqtisodiy ta'sir richaglardan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan strukturalar administrativ hokimiyat boshqaruvi ham olib boriladiki, bunga birinchi navbatda mehmondorchilik tashkilotlarini litsenziyalash va sertifikatsiyalash kiradi.


Xalqaro litsenziyalash har 3 yilda o'zgartirilib boriladi. Sertifikatsiyalash ixtiyoriy va majburiy bo'ladi. Lekin hozirgi vaqtda o'z-o'zini reklama qilishning eng muqobil yo'li bu sertifikatsiyalash hisoblanadi. Ma'lumki, xizmat yoki mahsulot sertifikatsiyasi, bu

mahsulot yoki xizmatning o‘rnatilgan talablarga mos kelish faoliyati hisoblanadi. Uning mos kelishiga ishlab chiqaruvchi javobgar bo‘lsa, sotuvchi sertifikatning bor yoki yo‘qligiga javob beradi.



7.1-rasm. Mehmonxonalar boshqaruv strukturasi






7.3-rasm. Katta bo'lmagan mehmonxonalar boshqaruv strukturasi.

Umuman olganda, har qanday boshqaruvning asosiy maqsadi mijozlar muammosini yechishini topish va ularga qulay sharoit yaratish, ular mehnati va xordiq chiqarishi sharoitiga g'amxo'rlik qilish, turli xildagi xizmat va mahsulotlar ishlab chiqarish, uning sifatini ta'minlash hisoblanadi.

Mehmonxonalar ichki boshqaruv strukturasi ham uning quvvatiga, turiga bog'liq ravishda turli lavozimlar bo'lishi yoki ularning funksiyalari birlashtirilishi, kengaytirilishi mumkin. Masalan, istirohat otellarida alohida “dam olish direktori” bo'lishi mumkin. Buyuk Britaniya otellarining xususiyatiga ko'ra, qabul qilish xizmati (Front office) xo'jalik xizmatlari direktoriga bo'ysindirilgan, qabul qilish xizmatidagi ayrim alohida bo'limlar katta xodimlar (masalan,

katta telefonist, katta tashuvchi, katta kassir, katta axborot xizmatchisi, katta bronlash xizmatchisi va h.k.) tayinlanadi.



7.4-rasm. Mehmonxona boshqaruvining taxminiy sxemasi.

Kichik mehmonxonalar oddiy boshqaruv strukturasiga ega bo'ladiki, unda ko'pgina xizmatlar guruhlashtirilib xodimlar soni

minimal darajada keltiriladi. Lekin, asosiy bo'limlarni saqlashga harakat qilinadi.

Masalan, 100 nomerli motelda direktorga qabul qilish va moliya xizmatining to'rt klerki, xo'jalik ishlar boshlig'i bo'ysindirilgan. Xo'jalik ishlari boshlig'iga esa sakkizta mehmonxona xodimasi, to'qqizta pajlar (bellman), aynan ular mijozlar avtomobilini ham joylashtiradi, bundan tashqari, bitta elektrik elektr va santexnik ishlarini bajaradi.

Katta mehmonxonalarda aksincha: general direktorga uchta o'rinbosar: nomerlar fondi, ovqatlanish va administrativ xizmat ko'rsatish bo'yicha. Nomerlar fondi (front office) direktoriga, o'z o'rnida qabul qilish xizmati, xo'jalik xizmati (gornichniylar, tozalovchilar, kiriyuvchilar, kimyoviy tozalagichlar va h.k.) qaraydi. Ovqatlanish direktoriga oshxona, restoran, barlar, banket xizmati, nomerlarga xizmat ko'rsatish xizmati (Room service) qaraydi. Administratsiya qismi direktoriga nazoratchilar, marketing va sotuv bo'limi menedjeri, bosh muxandis, xavfsizlik xizmati, xodimlar bo'limi qaraydi.

Turli mamlakatlarda mehmonxona xizmatchilari turlicha nomlanadi. Quyida biz chet el otellarida va o'zimidagi chet el xalqlariga kirgan mehmonxona xizmatchilarini ayrimlarini ko'rib chiqamiz.

Mehmonxona qabul qilish va joylashtirish xizmatida klerklar, konserj, shveysar, pajlar xizmat ko'satadi.

Klerklar, mehmonlarni qabul qilishda kutib olib, ular bilan muloqotda bo'lib, rasmiylashtirish, nomerlarga bo'lish, joylashtirish, ularni mehmonxonadan chiqarish va turli boshqa ishlarni bajaradi. Ular o'z o'rnida yaxshi psixolog bo'lib, bir daqiqada mijoz hohishini bilishi, uni baholashi (masalan, tinchlikni yoki ko'ngil ochishni hohlashini aniqlashi) lozim. Shuning uchun o'z ish o'rnidan liftni ko'rib turishi mumkin bo'lishi kerak. Bu bilan mehmonlar va ularning yuklarini qo'shimcha nazoratini bajaradi.

Mehmonxonada teatr va muzeylarga chiptalarni bronlash, mehmonlarni aeroportdan olib kelish va olib borish, ular uchun

avtomobillarga buyurtma berish va shunga o'xshash ishlarni **konserj** bajaradi. Shu bilan birga u mehmonxona shveysari (dorman), yuk hammollari (porter), pajlar (bellman) va liftyorlar ishini ham muvofiqlashtiradi. Mehmonxonada bu xodimlarining ishi og'ir bo'lmasada, lekin o'ta muhim hisoblanadi.

Mehmonxona **shveysarlari** mehmonlarga peshvoz chiqib kutib oladi, bunda eshikni ochadi, taksi chaqiradi, mehmon avtomobilini joylashtirishga rahbarlik qiladi, mehmonlar yuklarini tushirishga yordam beradi, yuklarni qo'riqlaydi va hammollarga uzatadi, hammollar o'z o'rnida ularni nomerlarga olib ketishadi. Bundan tashqari, ular mehmonlarni mo'ljal olishlariga yordam berishlari lozim. Buning uchun shaharni yaxshi bilishlari kerak bo'ladi.

Pajlar (bellman) mehmonning qo'l yukini ko'targan holda nomeriga olib boradi. Nomerlarni tayyorligini tekshiradi, mehmonlarga nomerdagi jihozlardan foydalanishni tushuntiradi. Shu bilan birga nomerlarga korrespondensiyaning (turli xatlar, gazetalar va jurnallarni tarqatish) tarqatadi va boshqa ishlarni ham bajaradi. Pajlar mehmonxona direktorining "ko'zi" va "qulog'i" bo'lishi, barcha kunlik voqealar haqida xabar berib borishi lozim.

Telefon operatorlari – yoqimli ovoz bilan mehmonlarni aloqasini o'rnatishi, aloqa to'lovini nazoratini olib borishi, mehmonlarni uyg'otish va h.k. ishlarni bajaradi.

Mehmonxonalarning ko'pchiligida muxandislik xizmati xodimlarini to'la shtatda saqlash ehtiyoji bo'lmaydi. Shuning uchun ular o'rindoshlik sifatida ish olib borishlari mumkin. Ko'p holda universal xodimlar ishga olinadi, ular asosan santexnika, elektr jihozlari va boshqa jihozlar ishlariga xizmat ko'rsatishadi.

Xavfsizlik xizmati asosan 500 nomerga 10 ta, tarkibida ayol xizmatchi bo'lishi tavsiya etiladi. Ko'p holda bu ishga oldin shu sohalarida xizmatda bo'lganlar olinadi. Ular o'zini tutgan, bosiq, axloqiy mustahkam, to'g'ri insonlar bo'lishi kerak. Ularning funksiyalari turlicha bo'lishi mumkin. Asosan xonalarni nazoratini olib borishlari bunda eshiklarning yopilgan yoki yopilmaganligini tekshirishadi. Ular bundan boshqa mehmonlar narsalarini yo'qolishini

oldini olishlari, barcha vositalardan to'g'ri foydalanishini ham nazorat qilishlari lozim bo'ladi.

Mehmonxona ehtiyojini qondirish uchun chetdan narsalar sotib olish xizmati, asosan uzoq muddatli kontrakt-shartnomalari bilan va ayrim hollarda tender asosida va bir martali sotib olishi tashkil etiladi.

Uzoq muddatli kontrakt-shartnomalar asosida olingan tovarlar, moddiylar ma'lum chegirma bilan arzon narxda olinadi.

Mehmonxonaga ulugurji partiyalarda vino, quvvati yuqori spirtli ichimliklar, pivo, sigaret mahsulotlari va go'sht olinadi. Agar mehmonxona biror-bir mehmonxonalar xalqasida bo'lsa, unda markazlashgan holda shu xalqa yordamida olinadi.

Barcha sotuvlar quyidagi tarzda bajariladi:

1. Oldin buyurtma beriladi. Bunda tovarlar o'lchami, og'irligi, qaysi davlatdan ekanligi, miqdori va olish kuni belgilanadi.

2. Bo'lim menedjeri ta'minlovchilarning takliflarini (baho, mumkin bo'lgan chegirmalarni, to'lov formasi va h.k.) olib, eng qulayini tanlashadi va buyurtma tayyorlashadi.

3. Tovarlarning kelishi nakladnoy (tovar-moddiy boyliklarni bir shaxsdan boshqasiga o'tkazishda foydalaniladigan birlamchi hujjat) bilan tekshiriladi, yaroqsizlarni qaytarish uchun rasmiylashtiriladi.

4. Ta'minlovchidan hisob-faktura kelganda tekshiradi, rasmiylashtiradi va moliya xizmatiga to'lash uchun yuboradi.

Mehmonxona *ovqatlanish xizmati*, oddiy bo'lmagan biznes hisoblanadi. Unda doimo mehmonxonada yashash bilan yaxshi ovqat, yaxshi servis va qoniqarli baho siyosati bo'lishi lozim.

Ovqatlanish xizmati direktori qo'l ostida bosh oshpaz, ovqatlanish xizmati nazoratchisi, metrdotel, banket menedjeri, bosh barmen, ofitsiant bo'ladi.

Agar ovqatlanish korxonasi oziq-ovqat mahsulotlarini o'zi oladigan bo'lsa, unda alohida ta'minlovchi ham bo'ladi. U barcha mahsulotlarni, vino va ichimliklarni olib keladi. Agar mehmonxonada ovqatlanish korxonasi bir nechta bo'lsa, unda har birida boshliq va o'ziga yarasha xodimlari bo'ladi.

Albatta, mehmonxona ovqatlanish xizmatidagi korxona joylashuvi, uning taomnomasining (menyu) kattaligi, servisining turi, dizayni, oshxonasi va h.k. bunda muhim rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, biz aksariyat mehmonxonalardagi xizmatlarni va boshqaruv strukturasini ko‘rib chiqdik.

Hozirgi vaqtda mehmonxona va turizm boshqaruvi tahlili shuni ko‘rsatayaptiki, turli davlat va mehmonxonalarda undagi yaratilgan muhit va sharoitga qarab boshqaruv strukturasini turi ham turlicha bo‘ladi.


Boshqaruv strukturasining umumiy sxemasi 7.5-rasmda keltirilgan.

Ierarxik struktura boshqaruvida quyi daraja yuqori darajaga bo‘ysinadi va yuqori daraja quyi daraja nazoratini olib boradi.

Organik struktura boshqaruvida har bir ishchining umumiy natija uchun individual javobgarligi asosida bajariladi.

Ierarxik liniyal-funksional boshqaruv asosida “shaxtali” prinsipi yotadi, ya’ni o‘zining funksiyasiga ko‘ra bo‘limlar ixtisoslashadi (marketing, ishlab chiqarish, moliya, xodimlar va h.k.). Ularning har birida ierarxik struktura tuziladi. Agar mehmonxona ishlari har vaqt o‘zgarmay, ko‘p vaqt bir maromda bajarilsa, ushbu struktura yaxshi natijalar beradi.

Liniyal-shtabli boshqaruvi ham liniyal-funksionaliga o‘xshash, faqat bunda mehnat boshqaruvi shtabli turli darajada tuziladi.



7.5-rasm. Boshqaruv strukturasining umumiy sxemasi.

Divizionalli strukturada esa markaziy boshqaruv bilan markazlashmagan boshqaruvni muvofiqlashtirilishi natijasidagi strukturada olib boriladi. Bunda asosiy rolni mahsulot chiqaruvchi bo'lim rahbarlari o'ynaydi. Unda mahsulot ixtisosligi, iste'molchi yoki regional ixtisoslikda bo'lishi mumkin.

Organik loyihali strukturada yangi soha ochilayotganda, yangi mahsulot yaratilishida qo'llaniladi. Asosiy farqi, shunga qarab vaqtinchalik loyiha guruhi tashkil etiladi.

Turli xildagi loyiha guruhlarini ishini muvofiqlashtirishda matritsali boshqaruv strukturasi qo'l keladi.


Matritsali boshqaruv strukturasi bajaruvchining ikki tomonlama bo'ysinishi tashkil etiladi. Bir tomondan funksional xizmat rahbariga, ikkinchidan loyiha rahbariga bo'ysinadi.

Organik boshqaruvning yana biri, ko'p tarqalgani bu brigadaviy (komandali) struktura bo'lib, bunda katta korxonalarda, ya'ni an'anaviy bo'linmay, turli darajadagi mutaxassislarning birinchi natijasida hosil etiladi. Bunda ishchilarning erkin ijodiy salohiyatidan yaxshi foydalaniladi, boshqaruv, nazorat yengillashadi.

7.3. Turkomplekslardagi xavfsizlik va menejment texnologiyasi

Barcha darajadagi mehmonxonalar, tur komplekslarda qulay, samarali xavfsizlikni shu yerdagi tashqi muhit (siyosiy-iqtisodiy, tabiiy-iqlimiy, ekologik muhit, tashqi infratuzilma) va ichki muhit (korxona moddiy-texnik bazasi holati, ichki infratuzilmasi, gumanitar va tashkiliy komponentlar va h.k.) orqali aniqlanadi. Bularning tarkibiy qismi 7.6-rasmda sxemasi keltirilgan.


Mehmonxona va turkomplekslardagi xavfsizlikni ta'minlash borasidagi faoliyat tarkibiy komponentlari shuni ko'rsatadiki, unda asosan ikki global funksiyalar, ya'ni mehmonga barcha mehmondorchilik xizmatlarini ko'rsatish va ularning absolyut xavfsizligini ta'minlash zarur.



7.6-rasm. Mehmonxona va turkomplekslarning xavfsizlik tarkibi sxemasi.

Bunda xavfsizlik ob'ekti bo'lib mehmon, turist, ularni ko'rishga kelganlar, korxona xodimlari va ularning narsalari hisoblanadi. Xavfsizlikni ta'minlovchi sub'ektlar bo'lib, korxona rahbarlari, ularning xavfsizlik va boshqa narsalar bo'yicha o'rinbosarlari, xavfsizlik xizmati xodimlari, korxona ishchilari hisoblanadi.

Mehmonxonalarda xavfsizlik sub'ektlarining ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'yilgan vazifalarni bajarish tadbirlari sxemasi 7.7-rasmda keltirilgan.



7.7-rasm. Mehmonxona xavfsizligini ta'minlash vazifalari sxemasi.

Barcha keltirilgan tadbirlar zamonaviy usulda malakaviy bajarilishi xavfsizlik ishlarida samarali bo'ladi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan yana mehmonlarni, xodimlar va xo'jayinlarni xavfsizligi ekologik, tibbiy, suvda, transferada va sayohatlarda, mehmonxona hududida va undan tashqarida jamoaviy tartib ta'minlanishi kerak.

Turistlarning xavfsizlik chora-tadbirlarini ta'minlash turli qonun va me'yoriy hujjatlarda keltirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi

“Turizm to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi qonun 2019 yil 18 iyulda, O‘RQ-549-son bilan tasdiqlangan) qonunning 35-moddasi: **“Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligi kafolatlari”** - deb nomlanadi va “O‘zbekiston Respublikasi hududida turistlar va ekskursantlarning (**ekskursant** – vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to‘rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs) xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi.

Vakolatli davlat organi manfaatdor vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligini va himoya qilinishini, jamiyat va davlat manfaatlarini, turizmdan shaxslarning qonunga xilof migratsiyasi, ularning mehnatini ekspluatatsiya qilish hamda ularni boshqacha tarzda ekspluatatsiya qilish maqsadida foydalanishga qarshi kurashishni ta‘minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Xavfsizlikni ta‘minlash chora-tadbirlari turistlar va ekskursantlarning shaxsiy xavfsizligi, ularning mol-mulki but saqlanishi, atrof tabiiy muhitga, jamiyatning moddiy hamda ma‘naviy qadriyatlariga, davlat xavfsizligiga zarar yetkazilishining oldini olish ta‘minlanishini nazarda tutadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari barcha turistik yo‘nalishlar bo‘yicha turistlar va ekskursantlarning himoya qilinishini va xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha hududiy dasturlar ishlab chiqadi hamda ularning bajarilishini tashkil etadi.

Turizm sohasi sub’ektlari turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta‘minlash, tabiiy ofatlar chog‘ida, ular jarohatlanganda, kasallikka chalinganda hamda boshqa hollarda tibbiy va o‘zga tarzda yordam ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi.

Vakolatli davlat organi turoperatorlarni, turagentlarni, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) turistlar hamda ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid to‘g‘risida xabardor qiladi, shuningdek xavfsizlikka nisbatan tahdid mavjud bo‘lganligi sababli borib ko‘rish uchun tavsiya etilmaydigan mamlakatlar (joylar) ro‘yxatini ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

Muassislari (hammuassislari) davlat organlari bo'lgan ommaviy axborot vositalari vakolatli davlat organiga turistlar va ekskursantlarning xavfsizligiga nisbatan tahdid haqidagi axborotni e'lon qilish imkoniyatini darhol va bepul taqdim etadi.

Turistlar va ekskursantlar yuqumli kasalliklarning yuqori darajadagi xavfiga uchrashi mumkin bo'lgan vaqtincha bo'lish mamlakatiga (joyiga) sayohatni amalga oshirish boshlanguniga qadar xalqaro tibbiy talablarga muvofiq profilaktikadan o'tishi shart.

Turistlar va ekskursantlar guruhlarini kuzatib boruvchi shaxslar birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun dasturiy asosda minimal tibbiy tayyorgarlikka, tibbiy buyumlarga hamda dori qutichasiga ega bo'lishi shart. “Turizm to'g'risida”gi Qonunning 37-moddasi: **“Turistlar va ekskursantlarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ixtisoslashtirilgan, qutqaruv va shoshilinch xizmatlar”** - deb nomlanadi, unda “O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida falokatga uchragan turistlar va ekskursantlarga zarur yordam ko'rsatish ixtisoslashtirilgan xizmatlar tomonidan amalga oshiriladi.

Qidiruv-qutqaruv xizmatlari, shoshilinch operativ xizmatlar va boshqa qutqaruv xizmatlari mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek sog'liqni saqlash, aloqa, ichki ishlar organlari, davlat o'rmon xo'jaligi, gidrometeorologiya, fuqaro aviatsiyasi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatadi”.


Mehmonxonalar xavfsizligini ta'minlashda *xavfsizlik menejmenti* muhim hisoblanadi. Bunda operativ va uzoq muddatli xavfsizlik dasturini ishlab chiqish, ularning samarali bajarilishini ta'minlash, oddiy, aniq xodimlar motivatsiya tizimini qo'llash, barcha ishlar monitoringi va nazoratini olib borish asosiy hisoblanadi.

Mehmonlarga texnikaviy qulay sharoitini yaratishda menejment texnologiyasi qo'l keladi.

Mehmonxona xo'jalik faoliyatini menejment texnologiyasining strukturasi ikki bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan: boshqariladigan va boshqaradigan tizimdan iborat bo'ladi.

Menejment texnologiyasi mehmonxona moddiy-texnikaviy va texnologik bazasining ko'ngildagidek qo'llanilishi va mehmonlarga texnikaviy komfort sharoit bilan ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun:

- mehmonxona moddiy-texnikaviy va texnologik bazasini saqlash;
- ularning talab darajasidagi ishonchli va sifatli ishlashini ta'minlash, iqtisodiy resurslarni tejash;
- xodimlarning mehmonxona moddiy-texnik bazasi (xo'jaligi)ga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarini yengillatish;
- bu borada mehmonxona binosi, inshooti, texnikaviy sistemasi, hududidan samarali foydalanish, texnikaviy vositalarni modernizatsiyasini oshirish, uning ishga innovatsion texnika-texnologiyalarni tatbiq etish lozim bo'ladi.



7.8-rasm. Menejment texnologiyasi malakali texnologik harakat va operatsiya mazmuni (X.I.Axmedov, A.A.Allaberganov).

Menejment texnologiyasidagi malakali texnologik harakat va operatsiyalar mazmuni 7.8-rasmda keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan barchasi xavfsizlikdagi menejment texnologiyasi taktika va strategiyasidan kelib chiqadi. Agar strategiya – umumiy yo‘nalishni belgilasa, taktika - aniq ishlarni bajarishni belgilaydi.

7.4. Mehmonxona biznesida xodimlarni rag‘batlantirish tizimi

Sayohat qilish yoki dam olish davrida barcha mehmonlar tunash uchun ma’lum bir mehmonxona turlarini tanlaydilar. Bu esa mehmonxonaga foyda keltiradi. Shu boisdan mehmonxonada faoliyat olib borayotgan xodimlarni qilgan ishlari bo‘yicha rag‘batlantirib borish va motivatsiya berish, ularning ishchanligini yanada oshirishga olib keladi.

Motivatsiya - bu shaxsiy va umumiy tashkiliy maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat bilan shug‘ullanish uchun o‘zini va boshqa odamlarni rag‘batlantirish jarayoni.

Rag‘batlantirish (lotincha “stimulus” - chiyillash, ta’qib qilish) – harakat qilish uchun tashqi turtki ma’nosini bildiradi.

Rag‘batlantirish - bu shaxsga o‘zi uchun muhim bo‘lgan narsalar yordamida ta’sir qilish, uni zarur harakatlarga undash jarayoni.

Motivatsiya - bu tashkilot xodimlarini o‘z rahbarlari tomonidan qo‘yilgan vazifalar va maqsadlarni katta xohish bilan bajarishga undaydigan muayyan faoliyat tizimi. Bunday tizim faqat kompaniya va xodimning manfaatlari o‘zaro hisobga olingan holda yaratilishi mumkin.

Moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimlari quyidagi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘yadi:

- 1) daromadning oshishi;
- 2) ishlab chiqarish va moliyaviy rejalarni qisqaroq muddatlarda bajarish;
- 3) kompaniya mahsulotlari va xizmatlari sifatini oshirish;
- 4) xodimlarning moddiy manfaatdorligini oshirish;

5) korxona xodimlarini minimal pul evaziga imkon qadar samarali ishlashga undash;

6) xodimlarning korxonada mumkin bo'lgan tarkibiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishdan manfaatdorligini ta'minlash;

7) turli toifadagi xodimlarning yuqori malakali mehnatini rag'batlantirish;

8) yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish va ushlab turish;

9) tashabbuskorlikni, xodimlarning fidoyiligini, kompaniyaga sodiqligini rivojlantirish;

10) xodimlar intizomini mustahkamlash.

Motivatsiyani boshqarish tamoyillari:

1) motivatsiya nafaqat moddiy va pul, balki ma'naviy va ijtimoiy o'z ichiga olgan "nopul" elementlardan ham iborat;

2) rag'batlantirish xodimlarga o'z ish jarayonini va uning oqibatlarini nazorat qilish imkoniyatini beradi, ularning ish natijalari bilan bog'liq mustaqil qarorlar qabul qilish huquqini beradi. Insonning vaziyatni nazorat qila olishini tushunish unga katta mamnuniyat keltiradi va uning faoliyatini yaxshilashga yordam beradi;

3) xodimlarga ish natijalariga ta'sir qiluvchi qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatini berish kerak, chunki bu ularning motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi;

4) xodimlarning mustaqilligi va faolligini oshirishga erishish uchun rioya qilinishi kerak bo'lgan qoidalar mavjud:

- vazifalarni muhimlik darajasiga ko'ra aniq taqsimlash kerak;
- korxonada xodimlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash zarur;
- xodimga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkoniyatini berish, kerak bo'lganda yordam va yordam olish zarur;

5) xodimlar o'rtasida ishni to'g'ri taqsimlash zarur;

6) menejment istalgan natijalarga qanchalik ko'p qiziqish ko'rsatsa, ijrochilar bunga shunchalik qiziqishadi;

7) tashkilot xodimlari mehnatga qo'shgan hissalarini uchun e'tirof olishlari kerak. Ijobiy xodimning maqomini oshirish uchun siz mehnat sharoitlarini yaxshilash (o'z ofisingizni ajratish), nufuzli treninglarda

ishtirok etish, shaxsiy maqtoʻv, eʼlon qilingan minnatdorchilik, ish haqini oshirish va boshqalar kabi ragʻbatlantirish usullaridan foydalanishingiz mumkin;

8) oʻz-oʻzidan, tartibsiz mukofotlar xodimlarni oldindan aytib boʻlganlarga qaraganda ancha yaxshi ragʻbatlantiradi, chunki ular oʻziga qaram emas;

9) mukofotlar oraliq yutuqlar uchun va barcha ishlarni tugatgandan keyin boʻlishi kerak. Qisqa vaqt oraligʻida ijobiy motivatsiyani kuchaytirish kerak;

10) xodimlar ish joyida oʻzlarini ishonchli his qilishlari kerak;

11) mukofot katta va kam boʻlmasligi kerak, kichik, lekin tez-tez boʻlishi yaxshidir va uni eng yaxshi boʻlsa ham, faqat bitta ishchi emas, koʻpchilik olishi mumkin. Jiddiy sabablarsiz siz doimiy ravishda biron bir xodimni alohida ajratmaslik kerak, chunki bu jamoaning parchalanishiga olib kelishi mumkin;

12) ichki musobaqalarni tashkil qilish foydali boʻlishi mumkin, bu ayniqsa, agar ishchilar ikki smenada boʻlsa, samarali boʻladi. Buning uchun har bir smena natijalarini eʼlon qilish kerak (masalan, yutuqlar qayd etiladigan doska yaratish). Eng muhimi, raqobat baʼzilarning muvaffaqiyatsizligi, boshqalar uchun mukofot boʻladigan holatga olib kelmaydi;

13) asosiy ragʻbatlantirishlar: lavozimga koʻtarilish, vakolatni oshirish, kuchni oshirish, yigʻilishda stolda eng yaxshi joy, umumiy yigʻilishda boshliqning ogʻzaki minnatdorchiligi, sababini koʻrsatadigan moliyaviy mukofot, navbatdan tashqari haq toʻlanadigan taʼtil, ish xavfsizligi kafolati, uy-joy, taʼmirlash uchun toʻlov xarajatlari va shaxsiy avtomobil uchun yoqilgʻi, uzoq muddatli mehnat shartnomalari va boshqalar;

14) rahbariyat har bir xodimga uning samaradorligi va tashkilotga foydasi mezonlari asosida munosabatda boʻlishi kerak.

Nomoddiy motivatsiya tizimi bir qator omillar va elementlardan iborat boʻlib, ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- korporativ ijtimoiy siyosat;
- korporativ madaniyat;

- aloqa;
- raqobat.

Korporativ ijtimoiy siyosat - bu kompaniya xodimining ijtimoiy maqomini oshirishga qaratilgan tadbirlar va dasturlar. Bu holatga quyidagilar kiradi:

- mehnat sharoitlari;
- markali ish kiyimlari;
- korporativ ko'ngilochar tadbirlar.

Korporativ madaniyat - bu tashkilot xodimlarini moddiy to'lovlarisiz rag'batlantirishni ta'minlaydigan va har bir xodimga o'z mehnat funksiyalarini bajarishi uchun qulay muhit yaratishga hissa qo'shadigan hodisa.

Korporativ madaniyatning asosiy elementlari:

- umumiy falsafa va siyosat;
- kompaniya strategiyasi;
- mijozlar, yetkazib beruvchilar, xodimlar bilan munosabatlar;
- korporativ uslub.

Axloq kodeksi - bu kompaniyaning har bir xodimi uni bilishi va bajarishi kerak bo'lgan turli xil odamlar guruhlar bilan xodimlarning munosabatlarini belgilaydigan kompaniyaning rasmiy hujjatidir. Ushbu hujjat eng muhim jihatlar va masalalarni o'z ichiga oladi. Kodeksni buzish, hatto ishdan bo'shatishga olib kelishi mumkin bo'lgan jiddiy huquqbuzarlikdir. Korporativ madaniyat odamlarni birlashtiradi va ularni o'z qonunlari, huquqlari va majburiyatlariga ega bo'lgan yagona jamoaga aylantiradi.

Ko'pgina kompaniyalar iqtisodiy musobaqalar kabi korporativ uslubning elementiga e'tibor berishadi. Musobaqalar xodimlarga raqobatga bo'lgan tabiiy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi va ma'muriyat eng yaxshilarni aniqlashga va ularga minnatdorchilik bildirishga yordam beradi.

Korporativ bayramlar kompaniya oldida turgan maqsad va vazifalarni hisobga olgan holda o'tkazilishi kerak. Bayram har qanday ish masalalarini muhokama qilishga qaratilgan bo'lmasligi kerak, u

norasmiy munosabatlarni yaratishi va dam olish imkoniyatini berishi kerak;

Simvolizm (rassomchilik san'ati) – korporativ madaniyatda katta rol o'ynaydi. G'arb kompaniyalari ramz sifatida yetakchi va eng taniqli xodimlarning fotosuratlaridan tobora ko'proq foydalana boshladilar. Bu korporativ ruhni sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kompaniya madaniyatini shakllantirishning yana bir muhim vositasi bu *muloqotdir*. Yaxshi muloqot bo'lmasa, xodimlarda kompaniya ishlariga aralashish hissi bo'lmaydi. Muloqot ikki tomonlama bo'lishi va fikr-mulohazalarni taqdim etishi kerak. Fikr-mulohazalar xodimlarning so'rovlari, menejerlar bilan muntazam uchrashuvlar va elektron pochta orqali taqdim etilishi mumkin.

Motivatsiyaning universal usullaridan tashqari, tashkilot manfaatlari va xodimning shaxsiy manfaatlari o'rtasidagi munosabatlarni hisobga olish kerak bo'lgan individual shakllardan foydalanish kerak. Moddiy mukofotlar nomoddiy mukofotlardan oldin bo'lishi kerak (faqat asosiy ehtiyojlar qondirilgandan keyin xodim o'zini-o'zi anglash va rivojlantirish haqida o'ylashi mumkin). Jamoaga mansublik eng kuchli motivatorlardan biridir. Bu omil xodimni yangi ish izlashdan qaytarishi va uning samaradorligini oshirish istagini keltirib chiqarishi mumkin.

Motivatsiya omilini oshirish uchun nafaqat xodimlarning o'ziga, balki ularning farzandlariga ham e'tibor berish kerak. Bunday dasturlar katta investitsiyalarni talab qilmaydi. Tantanali mukofot bilan bolalar rasmlari tanlovini tashkil qilish kifoya va ota-onalarning ruhi sezilarli darajada ko'tariladi.

Motivatsiya – bu insonning o'zida paydo bo'ladigan tuyg'u.

7.5. Mehmonxonalardagi individual xizmatlarni rag'batlantirish tizimi

Barcha xizmat ko'rsatish sohalarida (mehmonxonalar, restoranlar, barlar, kafelar) va dunyoning barcha mamlakatlarida individual xizmatlar (choy-chaqalar) keng tarqalgan. Biroq, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga to'lanadigan qo'shimcha ish haqi miqdori davlat

an'analariga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, Yevropada, AQShda va Kanadada individual xizmatlar ko'rsatish qa'tiy qilib belgilab qo'yilgan (masalan, restoranda umumiy hisobning ma'lum bir foizi). Sharq va Osiyo mamlakatlarida individual xizmatlar haqining o'lchamini ijrochining o'zi belgilaydi.

Individual xizmatlar xodimlarni sifatli ish qilishga undash uchun mo'ljallangan, chunki xizmatdan qoniqmagan mehmon hech qachon choy-chaqa qoldirmaydi. Bu nafaqat xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga, balki ish beruvchiga ham foyda keltiradi, shuning uchun xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning faqat bitta ish haqi uchun ishlashi kamdankam uchraydi.

Mehmonxona va restoranlardagi individual xizmatlar hajmi 10 %dan – 25 %gacha bo'lishi mumkin. Bunda mehmonxona va restoranlarda xizmat ko'rsatishda tashrif buyuruvchilarning qanday his-tuyg'ularga ega ekanligi hisobga olinmaydi. Masalan, AQShda individual xizmatlardan tashqari, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga Rojdestvo sovg'alarini berish odatiy hol hisoblanadi. Hisobni to'lashda ikkita asosiy variant mavjud:

- 1) individual xizmatlar shu paytning o'zida hisob-kitob qilinadi;
- 2) individual xizmatlar (choy-chaqalar) hisob-kitobga qo'shilmaydi, balki uning qiymatini mehmonning o'zi belgilaydi.

Shuningdek, Rossiyada ikkinchi usul asosan ustunlik qiladi, chunki u xodimlarni xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga undaydi.

Ushbu yondashuv zanjirsiz restoranlarda samarali hisoblanadi. Ammo, individual xizmatlarning salbiy tomonlari ham bor, chunki ofitsiant faqat o'zi uchun ishlaydi, kompaniyaga o'z daromadi bilan parallel ravishda pul ishlab oladi va standartlarni saqlash va korporativ g'oyalarni ilgari surish haqida qayg'urmaydi. Mehmondan choy-chaqa olayotganda, ofitsiant ularni har qanday yo'l bilan olishi mumkin, bu esa korxona imijiga salbiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, ofitsiant ko'proq individual xizmatlarga umid qilib, badavlat mehmonlarga ko'proq e'tibor berishga harakat qilishi mumkin.

Shuningdek, Rossiyadagi mehmondo'stlik va ovqatlanish korxonalarida o'rtacha choy-chaqa buyurtma miqdorining 10-15% ni

tashkil qiladi. Individual xizmatlar o'lchamiga ko'plab omillar ta'sir qiladi – mijozning kayfiyati, restoranga tashrif buyurish vaqti va boshqalar.

Respublikamizda ham mehmondo'stlik sohasida faoliyat olib borayotgan korxonalarda ham individual xizmatlar qiymatlari mavjud. Bu qiymatlar asosan xizmat ko'rsatish darajasidan kelib chiqib, umumiy summaga nisbatan ma'lum bir foiz qo'shilgan hamda individual hollarda amalga oshiriladi. Masalan, ovqatlanish korxonalaridan – restoran va kafelarda 10 foizdan – 15 foizgacha individual xizmati qo'shib hisoblanadi. Mehmonxonalarda individual xizmatlar xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning o'ziga bog'liq holda amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar: qabul qilish, joylashtirish, muxandislik, xavfsizlik, biznes-markaz, fitnes-markaz, Reception, klerklar, Front office, ko'rsatma, tozalash, tovarlar, boshqaruv strukturasi, Prezident, boshliq, personal, sxema, paj, telefon operatori, ierarxik, liniyalishtabli, turkopmleks xavfsizligi, “Turizm to'g'risida”gi Qonun, ekskursant, menejment, texnikaviy ekspluatatsiyasi, motivatsiya, korporativ madaniyat, Axloq Kodeksi, individual xizmatlar (choy-chaqa).

Nazorat savollar:

1. Mehmonxonalarda asosan qanday servis xizmatlari yo'lga qo'yilgan?
2. Mehmonxonada qabul qilish va joylashtirish servis xizmati qanday olib boriladi?
3. Mehmonxonada xonaning tozaligiga qaysi xo'jaligi javobgar hisoblanadi va ular qanday ishlarni amalga oshiradi?
4. Mehmonxonalarda tozalash necha xil standartda olib boriladi?
5. Mehmonxonada xavfsizlik xizmatining vaziflari nimalardan iborat?
6. Mehmonxona faoliyatini olib borishda tovarlar necha guruhga bo'linadi?
7. Mehmonxonaning boshqaruv strukturasi nimalar kiradi?

8. Mehmonxonada qabul qilish va joylashtirish xizmatida kimlar xizmat ko'rsatadilar?
9. Mehmonxonaning boshqaruv umumiy strukturasi qaysilardan iborat?
10. Turkomplekslardagi xavfsizlik va texnikaviy menejmentlar qanday ishlarni olib boradilar?
11. Mehmonxona boshqaruvidagi motivatsiya va rag'batlantirish qanday tashkil etilishi kerak?
12. Mehmonxonalardagi o'lcham va choy-chaqa deganda nimani tushunasiz?

VIII BOB. MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASIDA XIZMATLAR KLASSIFIKATSIYASI

8.1. Mehmonxonalardagi asosiy xizmatlar

Mehmonxona korxonasining tashkiliy tuzilishi mehmonxonaning vazifasi, joylashishi, mehmonlarning xususiyatlari va boshqa omillar orqali aniqlanadi. U har bir xodimning zimmasiga yuklatilgan vakolat va majburiyatlarni aks ettiradi. Ishchi bu har bir mehmonxonada mavjud bo‘lgan asosiy xizmatlarni aniqlashda katta o‘rin egallaydi, ya’ni:

- nomerlar zahirasini boshqarish;
- administrativ xizmat;
- umumiy ovqatlanish xizmati;
- tijorat xizmati;
- injener (texnik) xizmat;
- yordamchi va qo‘shimcha xizmatlar.

Nomerlar zahirasini boshqarish xizmati nomerlarni bron qilish, mehmonlarni kutib olish, ularni ro‘yxatga olish, nomerlarga joylashtirish va uyga yoki boshqa sayohat marshruti punktiga jo‘natish bilan bog‘liq masalalarni hal qilish, mehmonlarga nomerlarda xizmat ko‘rsatishni ta‘minlash, nomerlarni sanitar-gigienik holatini va qulayligini ta‘minlash hamda mehmonlarga doimiy xizmatlar ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

Xizmat tartibi:

Direktor yoki nomerlarni ekapluatatsiyasi bo‘yicha menejer qabul qilish va joylashtirish xizmati, oqsochlar xizmati (shveysarlar, koridorniylar, garderobuqiklar, garaj xodimlari) porte xizmati, konserj xizmati, xat tashuvchilar xizmati, nomerlarni tozalash bo‘yicha inspektor, xavfsizlik xizmati.

Administrativ xizmat mehmonxona kompleksdagi hamma xizmatlar boshqaruvini tashkil qilish, moliyaviy masalalarni yechish, xodimlar masalalarni hal qilish, mehmonxona xodimlari ishlashi uchun qulay sharoit yaratish va saqlash, mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha

oʻrnatilgan qonun-qoidalarini bajarilishi ustidan nazorat oʻrnatish uchun javobgardir.

Xizmat tarkibi:

Kotibiat, moliyaviy xizmat xodimlari xizmati, ekolog, yongin va texnika xavfsizligi boʻyicha inspektorlar.

Umumiy ovqatlanish xizmatchilari mehmonlarga mehmonxonaning restoran, kafe, barlarda xizmat koʻrsatadi, banketlarni oʻtkazish boʻyicha masalalarni hal qiladi.

Xizmat tarkibi:

Oshxona, restoran, barlar, kafelar, banketning xizmati.

Tijorat xizmati tezkor va strategik rejalashtirish masalalarini hal qiladi. Xoʻjalik va moliyaviy faoliyat natijalarini xal qiladi. Bu xizmat tarkibiga: tijorat direktori, marketing xizmati, injener (texnik) xizmatlar; konditsioner tizimlarini, issiklik bilan taʼminlash tizimlarini, sanitar texnik uskunalarni, elektro-texnik uskunalarni taʼmirlash va nazorat qilish xizmatlarini, televidenie va aloqa tizimlarini ishlashi uchun sharoit yaratadi. Shuningdek, bosh injener, joriy taʼmir xizmati, atrof-muhitni obodonlashtirish xizmati, aloqa xizmatlarini ham oʻz ichiga oladi.

8.2. Mehmonxonalardagi yordamchi xizmatlar

Yordamchi xizmatlar mehmonxona kompleksini ish jarayonini kir yuvish, tikuvchilik, xonalar tozalash xizmati, koʻpaytirish xizmati, ombor xizmatlari va boshqalarni taklif qilish bilan taʼminlaydi. Qoʻshimcha xizmatlarga pullik xizmatlar kiradi. Ularning tarkibiga sataroshxonalar, basseyn, sauna, solyariy, aeroport, sport zallari va boshqalar kiradi.

Menejmentni ideal va yagona modeli mavjud emas. Ikki mijozlar extiyojlarini qondirish uchun qabul qilingan qarorlar aniq belgilangan boshqaruv ierarxiyasiga suyanadi.

Har bir tijorat korxonasi uchun u mehmonxona, restoran, sayyohlik tashkiloti boʻlimidan qatʼiy nazar yagona boʻladi. Faqatgina hamma korxonalar foydalanadigan umumiy qonuniyat va unsurlar mavjud.

Zamonaviy sharoitda boshqaruv tizimi sodda va egiluvchan, raqobatbardosh bo'lishi kerak. U quyidagi ta'riflarga ega bo'lishi kerak:

- boshqaruv darajasining oz miqdordaligi;
- malakali mutahassislar bilan jamlangan kichik bo'limlar;
- mijozlar extiyojlarini qondirishga karatilgan ishlarni tashkil qilish.

Hamma mehmonxonalar aniq menejment ierarxiyasiga ega bo'lib, uning a'zolari o'z mavqeiga qarab aniq o'rin egallaydilar. Ierarxiyaning quyi qismida bevosita ish bilan mashg'ul odamlar joylashgan. Ularga mehmonxonaning ishlab chiqaruvchi xodimlari kiradi.

Ular ustidan ko'p qavatli menejerlar piramidasi boshqaradi.

Menejerlar 3 darajaga bo'linadi:

1. Faqatgina bir gurux xodimlar faoliyati ustidan raxbarlik qiluvchi menejerlar. Ular boshqa menejerlar faoliyatini nazorat qilmaydilar.

2. Boshqa menejerlar faoliyatini boshqaruvchi menejerlar. Ular o'ta muhim masalalarni yechish usullarini topadilar, rejalar to'zishda qatnashadilar.

3. Mehmonxona global maqsadlarini qo'yish, rivojlanish va ichki kiyimatliklar strategiyasini shakllantirish uchun javobgar yuqori zveno (bo'g'im) menejerlari. Ular mehmonxona rahbariyati oldida javobgardirlar.

Mehmonxona kaysi faoliyatdan qat'iy nazar menedjerlar ishida 5 asosiy jarayon mavjud.

Birinchidan, maqsadni belgilaydi va bu maqsadga erishish uchun faoliyati zarur bo'lgan xodimlarga xabar beradi.

Ikkinchidan, menedjer faoliyatini tahlil qilish, maqsadga erishish uchun qarorlar qabul qilishi kabi tashkiliy vazifalarni bajaradi. U muammolarni tashkiliy strukturaga jamlab, ularni yechish uchun xodimlar yigadi.

Uchinchidan, kollektiv bilan har doim aloqani saqlab turadi.

To'rtinchidan, korxona ishlovchi har bir xodimning ishi natijalarni taxlil qiladi, baholaydi va izoxlaydi.

Beshinchidan, xodimlarni shu jumladan o'zining o'sishiga imkon beradi.

Yuqoridagi jarayonlar bir-biri bilan aloqa qilganda menedjer har qanday mehmonxona, sayyohlik korxonasi faoliyatini unumdor, foyda keltiruvchi qilib boshqarishi mumkin.

Shunday qilib, umumiy boshqaruv qarorlarni qabul qilish uchun javobgarlik boshqaruvi yuqori bo'g'imi zimmasida bo'ladi. Bo'limlarga o'ziga xos vazifalarni bajaruvchi bo'g'imlardan iborat bo'ladi. Lekin ular hammasi bitta umumiy maqsad uchun – mijozlar ehtiyojini qondirish uchun faoliyat ko'rsatadilar.

Bo'limlar quyidagilarga:

- maxsus ishlab chiqarishga (korxona yoki oshxona);
- xizmat ko'rsatish (oqsochlar xizmati yoki restoran);
- informatsion xizmat ko'rsatish (bron qilish, porte xizmati) va boshqalarga qaratilgan bo'ladi.

Korxona qancha yirik bo'lsa, shuncha tarmoqlarga bo'lingan boshqaruv strukturasiga egadir. Unga asosiy vazifasiga nazoratdan iborat bo'limlar ham kiradi.

Strategiyaga taalluqli umumiy qarorlar korxona egalari yoki bosh direktor tomonidan qabul qilinadi. Mehmonxonaning strategik maqsadi kurortda xizmat ko'rsatish yoki biznes – sayyohlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish bo'lishi mumkin.

Bosh direktor bir tomondan korxona egalari va boshqaruv xodimlari o'rtasida, ikkinchi tomondan korxona mehmonxonalari o'rtasida vositachidir. Bu vazifani umumiy masalalarni aniq boshqaruv qarorlarni o'tkazish deb ta'riflash mumkin.

Bundan tashqari, bosh direktor zimmasiga korxonaning faoliyatining umumiy yo'nalishlari, shu jumladan moliyaviy siyosat o'tkazish bo'yicha masalalarni yechish yuklatiladi. Moliyaviy siyosat bu – xodimlar uchun ketadigan harajatlarni limitini aniqlash, administrativ va xo'jalik sotib olish siyosati masalalarni xal etish.

Porte xizmati mehmonxona nomer zahirasi ustidan nomerlarning bandligi va bo'sh joylar bo'yicha kartoteka tuzib nazorat qiladi va

axborot markazi vazifasini bajaradi. Porte xizmatidan axborot ikki yoʻnalish boʻyicha ketadi:

1. Mehmonxonalarda xizmat koʻrsatish turlari, shahar transporti haqida maʼlumot;

2. Mehmonxona boʻlimlariga mijozlarning ehtiyojlari haqida;

Oksochlar xizmatini boshqaruvchi shaxs yashash va xizmat xonalarining tozaligi va tartibiga javob beradi.

Bosh oksoch vazifani olib oʻz kul ostidagilarga topshiradi, shu bilan birga u ijrochi direktor topshirgan administrativ vazifalarni ham bajaradi.

Xavfsizlik xizmati mehmonxonadagi tartib va xavfsizlikni taʼminlaydi. Chunki mehmonxona oʻz mijozlarning xavfsizligi uchun javobgar. Bunda mehmonxona oʻz xavfsizlik xizmatidan foydalanish mumkin. Moliyaviy xizmat mehmonxonaning moliyaviy taʼminlanishi masalalarni hal qiladi. Har bir savdo nuqtasidagi kassirlardan, ovqatlanish xizmatlaridan, porte xizmatlaridan, suvenir kiosklaridan, sport komplekslaridan hisobot oladi. Moliyaviy xizmat yagona moliyaviy hisob yuritadilar, yaʼni savdo nuqtalaridan olingan daromad, foyda va zararlar hisobi, ish vaqtiga hak toʻlanadigan hisob-kitob operatsiyalarini yuritish, toʻlanadigan bonuslar hamda xodimlar xizmati boʻyicha xodimlarni tanlash, ularni joylashtirish, razryadini koʻtarish va malakasini oshirish boʻyicha vazifalarni hal qiladi. Bu xizmat zimmasiga yana mehmonxona xodimlarining har biriga shaxsiy hujjatlarni rasmiylashtirib borish yuklatiladi.

Kotibiat mehmonxona kompleksini xujjatlar va axborot bilan taʼminlaydi. Umumiy ovqatlanish boʻlimlari oʻz ichiga restoran, kafe, bar, banket va konferensiyalar oʻtkazish zonalari, oshxonani oladi va mehmonxonalarni ovqatlantirish boʻyicha xizmat koʻrsatadi. Ovqatlanish xizmati raxbari menyu tuzadi, ishlatiladigan kerakli mahsulotlar bilan taʼminlaydi, xizmat koʻrsatuvchi xodimlarni joylari boʻyicha taqsimlaydi, tayyor mahsulot va xizmatlar sifatini nazorat qiladi.

Xizmatdan har bir boʻlim oʻz raxbariga va nomerlarda xizmat koʻrsatish boʻyicha menejerlarga ega.

Restoran menyuga ko'ra mijozlarga xizmat ko'rsatadi. Bunda bevosita mijozlar bilan muloqotda bo'luvchi metrdotel va ofitsiantlarning malakasi katta rol uynaydi.

Bufet yoki barda faqat mijozlarni spirtli ichimliklar bilan ta'minlash orqali chiqadi, shuningdek barlarda restoranda is'emol qilinadigan ichimliklar tayyorlanish mumkin. Bunda bar «Service bar» deyiladi. Oshxonalarda restoran ofitsiantlaridan (mijozlar taklifiga ko'ra) hamda buyurtma bo'yicha ishlaydigan banket zalidan buyurtmalar to'shadi. Oshpazlar zarur taomlarni pishiradilar bu bo'lim raxbarlarning vazifasi taomlarning bahosi va sifatini nazorat qilishdan iborat.

Tijorat xisobiga tijorat direktor raxbarlik qilib, u shu bo'limning ishi va banketlarida xizmat ko'rsatish ustidan nazorat o'tkazadi.

Tijorat bo'limi (marketing bo'limi) vakillar kongress tadbirlarning (simpozium yigilishi, prezentatsiya, festeval va boshqalar) tashkilotchilar bilan muloqotni yo'lga qo'yish, mehmonxona nomerlar zaxirasidan istiqbolli foydalanish uchun muzokaralar o'tkazish, xonalarida majilislarni o'tkazish, uchun moslashtirish masalalarni xal qilish, alohida gurux mijozlar ehtiyojlarni o'rganish hamda boshqa bo'limlar bilan muloqotda bo'lishi bilan shug'ullanadilar.

Nomerlar zaxirasi xizmati bilan joriy ta'mirlash xizmati doimiy muloqotda bo'ladi. Bu xizmat nafaqat nomerlar zaxirasini va undagi asbob-uskunalarni balki butun mehmonxonani ta'mirlaydilar.

8.3. Mehmondo'stlik industriyasida xodimlarga qo'yiladigan talablar

Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatuvchi xodimlarga qo'yiladigan talabalarni shartli ravishda 4 guruxga bo'lish mumkin.

1. Malaka, ixtisoslik (mehmonxonalardagi hamma darajalar uchun).

1.1. Hamma xizmat ko'rsatuvchi xodimlar professional tayyorgarlikdan o'tishlari zarur. Tayyorgarlik darajasi ular ko'rsatayotgan xizmatlarga mos bo'lishi kerak. Bir xodim mehmonxonada yashovchilarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha

tayyorgarlik ko‘rishi boshqa xodim ularni umumiy ovqatlantirish xavfsizligi sohasida malakaga ega bo‘lishi kerak.

1.2. Chet tillarni bilish.

1 *yulduzli* darajadagi mehmonxonalarda qabul qilish va joylashtirish xizmati xodimlari bitta chet tilini bilishlari kifoya.

2 *yulduzli* darajadagi mehmonxonalarda ham talab shunday.

3 *yulduzli* darajadagi mehmonxonalarda hamma xodimlar 2 ta chet tilini yoki shu xududga keluvchi mijozlar ko‘proq gaplashadigan tillarini yetarli darajada bilishlari lozim.

4 *yulduzli* darajadagi mehmonxonalarda ham xuddi shunday talablar qo‘yiladi lekin tillarni yanada yuqori darajada bo‘lishi kerak.

5 *yulduzli* darajadagi mehmonxonalarda hamma xodimlar nomida 3 ta chet tilini bilishi va mijozlar bilan erkin gaplasha olishlari kerak.

2. Axloq, xulq-atvor.

Hamma darajadagi mehmonxona xodimlari mehmonxonada mehmondo‘stlik sharoit yaratishni bilishi, mijozning har bir iltimosni hayrixoxlik bilan bajarishga tayyor bo‘lishi, yashovchilar bilan muloqotda vazmin va sabr-toqatli bo‘lishlari zarur.

3. Meditsina (tibbiy) talablar.

Hamma darajadagi mehmonxonalarning xodimlari vaqti – vaqti bilan tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari va bu xaqida tegishli sertifikat olishlari kerak.

4. Uniforma.

Hamma darajadagi mehmonxonalarning mijozlar bilan muloqotda bo‘luvchi xodimlari har doim formal kiyim kiyishlari kerak. Formal kiyim doimo toza va yaxshi ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Formal kiyim bilan birga har bir xodim o‘z ismi, familiyasi yozilgan shaxsiy znachok taqib yurishi kerak.

Hamma mehmonxona komplekslarida xodimlarning dam olishi va ovqatlanishi uchun alohida sharoitlar yaratilgan bo‘lishi kerak. Bu sharoitlarning hajmi xodimlar miqdoriga mos kelishi kerak.

Mehmonxona kompleksiga xizmat ko‘rsatuvchi, ovqatlantirish korxonalarining xodimlariga qo‘yiladigan umumiy talablar.

1. Tovar, ofitsiant va metrdotel malaka tekshiruvlar va testlar natijalariga ko‘ra konkurs asosida qabul qilinadi.

2. Metrdotel, ofitsiantlar, borish bittadan kam bo‘lmagan yevropa tillarini bilishlari kerak. Guruxga har xil tillarni biluvchi ofitsiantlar ham kushiladi.

3. Muntazam ravishda 5 yilda 1 marta ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, administrativ, boshqaruv, texnik xizmati xodimlari malaka darajasini tekshirish natijasida kayta attestatsiyadan o‘tkaziladi.

4. Har 3 yilda sayyohlik korxonasining xodimlarini malakani oshirish kurslarida maxsus dastur bo‘yicha qayta professional tayyorgarlikda o‘tkazilishi zarur.

5. Hamma xodimlar formali, maxsus yoki sanitar kiyim va poyafzal kiyib yurishlari kerak. Kiyim shu korxonada o‘rnatilgan muomila bo‘yicha, toza va yaxshi xolatda bo‘lishi kerak.

6. Hamma ovqatlanish, xurmatdagi sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar formali kiyim bilan birga mehmonxona belgisi, xodimning manbasi, familiyasi va ismi yozilgan znachok takib yurish kerak.

7. Metrdotelning kiyim boshqalardan rasmiy bezagi bilan ajralib turadi. Farq yoki smoking kiygan bo‘lishi ham mumkin.

8. Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarning tashqi ko‘rinishi tartibli, ozoda bo‘lishi kerak.

9. Mehmonxonalarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar ularga nisbatan odobli, e‘tiborli va sermulozamatli bo‘lishi kerak.

10. Xodimlar ish joylarida boshqa ishlar bilan shug‘ullanishlari mumkin emas.

11. Oshxona, texnik xizmat va yordamchi xizmat xodimi mijozlarning xonalarida sanitar va maxsus kiyimda ko‘rinmasliklari kerak, agar bevosita vazifalarni bajarmayotgan bo‘lsalar.

Nizom xodisa yuz berganda xodim darxol navbatdagi administratorchi, metrdotelni yoki korxona direktorini chaqirishi lozim.

Qanchalik qiziq bo‘lmasin, lekin ko‘pchilik uchun butun tatilni magazinlarida harid qilib o‘tkazish uchun safarga chiqish oddiy xoldir. Xodimlar u yoki bu mamlakatga qilingan tashrifini eslatib turadi. Har

bir mamlakat u yoki bu narsani ishlab chiqarishi bilan ajralib turadi. Shotlandiya – aviatorlar, Meksika – sombrero (shlyapa), Irlandiya – odelo (kiyinish), Fransiya – duxi.

«Daydilik» bu holda – sarguzashtlar inson zoti instinktlar ishtiyoqi o‘tirmasdan, uni bir joyda yegiliklarni qidirishga undaydi. Ilgari ko‘p safar qilish jamiyat tomonidan rag‘batlantirmasdi. Lekin yevropalik aholi bundan mustasno. G‘arbiy nemislar Avstraliyaga tashrif buyurivchilarning 86% ini tashkil qiladi. Ular yana Yugoslaviya, Italiya va Ispaniyaga ham tez – tez sayyohat qiladilar.

Amerikaliklar asosan ta’lim dasturlari bo‘yicha sayyohat qilishni xush ko‘radilar. Uning Rim, Amsterdam «Parijni afzal ko‘radilar». Lekin sayyohlarning ham ko‘payishi kutilmoqda.

Salomatlikni yaxshilash uchun sayyohatchilar, insonlar salomatligini yaxshilash va hayotni uzaytirish maqsadida suv zaxiralari mavjud kurortlariga, dengiz bo‘yicha sayyohat qiladilar. Ko‘p mehmonxonalar ham o‘z xizmatlar tarkibiga balchikli va mineral vannalar quyilgan. Bilim olish uchun sayyohat qilish, sayyohatlar insonga yangi bilimlarga ega bo‘lish istagini kolirishga imkon beradi. Yevropada dam oluvchi amerikaliklarning ko‘p qismini maktab ukituvchilari tashkil qiladi. Talablar yolgiz o‘zlari ya’ni univesitet xomiylik qiladigan guruxlar bilan yevropa bo‘ylab sayyohat qiladilar.

Amerikaliklarni Yevropa doimo o‘ziga jalb qilgan. Ular har birining avlodi yevropadan yangi yer izlab va din erkinligi maqsadida amalga oshib utgan deb uylaydi. Ispaniyada sayyohlar korridada qatnashishlari Fransiyada inkodromlarda pul sarflaydilar.

Azart uchun sayyohat qilish azart o‘yinlariga qiziqishni tavakkal qilishga intilishi har qanday madaniyatda u xox oddiy xox murakkab bulsin uchratish mumkin. Ko‘pchilik uchun tavakkal qilish xuddi narkotikka bog‘langandek ishkiboz bo‘ladilar.

Xulosa qilib aytish kerakki, salomatlikni yaxshilash uchun sayohat, insonlar salomatligini yaxshilash va hayotini uzaytirish maqsadida suv zvxiralari mavjud kurortlarga, dengiz bo‘yicha sayohat qiladilar. Ko‘p mehmonlar ham o‘z xizmatlar tarkibiga balchikli va mineral vannalar quyilgan. Bilim olish uchun sayohat qilish, sayohatlar

insonga yangi bilimlarga ega bo'lish istagini qoldirishga imkon beradi. Yevropa dam oluvchi amerikaliklarning ko'p qismini maktab ukituvchilari tashkil qiladi. Talabalar yolgiz o'zlari ya'ni univesitet xomiylik qiladigan guruxlar bilan yevropa bo'ylab sayohat qiladilar.

Tayanch iboralar:

Mehmonxona xizmati, xizmat tarkibi, administrativ, oshxona, restoran, barlar, kafelar, yordamchi xizmatlar, mehmonxona kompleksi, basseyn, sauna, aeroport, sport zallari, maxsus kiyim, til bilish, uniforma, kadrlar, kadrlar salohiyati, talablar.

Nazorat savollar:

1. Mehmonxonalarda qanday asosiy xizmatlar bo'lishi kerak?
2. Mehmonxonalarda qanday yordamchi xizmatlar bo'lishi kerak?
3. Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish turlari qanday?
4. Ovqatlantirishi korxonalarning xodimlariga qo'yiladigan talablar?
5. Porte xizmatidan axborot qanday yo'nalishlar bo'yicha ketadi?
6. Mehmonxonadagi xodimlarning faoliyatidan qat'iy nazar menedjerlar ishida qanday asosiy jarayonlar mavjud?
7. Uniforma kiyib yurishning zarurligi nimada?

IX BOB. XIZMAT ETIKETI

9.1. Korporativ madaniyat

Har qanday turistik mahsulotning asosiy xususiyati uni yaratishda odamlarning ishtiroki bo‘lib, uning o‘ziga xosligi va bir xilligiga ta’sir qiladi.

Mijozlarga xizmat ko‘rsatishning yuqori standartlari mehmonxona boshqaruvi uchun eng muhim vazifadir, chunki bir necha yil oldin ustuvorliklar biroz boshqacha edi (masalan, ishlab chiqarishni operativ boshqarish). Xizmat ko‘rsatish bozorida o‘z imiji va raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun korxona yangi yondashuvlarni ishlab chiqishi va boshqa maqsadlarni qo‘yishi kerak, chunki mehmonxona korxonasining muvaffaqiyati bevosita mehmonxona imidji bilan bog‘liq.

Mehmondo‘stlik industriyasida “korporativ imij” degan narsa bor.

Korporativ imij - bu mehmonxona korxonasini tashrif buyurgan mehmonlarga taqdim etish. Imij – inglizcha so‘z bo‘lib, “tasvir”, “obraz”, “timsol” ma’nolarini anglatadi. Imij – bu biror narsa, hodisa yoki inson haqida jamoa tafakkurida sun’iy ravishda shakllantiriladigan obraz bo‘lib, uning maqsadi jamoa ongiga psixologik va empirik ta’sir o‘tkazish hamda maqsadli ravishda ma’lum obrazni yaratishdan iboratdir. Shu boisdan har qanday korxona yangi mehmonlar va hamkorlarni jalb qilish, bozorda raqobatbardoshlik darajasini oshirish, sotishni tezlashtirish va ularning hajmini oshirish uchun ijobiy imijga intiladi. Imij - bu mehmonxona korxonasining strategik maqsad va vazifalariga erishishning o‘ziga xos vositasidir. Ammo, imijni saqlab qolish qiyin, chunki u maqsadli, tizimli ishni talab qiladi.

Mehmondo‘stlik industriyasidagi xodimlar korxonaning raqobatbardoshligini ta’minlashning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi, shuning uchun xizmat ko‘rsatish sifati xodimlarning samimiyligi va mahoratiga bog‘liq. Mijozning istak va ehtiyojlarini so‘zsiz qondirish ham muvaffaqiyat kalitidir. Odamlarni to‘g‘ri boshqarish mehmondo‘stlik tashkilotlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Mehmonxona korxonasi faoliyatining haqiqiy jarayonlarini tushunish uchun korporativ madaniyatni qo'llash kerak.

Bundan tashqari, mehmondo'stlik industriyasida **ovqatlanish korxonalarining ham korporativ imiji** alohida o'ringa ega. Asosan restoranlardagi korporativ imijga alohida e'tibor qaratiladi.

Restoran imiji. Korporativ qadriyatlarning ma'lum bir tizimining mavjudligi tashrif buyuruvchilar va butun jamiyatning ushbu restoranga ijobiy munosabatini ta'minlaydi. Bu haqdagi tegishli ma'lumotlar ommaviy axborot vositalari, mijozlar va biznes hamkorlar, aksiyadorlar orqali tarqatiladi. Bu savdoning o'sishiga va restoranning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi, bu esa uning iqtisodiy ko'rsatkichlarining oshishiga bevosita ta'sir qiladi.

Boshqacha qilib aytganda, umumiy ahamiyatli korporativ qadriyatlarning mavjudligi tashrif buyuruvchilar va biznes hamkorlar nazarida restoranning qulay imijini (uning obro'si, jamoatchilik fikrini) shakllantiradi. Uning muvaffaqiyati va rivojlanishi ularning restoranga bo'lgan sub'ektiv munosabatiga bog'liq bo'ladi.

Ijobiy imij – restoranning obro'sini shakllantirish va saqlash bo'yicha tizimli ishlar orqali jamoatchilik bilan aloqalar (jamoatchilik) sohasidagi sa'y-harakatlar orqali yaratiladi. Bu jarayon nafaqat ommaviy axborot vositalarida reklama orqali, balki restoran xodimlari va tashrif buyuruvchilar va biznes hamkorlar o'rtasidagi bevosita muloqot orqali ham amalga oshiriladi.

Imijni ham restoranga tashrif buyuruvchilarning ishonch omili, ham uning gullab-yashnashi omili sifatida qarash mumkin. Mehmonga kamida bir marta sifatsiz taomdan tatib ko'rishi yoki xodimning axloqsiz xatti-harakatlariga duch kelishining o'zi kifoya va uning ko'zida bu restoranning obro'si keskin tushib ketadi. Natijada, u ham, uning yaqin atrofi ham restoranga tashrif buyuruvchilar sonidan chiqib ketishadi.

Restoranning imiji nafaqat taomlar sifatiga, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasiga, e'lon qilingan korporativ qadriyatlarga, balki jamiyat manfaatlariga mos keladigan va u tomonidan baholanadigan faoliyat shakllarining mavjudligiga ham bog'liq. Shu sababli, ijobiy

sifatida restoran korporativ madaniyatining eng muhim tarkibiy qismi uning ijtimoiy foydali faoliyati (xayriya, homiylik) bo'lishi kerak.

Restoran imijini oshirish har bir korxonadagi rahbar va xodimlariga bog'liq bo'ladi.

Shuningdek, Mehmondo'stlik nazariyasida "korporativ madaniyat" tushunchasi bilan bir qatorda "inson resurslari", "tashkiliy xulq-atvor", "xodimlarni boshqarish", "ish madaniyati", "kompaniyaning ichki madaniyati", "kadrlar siyosati" kabi atamalar ham qo'llaniladi

Yaqin yillarda "korporativ madaniyat" iborasi deyarli hech kimga noma'lum edi, ammo u mavjud edi va uning elementlari G'arbda keng tarqalgan edi.

Hozirgi vaqtda **"korporativ madaniyat"** tushunchasi bir nechta ma'no va shakllarga ega. Korporativ madaniyat tashkilot a'zolari o'z faoliyatida foydalanadigan g'oyalar, munosabatlar va asosiy qadriyatlarni ifodalaydi. Korporativ madaniyat xodimlarning o'zini tutish uslubi, uslubi va mijozlar bilan muloqotini, shuningdek, xodimlarning faoliyatini belgilaydi. Shu sababli, korporativ madaniyatni forma kabi ma'lum xususiyatlar to'plami deb hisoblash noto'g'ri hisoblanadi.

Korporativ madaniyat – bu korxona tomonidan qabul qilingan qadriyatlar, g'oyalar, normalar va qoidalar to'plami.

Korporativ madaniyatni korxonaning barcha xodimlari tomonidan baham ko'rilgan ishonch, mehmondo'stlik, intilishlar va qadriyatlar darajasi sifatida ham aniqlash mumkin. Bu madaniyat o'zgarishi mumkin (masalan, tashqi boshqaruv yoki korxona ichidagi norasmiy guruhlar ta'siri ostida).

Korporativ madaniyat o'tgan asrga borib taqaladi. Korporativ madaniyatning asoschisi nemis general-feldmarshali Xelmut fon Moltke edi. U armiyani funksional yo'nalishlar bo'yicha bo'lish tamoyilini qo'llagan, so'ngra esa bu tamoyil industriyaga kiritildi. Keyinchalik ajratish prinsipi bo'yicha ixtisoslashgan korxonalar tashkil etildi. Shunday qilib, korporativ madaniyat asoslari paydo bo'ldi.

Tashkilot yoki korxonani yanada samarali boshqarish uchun *vertikal mehnat taqsimoti* zarur. Vertikal tizimning asosiy xususiyati har bir darajadagi shaxslarning bo'ysunishidir. Boshqaruvning eng yuqori darajasidagi shaxslar turli funksional sohalarga rahbarlik qiluvchi bir nechta o'rta darajadagi vakillarni boshqarishi mumkin. Boshqaruv sohasi *tor va kengga doiralarga* bo'linadi. Bu bo'linish bo'ysunuvchilar soniga bog'liq. Nazoratning tor doirasi – ko'p darajali tuzilmani qamrab oladi. Boshqarishning keng doirasi – gorizontal boshqaruv tuzilmasi bilan tavsiflanadi.

Tashkilotni to'g'ri muvofiqlashtirish uchun uning har qanday bo'linmasining maqsad va vazifalarini rejalashtirish kerak. Tashkilot menejerlari xodimlarning ishini nazorat qilishlari va ish sifatini yaxshilash bo'yicha qarorlar qabul qilishlari kerak.

Xodimlar tomonidan ishni bajarishda muhim yo'nalish – bu vazifalarni shakllantirish. Tushuntirish lug'atiga ko'ra, vazifa - bu ma'lum vaqt oralig'ida bajarilishi kerak bo'lgan buyruq, ish (odatda qiyin yoki murakkab) ma'nolarini bildiradi. Agar texnik nuqtai nazardan tahlil qilinsa, vazifani xodimning o'zi emas, balki uning "lavozimi" bilan bajarishi kerak.

Har bir bo'limda xodimlar tomonidan bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar mavjud. Menejer xodimlardan o'z ishlarini o'z vaqtida bajarishni talab qiladi, chunki bu, o'z navbatida, tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashiga ta'sir qiladi. Vazifalar bir necha turlarga bo'linadi:

- 1) odamlar bilan ishlash;
- 2) ob'ektlar bilan ishlash;
- 3) axborot bilan ishlash.

Mehmondo'stlik industriyasida yuqoridagi vazifalar turli xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Har bir mutaxassis lavozim tavsiflarida belgilangan majburiyatlarni bajaradi.

Xodimlar – har qanday tashkilotning tayanchidir. Ular tashkilotning yuzini shakllantiradi, uning mahsulotini yaratadi, madaniyatini, imijini shakllantiradi va brendni rivojlantiradi.

Menejerning vazifalariga – xodimlarni shakllantirish, xodimlar o'rtasidagi munosabatlar tizimini o'rnatish, shu jumladan ularni jamoaviy ishning ijodiy jarayoniga kiritish va ularning rivojlanishi, o'qitilishi va martaba ko'tarilishida yordam berish kiradi.

Tashkilotda ishlaydigan xodimlar ko'p jihatdan farqlanadi, masalan, jinsi, yoshi, ma'lumoti, millati, oilaviy ahvoli va boshqalar. Bu parametrlarning barchasi xodimning ishlashi va xatti-harakatiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu boshqa xodimlarning ishiga ham ta'sir qiladi. Shunga ko'ra, menejer ishni shunday tashkil qilishi kerakki, u xodimning faoliyatida ijobiy natijalarga erishishga yordam

beradi va ish jarayoniga aralashmaydi. Inson faqat sog‘lom mehnat muhitida normal mehnat unumdorligiga ega bo‘lishi mumkin. Menejmentning vazifasi tashkilot faoliyati davomida ushbu shart-sharoitlarni yaratishdir.

Korxona yoki tashkilotning ichki muhiti turli faoliyat, quyi tizimlar, tizimlar va jarayonlardan iborat. Barcha jarayonlar va kichik jarayonlar tashkilot turiga, uning hajmiga va amalga oshirilgan faoliyatga qarab sodir bo‘ladi: ba’zi jarayonlar va harakatlar unda asosiy o‘rinni egallashi mumkin, boshqa tashkilotlarda keng tarqalgan, boshqalari esa yo‘qligi yoki amalga oshirilishi mumkin. Tashkilot yoki korxona faoliyatini beshta funksional jarayonga bo‘lish mumkin:

- 1) ishlab chiqarish;
- 2) marketing;
- 3) moliya;
- 4) xodimlar bilan ishlash;
- 5) buxgalteriya hisobi (xo‘jalik faoliyatini hisobga olish va tahlil qilish).

Tashkilotning tashqi muhiti. Tashqi xususiyatlar har doim ichki omillarga qaraganda kamroq e‘tiborga olinadi. Hozirgi vaqtda tashqi muhit ichki muhit kabi diqqat bilan o‘rganilmoqda. Menejer ham ichki, ham tashqi muhit holatini bilishi, uning o‘zgarishlariga javob bera olishi, xoh u raqobatchilarning harakatlari, xoh konsepsiyalarning o‘zgarishi va hokazo. Ichki o‘zgaruvchining o‘zgarishi tashqi omillarning o‘zgarishiga olib keladi.

Agar tashkilot javob berishga majbur bo‘lgan tashqi omillar soni haqida gapiradigan bo‘lsak, bularga davlatning iqtisodiy siyosati, manfaaddor ta’sir guruhlari, kasaba uyushmalari bilan shartnomalarni qayta ko‘rib chiqish, ko‘plab raqobatchilar, texnologik o‘zgarishlar, yetkazib beruvchilarning ishi va hokazo tashqi muhit omillari o‘zaro bog‘liqdir.

Tashqi muhit doimiy o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi. Tadqiqotchilar zamonaviy tashkilotlarning muhiti juda tez o‘zgarib borayotganini tasdiqlaydilar. Bu shuningdek, tashqi muhitning

harakatchanligi tashkilot va bo'linmaning faoliyat turiga bog'liq bo'lishi mumkin.

Tashkiliy bo'linmalar o'zlarining ichki o'zgaruvchilari bo'yicha samarali qarorlar qabul qilish uchun turli xil ma'lumotlardan foydalanishlari kerak. Bu qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi.

Ichki o'zgaruvchilar – bu tashkilot ichida joylashgan, boshqarilishi va tartibga solinishi mumkin bo'lgan omillar. Ichki o'zgaruvchilarga maqsadlar, tuzilma, vazifalar va odamlar kiradi. Barcha ichki o'zgaruvchilar o'zaro bog'liqdir. Ular odatda ijtimoiy quyi tizimlar sifatida birgalikda ko'rib chiqiladi. Bir o'zgaruvchini o'zgartirish boshqalarga ta'sir qilishi mumkin. Biroq, menejment kabi bir o'zgaruvchining yaxshilanishi, agar bu o'zgarishlar boshqa o'zgaruvchiga, masalan, odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatsa, raqobatbardoshlikni oshirishga olib kelmaydi.

Ko'p narsa ichki o'zgaruvchilarga, shu jumladan tashkilotning ichki farovonligiga bog'liq va ularning to'g'ri o'zaro ta'siri tashkilotning umumiy maqsadlariga erishishga yordam beradi. Tashkilotning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning tashqi va ichki muhitiga bog'liq bo'lib, ularsiz har qanday tashkilotning davomiyligi bir xilda ketmaydi. Menejer tashqi omillarni hisobga olishi kerak. To'g'ridan-to'g'ri ta'sir muhiti tashkilotga darhol ta'sir qiladi, qolgan barcha omillar esa bilvosita ta'sir qiladi.

Ta'kidlash joizki, tashqi va ichki omillarning kombinatsiyasi tashkilot faoliyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Barcha o'zgaruvchilar bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biriga ta'sir qiladi. Rahbar va menejer bu omillarning barchasini birgalikda tahlil qilib, to'g'ri qaror qabul qila olishi kerak.

11.3. Mehmondo'stlik industriyasi korxonalarini boshqarish tuzilmasi

Menejmentda korxona boshqaruvining tashkiliy tuzilishi va shakli katta ahamiyatga ega. Ushbu tuzilma tufayli boshqaruv jarayoni amalga oshiriladi, boshqaruv qarorlari qabul qilinadi, boshqaruv o'rtasida ma'lumot almashiladi, xodimlarning o'zaro hamkorligi ta'minlanadi.

Har bir shtatda turizmni boshqarish bo'yicha maxsus organlar – milliy turizm ma'muriyatlari (NTA) tuziladi. Bu organlar davlatning turizm siyosatini amalga oshirishni ta'minlash vazifasini bajaradi.

Bu organlar barcha darajadagi davlat hokimiyatining ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi organlari bilan doimiy va yaqin aloqada bo'ladi. Shuningdek, ular ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, turistik markazlar, uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi.

Biroq, turizm siyosatini shakllantirish va amalga oshirishning asosiy bo'g'ini NTA bo'lib, uning sa'y-harakatlari (boshqa davlat organlariga ta'sir darajasi, qonunchilik, soliq, moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi tashabbuslar) davlatning turizm siyosatiga bog'liq holda muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Bir qator siyosiy va iqtisodiy omillar tufayli jahon amaliyotida turizmni tashkil etish, boshqarish va tartibga solishning turli milliy tizimlari mavjud. Muayyan darajadagi konvensiya bilan biz davlat turizmini boshqarishning uchta modeli haqida gapirishimiz mumkin.

Tashkilotning barcha asosiy jarayonlari tashkilotni boshqarish shakliga va uning tashkiliy tuzilishiga bog'liq. Tashkilotning normal ishlashi uchun boshqaruvning o'z vaqtida sifati va samaradorligini ta'minlash kerak. Aynan shu sabablarga ko'ra turizm tashkilotlari rahbarlari va menejerlari ushbu masalalarning ahamiyatini yuqori baholaydilar.

Hozirgi vaqtda mehmondo'stlik industriyasida mehmonxona va ovqatlanish korxonalari tashkiliy o'zgarishlarni maqsadli ravishda amalga oshirishlari, optimal tashkiliy tuzilma va korxonalar boshqaruvi shaklini tanlashlari kerak. Bu ehtiyoj ushbu sohadagi yuqori raqobat, shuningdek, doimiy o'zgarib turadigan iqtisodiy sharoit va iste'molchilar ehtiyojlari bilan bog'liq.

Tashkiliy tuzilma – bu tashkilotning boshqaruv bo'linmalari va lavozimlarining tarkibi, munosabatlari va bo'ysunishi tushuniladi. Uning mohiyati, yuqorida aytib o'tilganidek, mehmonxona va ovqatlanish korxonasi xodimlari o'rtasida huquq va majburiyatlarni to'g'ri taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Tashkiliy tuzilmaning asosiy yo'nalishlari qatoriga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnat taqsimoti;
- 2) xodimning vazifalari va majburiyatlarini belgilash;
- 3) lavozimlar va munosabatlarni belgilash.

Har qanday korxonaning asosiy vazifasi boshqaruv va xodimlarning quyi bo'g'inlari o'rtasidagi aloqani ifodalovchi munosabatlar va vakolatlarni o'rnatishdan iborat. Bu munosabatlar vakolatlar berish yo'li bilan o'rnatiladi, ya'ni vakolat va majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan va amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxsga o'tkazish demakdir. Maqsadlarga erishish va samarali ishlash uchun menejment natijalarni samarali bo'lishi uchun mas'uliyatni taqsimlashi kerak. Ammo, agar vazifalar topshirilmagan bo'lsa, bu menejer ularni o'zi va to'liq bajarishi kerakligini anglatadi.

Tashkiliy madaniyatga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- 1) korxona faoliyatining mazmunini yetkazish va boshqaruv aloqalarining funksional ratsionalligini ta'minlash qobiliyati;
- 2) turli xil kutilmagan vaziyatlarga, shu jumladan stressli vaziyatlarga moslashuvchanlik va moslashish qobiliyati;
- 3) birliklar sonini va xodimlar sonini minimallashtirish;
- 4) xodimlarning yuqori darajadagi professionalligi.

Tashkiliy tuzilma yuqoridan pastgacha lavozimlar bo'yicha quyidagilarni amalga oshirilishi loyihalashtiriladi:

- 1) butun tashkilotni tashkilotning faoliyat sohalariga mos kelishi kerak bo'lgan funksional bloklarga bo'lish;
- 2) turli pozitsiyalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatish;
- 3) buyruqlar to'plamini o'rnatish (bo'linmalar samarali ishlashi uchun kichikroq bo'linmalarga bo'lish);
- 4) asosiy mehnat majburiyatlarini belgilash va ularni amalga oshirishni ma'lum bir doiradagi shaxslarga topshirish.

Tashkiliy tuzilmani ishlab chiqishda mehmondo'stlik industriyasidagi har qanday kompaniya quyidagilardan foydalanadi:

- 1) ishning ixtisoslashuvi;

- 2) bo‘limlarga bo‘linish;
- 3) vakolatlarni belgilash;
- 4) boshqaruv funksiyalarining hajmi;
- 5) muvofiqlashtirish usullari.

Ixtisoslashuv yordamida vazifalarni ishchilar o‘rtasida taqsimlash maqsadi to‘g‘risidagi masala hal qilinadi. Ko‘nikmasi yetarli bo‘lmagan mutaxassislarga shu faoliyat olib borayotgan barcha xodimlar javobgar hisoblanadi.

Tashkiliy tuzilma korxona xodimlarining maqsadli topshiriqlari va funksional majburiyatlari asosida ishlab chiqiladi.

Maqsadli topshiriqlariga quyidagilar kiradi:


- 1) mehmonlarni qabul qilish va joylashtirish;
- 2) oziq-ovqat ishlab chiqarish;
- 3) xonalarni sotish va bron qilish;
- 4) marketing;
- 5) biznes uchrashuvlari va konferensiyalarni tashkil etish.

Funksional majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- 1) xavfsizlikni ta‘minlash;
- 2) muhandislik yordami;
- 3) buxgalteriya hisobi;
- 4) boshqaruv faoliyati.

Mehmonxonalar yoki otellarda liniya menejerlari mavjud, ular xonalarga taomlar va ichimliklar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadilar.


Tashkiliy tuzilmani ishlab chiqishda boshqaruv ierarxiyasidagi darajalar soni katta ahamiyatga ega. “Rahbariyat vertikalini” tarkibi 11.1-rasmda keltirilgan.



11.1-rasm. Boshqaruvning vertikal tarkibiy qismlari.

11.1-rasmda ko'rsatilgan tuzilma orqali tashkilotning har bir xodimi unda qaysi joyni egallashini bilishi kerak. Bunday tashkilotni samarali boshqarish xodimlar o'rtasida mas'uliyatni aniq taqsimlashni talab qiladi.

Boshqaruv va tashkilotning boshqa tuzilmalari o'rtasidagi vertikal munosabatlar ham muhim ahamiyatga ega (11.2-rasm).



11.2-rasm. Rahbariyatning tarkibiy qismlari.

11.2-rasmda rahbariyatning tarkibiy qismlari keltirilgan. Ya'ni, rahbar, unga bo'ysinuvchi funksional tarkib va ishni bajaruvchi yordamchi tarkiblar keltirib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Funksional tuzilma – bu boshqaruvning normal ishlashini ta'minlovchi bo'limlar (buxgalteriya hisobi, kadrlar va boshqalar).

Yordamchi tuzilma – bu funksional birliklarning normal ishlashini ta'minlaydigan bo'limlar (ta'mirlash xizmati va boshqalar).

Mehmondo'stlikdagi bo'limlar aniq bo'linishga ega:

- 1) xonani boshqarish xizmati;
- 2) oziq-ovqat ishlab chiqarish xizmati;
- 3) marketing va sotish bo'limi;
- 4) buxgalteriya bo'limi.

Tashkilotning barcha bo'linmalarining menejerlari bosh direktorga (bosh menejerga) hisobot beradilar. Tashkilotning yirik bo'limlarini kichikroq bo'limlarga bo'lish mumkin.

Mehmondo'stlik industriyasi korxonalarini boshqarish tuzilmasini ko'rib chiqishda shuni hisobga olish kerakki, tashkilotning turli bo'linmalari o'rtasida funksional vakolatlarning to'g'ri tarkibiy bo'linishi ushbu korxonaning samarali ishlashida juda muhim rol o'ynaydi. Bu maqsadlarga erishish uchun individual imijni rivojlantirish kerak bo'ladi, bu esa mijozlar orasida mashhurlik darajasini oshirishga olib keladi.

Tayanch iboralar: menejment, menejer, iqtisodiy omillar, F.U.Teyler, boshqaruv funsiyalari, mehnat motivatsiyasi, ichki va tashqi muhimt, xodimlar, tashkiliy tuzilma va madaniyat.

Nazorat savollari:

1. Mehmondo'stlik industriyasida boshqaruv ob'ekti qanday o'ringa ega?
2. Menejment deganda nimani tushunasiz?
3. Karxonaning iqtisodiy holatini belgilovchi nechta omil mavjud?
4. F.U.Teylor qanday tushunchani va ishlarni amalga oshirgan?

5. Mehmondo'stlik industriyasida qanday boshqaruv funksiyalari mavjud?

6. Menejerlar qanday talablarga javob berishi kerak?

7. Mehmondo'stlik industriyasidagi ichki va tashqi muhimt qanday tushunchalarni o'z ichiga oladi?

8. Mehmondo'stlik industriyasida tashkiliy tuzilmasining qanday asosiy yo'nalishlari mavjud?

9. Boshqaruvdagi tashkiliy madaniyatga qanday talablar qo'yiladi?

XII BOB. MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASIDA TRANSPORT XIZMATLARI

12.1. Mehmondo‘stlik industriyasida transport xizmatlarining roli va o‘rni

Transport har qanday mamlakat iqtisodiyotining eng muhim qismlaridan biridir.

Ko‘p yillar oldin inson yuklarni tashish bilan bir qatorda odamlarni tashish uchun turli xil vositalardan foydalangan. G‘ildirak va boshqa harakat transportining yaratilishi bilan transportning arava, parovoz va boshqa turlari paydo bo‘la boshladi. Odamlar uzoq masofalarga tezroq sayohat qilishni boshladilar.

Hozirgi vaqtda yuqori darajada rivojlangan iqtisodiy va ijtimoiy bazaga ega transport davlat iqtisodiyotining mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Transport butun dunyo bo‘ylab turizmni rivojlantirish uchun vositadir. U iqtisodiyotning normal ishlashini ta‘minlaydi va qishloq xo‘jaligi, savdo va boshqalar kabi tarmoqlarni rivojlantirishga imkon beradi.

Turizmda transport xizmatlarining roli turistik va madaniy sayohatlarni tashkil etish, madaniy almashinuv, ijtimoiy muammolarni hal qilishda namoyon bo‘ladi.

Turizmning rivojlanishi va sayohatga bo‘lgan talabning ortishi bilan transport yo‘nalishlari doimiy ravishda kengayib bormoqda, bu esa, o‘z navbatida, transport infratuzilmasining rivojlanishiga foydali ta’sir ko‘rsatmoqda.

Transport xizmatlari turizm biznesida eng muhimlaridan biridir. Ular ekskursiya xarajatlarining katta qismini tashkil qiladi. Turistlar sayohat qilish uchun turli transport turlaridan foydalanadilar.

Transport xizmatlari sohasining asosiy qismini aviatsiya xizmati tashkil etadi. Uzoq masofalarga sayohat qilgan sayyohlar aviatsiya kompaniyalari xizmatlaridan foydalanadilar. Kurort yoki ko‘ngilochar maqsadlarda sayohat qiluvchilar uchun havo transporti unchalik keng tarqalmagan edi.

Sayohat uchun foydalaniladigan transport turlari orasida avtomobil transporti ikkinchi o'rinda turadi. Ushbu turdagi transport universal transport deb ham ataladi. U transferlar va ekskursiyalardan yo'nalish ichidagi transportga qadar qo'llaniladi, shuningdek, turistlar tomonidan shaxsiy foydalanish uchun ijaraga olinadi. Ayniqsa, diqqatga sazovor joylarga sayohat avtobuslari mashhur hisoblanadi. Avtobusda ekskursiya dasturi davomida sayyohatchilar yangi shaharlar va mamlakatlar bilan tanishadilar. Ammo, ba'zida bunday holatlarda ham mashinalar bilan bog'liq qiyinchiliklar paydo bo'ladi.

Avtobus tashishning asosiy raqobatchisi temir yo'l hisoblanadi. Temir yo'l transportlari mamlakatimizda havo transportiga nisbatan keng tarqalgan. Temir yo'lning afzalligi – arzon narxdagi tariflar, yo'l chiptalarining yo'lga qo'yilganligi, mamlakat bo'ylab harakatlanishda tizimda chegirmalarning mavjudligidir.

Suv daryosi va dengiz transporti *kruiz tipidagi xizmatlarni* taqdim etadi. Suvda sayohat qilishning afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Suv transportining afzalliklari orasida har qanday mijozning ehtiyojlarini qondiradigan muhit, bir vaqtning o'zida ko'p sonli odamlarni joylashtirish imkoniyati, turizmning turli turlari va maqsadlarini amalga oshirish, yaxshi dam olish va hayotni to'liq qo'llab-quvvatlash kiradi. Suv transportining kamchiliklari orasida transport vositalari harakatining past tezligi, yuqori tariflar va harakatlanishning cheklanganligi kiradi.

Hozirgi davrda avtobus, havo yo'li va temir yo'l vositasi orqali amalga oshiriladigan sayohatlar keng tarqalgan. Turistik transport sayohatlari bir necha transport turlari orqali, ya'ni, temir yo'ldan avtobus (yengil avtomobil); havo yo'lidan avtobus va shu kabilarda amalga oshiriladi. Mobil transport turi sifatida avtobus va yengil avtomobildan mustaqil yo'nalishlardagi kabi turistlarni aeroportdan (vokzaldan) mehmonxonagacha yoki aksincha, olib borib qo'yishda keng foydalaniladi. Har qanday sayyoh o'z sayohatini rejalashtirayotganda manzilga olib borish (yetkazish) tezligi, sayohat qulayligi (komforti), qiymati, yuklarini olib borish (ularning og'irligini hisobga olgan holda) imkoniyati, to'xtash joylari, ovqatlanish

sharoitlari, shovqin darajasi, vibratsiya, dam olish va (tunash) uxlash jarayonlari, ekologik va albatta xavfsizlik kabi omillarni hisobga oladi.

Mamlakatimizda ham turizmni tashkil etish va rivojlantirish maqsadida transport infratuzilmasi tizimida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 10 yanvar hamda “Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2018 yil 6 mart PQ-3589 son qarorlarining qabul qilinganligi buning yorqin misolidir.

Shuningdek, 2011 yilning 8 oktyabridan boshlab yo‘lovchilar va sayyohlar uchun maxsus qulayliklarga ega bo‘lgan, jami 215 yo‘lovchini tashish imkoniyatiga ega Ispaniyadan keltirilgan “Talgo” rusumidagi yuqori tezlikda harakatlanadigan “Afrosiyob” elektropoezdining Toshkent – Samarqand – Toshkent yo‘nalishida doimiy qatnovining yo‘lga qo‘yilganligi, 2016 yil 1 sentyabrdan boshlab esa Toshkent – Buxoro – Toshkent yo‘nalishida doimiy qatnovining yo‘lga qo‘yilganligi ham mahalliy fuqarolar va xorijiy sayyohlar uchun birdek qulay imkoniyatlar yaratdi. O‘zbekiston Prezidentining yuqorida zikr etilgan 2017 yil 10 yanvar qaroriga ko‘ra yo‘lovchi tashish tizimiga zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish, aholiga sifatli va xavfsiz transport xizmatlari ko‘rsatishni takomillashtirish, onlayn GPS orqali masofadan boshqarish va aholiga ishonch telefonlari orqali xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, 2018 yil 1 iyuldan shahar markazlarida yo‘lovchilarni tashish transportida yo‘l kira uchun naqdsiz to‘lovni bosqichma-bosqich amalga oshirish kabi vazifalar belgilandi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” bo‘yicha PF-5611-son Farmonining 1-ilovasida keltirilgan 3-bobning 3-bo‘limida “Transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirish,

transport xizmatlari sifatini oshirish”ga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar belgilab berilgan:

➤ yo‘lovchilar tashuvini rivojlantirish, shu jumladan doimiy transport qatnovini yo‘lga qo‘yish, turli transport vositalarining qulay tutash bog‘lamalarini tashkil etish, turizm markazlarini birlashtiruvchi respublika va mintaqaviy ahamiyatga molik yangi avtomobil yo‘llarini qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, tutash yo‘l infratuzilmasi (kemping va servis xizmat ko‘rsatish ob’ektlari, umumiy ovqatlanish markazlari, tibbiy va sanitariya shoxobchalarini) yaxshilashga qaratilgan davlatlararo shartnomalar bilan tasdiqlangan dasturni shakllantirish,

➤ transport tariflarini optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

➤ yirik xalqaro aviatashuvchilarni jalb qilish, byudjet aviatashuvlarni tashkil qilish;

➤ respublika hududlari o‘rtasida aviaqatnovlarni rivojlantirish;

➤ yangi temir yo‘llarni qurish va mavjudlarini takomillashtirish, yuqori tezlikda harakatlanadigan elektropoezdlardan foydalanishni kengaytirish;

➤ sifatli transport xizmatlarini ko‘rsatish uchun transport vositalarining harakatlanuvchi tarkibini muntazam yangilab borish.

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda quyidagilarni:

➤ xalqaro parvozlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri, shu jumladan mamlakatning tarixiy shaharlariga reyslarning geografiyasini kengaytirish, aviaqatnovlar sifatini oshirish va qiymatini pasaytirish;

➤ o‘z ichiga havo, temir yo‘l va avtomobil transportini qamrab olgan qulay va arzon transport logistikasini ta‘minlash, respublika hududlariga va xorijiy davlatlarga sayohatlarni amalga oshirishda qulay shart-sharoitlar yaratish;

➤ mamlakatni yo‘lovchilar tashish sohasida yirik mintaqaviy transport “xabi”ga aylantirishni ta‘minlash ham ta’kidlab o‘tilgan.

Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilning yanvar-aprel oylarida 2 019,4 ming nafar chet el fuqarolari turistik

maqsadlarda O‘zbekistonga tashrif buyurgan. Shundan, havo transportida kelgan sayyohlar 311,2 ming kishini (15,4 %), temir yo‘l orqali kelganlar – 29,1 ming kishini (1,4 %), avtomobil transportida kelganlar – 9,6 ming kishini (0,5 %) tashkil etgan.¹⁰

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, yurtimizda ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda. Xulosa qilib aytganda, sayyohlarni tashishda transport vositalari asosiy va muhim rol o‘ynaydi. Chunki transport tizimi qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, sayyohlarning yuqori darajada dam olishlari va sayohat qilishlari shunchalik qulay bo‘ladi. Hozir mamlakatimizda ham turizm sohasida zamonaviy transport vositalaridan keng foydalanilmoqda. Turistik korxonalarda qulay va har tomonlama jihozlangan avtodor va mikroavtodor xizmatlari yo‘lga qo‘yilgan.

Sayohatchilarning bir davlatdan ikkinchi davlatga borishlari uchun charter reyslar ochilgan. Viloyatlardagi turistik korxonalarda ham xizmat ko‘rsatish saviyasini yaxshilash, sayyohlarning ushbu shaharlarni ziyorat qilishlariga keng imkoniyatlar yaratish davr taqozosidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatda turizmni rivojlantirishga to‘siq bo‘layotgan transport infratuzilmasidagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- O‘zbekistonda “Rent-Car”, ya’ni avtomobillarni ijaraga berish tizimini soddalashtirish;
- mamlakat bo‘ylab barcha viloyatlarni bog‘laydigan avtomobil yo‘llari bo‘yidagi “Motel”lar sonini oshirish;
- asosiy yo‘l trassalarida ovqatlanish, cho‘milish, namoz o‘qish kabi sharoitlarga ega bo‘lgan yoqilg‘i quyish shahobchalari sonini ko‘paytirish;
- yo‘l belgilarining aniq va ravon ko‘rinishini ta’minlash;
- transport xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalarning bajarilishida xususiy sektorni jalb etish.

¹⁰ <https://sputniknews.uz/20230604/ozbekiston-turistlar-35673529.html>

12.2. Mehmondo'stlik industriyasida turli transport turlaridan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari

Har bir tarmoqning o'ziga xos bo'lgan jihatlari bor. Transport tarmoqlarida ham o'zining xususiyatidan kelib chiqib, turli transport vositalaridan foydalaniladi. Shu boisdan, foydalanilayotgan transport vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Suv transporti. Suvda birinchi transport vositasi qadimgi davrlarda paydo bo'lgan. Suv transportining tug'ilish davrini neolitga – yangi tosh davriga o'tish deb hisoblash mumkin, bu paytda odamlar tosh asboblarni bilishgan va yog'ochni qayta ishlashni bilishgan. Buning tasdig'ini arxeologlar tomonidan topilgan, taxminan 40 asr oldin eman daraxtidan yasalgan *kanoelarda* topish mumkin. Olimlar Ladoga ko'li qirg'og'ida topilgan kanoening yoshini 4 ming yil deb hisoblashadi. Ukrainaning Izyum shahrida olib borilgan qazishmalar paytida topilgan eman qayiqning yoshi 2 ming yildan ortiq.

Eng qadimgi yirik okean kemalari Xitoy imperatorlik kemalari bo'lib, mavjud arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, ular ko'p oylar davomida uzoq sayohatlarga chiqishga qodir edi.

Qadim zamonlardan beri dengiz va daryo kemalarining dizayni va jihozlari takomillashtirildi. Rivojlangan yelkanli uskunalar, navigatsiya vositalari va kemalarni qadimgi qurollar bilan jihozlash bilan kemalar nafaqat yuklarni yetkazib berish vositasi, balki urushning asosiy transportlaridan biriga, shuningdek, qadimgi davlatlarning kengayishiga olib keldi. Bunga mashhur bo'lgan qadimgi kemasozlikning ajoyib namunalaridan yunon triremasi va rim triremasi (lotincha *triremis*, *tres*, *tria* – “uch” va *remus* – “eshkak”)ni keltirish mumkin. Bular harbiy kemalar hisoblanib, shaxmat taxtasi ko'rinishida harakatlanganlar hamda 200 tonnagacha yukni ko'tarib harakatlanganlar.

Yelkanlar ixtiro qilingandan keyin suv transportidagi keyingi va eng muhim inqilob paroxodning yaratilishi bo'ldi.

Birinchi paroxod Robert Fulton tomonidan yaratilgan. 1807 yilda u bug' dvigateli va eshkak eshish g'ildiragi bilan jihozlangan Klermon kemasini qurdi. Keyinchalik u Gudzon daryosi bo'ylab Nyu-Yorkdan –

Olbanigacha sayohat qildi. Birinchi paroxodning tezligi taxminan 5 tugun (yoki 9 km/soat) bo'lgan.

Rossiyada birinchi paroxod 1815 yilda qurilgan, u Sankt-Peterburg va Kronshtadt o'rtasida sayohat qilgan.

Zamonaviy suv transporti iqtisodiyot uchun strategik muhim tarmoq hisoblanadi. Ishonchlilik va xavfsizlik, yuqori darajadagi qulaylikning shubhasiz afzalliklariga ega bo'lgan ushbu transport turi mehmondo'stlik industriyasining butun bir kichik tarmog'i - suv turizmi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ichki va xalqaro transportda suv transportining ulushi kam. Bu, birinchi navbatda, dengiz sayohatlari va kruizlarning qimmatligi, shuningdek, ushbu turdagi transportning turistlarni boshqa, arzonroq va tezroq yetkazib berish vositalari bilan almashtirilishi bilan bog'liq.

Suv transporti turlarini turli ko'rsatkichlar bo'yicha tasniflash mumkin:

- 1) tur bo'yicha;
- 2) toifa bo'yicha ;
- 3) kema (nimaga mo'ljallanganligi) maqsadi bo'yicha.

Bortdagi qulaylik va xizmat ko'rsatish darajasiga va kemaning texnik jihozlariga qarab, kemalar quyidagilarga bo'linadi:

- 1) daryo;
- 2) dengiz;
- 3) okean.

Kruizlar diqqatga sazovor joylar va zavqlanishlar bilan bir qatorda suv transportidan foydalanishga asoslangan turizmning asosiy turlari hisoblanadi.

Kruiz – bu turar joy, kuniga uch marta ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va kemada ko'ngilochar dasturlarni o'z ichiga olgan xizmatlar to'plamidir. Bunday turning narxi port shaharlarida ekskursiyalar va boshqa tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Dengiz sayohatlari uchun jihozlangan, eng yuqori darajali “suzuvchi shaharlar” deb nomlanuvchi kemalar (hashamatli va super hashamatli) besh yoki olti qavatli, o'nlab do'konlar, barlar, restoranlar, bir nechta suzish havzalari, sport va sog'lomlashtirish xizmatlarni

o'zida mujassam etgan. Shunday qilib, dunyodagi eng qimmat laynerlardan biri Amerikaning "Residence" kompaniyasining dunyo bo'ylab suzib yuruvchi "The World" deb nomlangan kemasida suzish havzalari, tennis kortlari va hatto golf maydonchalari mavjud. Kemaning turar-joy qismi doimiy yashash uchun 70 dan 300 m² gacha bo'lgan 110 ta kvartirani va uch kunlik muddatga ijaraga berilishi mumkin bo'lgan 88 ta kabinani o'z ichiga oladi.

"Cunard Lines" kompaniyasiga tegishli bo'lgan "Queen Mary 2" 21 qavatli laynerli kemasi dunyodagi eng katta kema hisoblanadi. Kemaning ichida hatto o'n balli kuchga ega bo'lgan bo'ron ham kazino va ko'ngilochar markazlarning ishini to'xta olmaydi. Bortda qishki bog' va kim oshdi savdosi mavjud bo'lib, unda rasmlar, jumladan Pablo Pikasso va boshqa taniqli ustalar, shu jumladan rus rassomlarining asarlari kim oshdi savdosi bo'lib o'tgan.

Mutaxassislar davomiyligi bo'yicha dunyo bo'ylab sayohatlar (14 kundan ortiq), dengiz sayohatlari (10-14 kun) va bir haftalik sayohatlarga bo'lganlar. Bir haftalik suzib yurish mijozlar orasida eng mashhur bo'lib, barcha kruiz sayohatlarining yarmini tashkil qiladi.

Dengiz turizmining asosiy hududlari - Karib dengizi orollari (qish mavsumi), O'rta yer dengizi (yoz, kuz) va Yevropa va Skandinaviya bo'ylab sayohatlar (yoz, kuz) hisoblanadi.

Kompaniya va kruiz sayohatlar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalari tasniflanishi bo'yicha to'rt toifaga (kategoriyaga) bo'linadi:

1) *standart yoki uch yulduzli* ("Norwegian Cruise Line", "Costa Cruises", "Royal Caribbean International", "Carnival Cruise Line, Princess Cruises" va boshqa kompaniyalarlar);

2) *yuqori sifat (premium) yoki to'rtta yulduzli* ("Azamara Cruises", "Holland America Line", "Celebrity Cruises", "P&O Cruises", "Oceania Cruises" va boshqalar);

3) *lyuks (hashamatli) yoki besh yulduzli* ("Crystal Cruises", "Regent Seven Seas Cruises", "Cunard Line" va boshqalar);

4) *super lyuks* ("SilverSea Cruises" va "Seabourn").

Daryo kruizlari ob-havo sharoitlaridan qat'iy nazar, qulayroq va qirg'oqda sayyohlar uchun yanada boyroq tadbirlar dasturiga ega. Bular ekskursiya dasturlari, diskotekalar, plyajlarda dam olish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday sayohatlarning yo'nalishlari daryolar, ularning irmoqlari, daryo kanallari va ko'llar g'isoblanadi. Yevropadagi eng mashhur kruizlar Reyn, Dunay, Elba va Sena daryolarida hamda Rossiyaning Volga va Don daryolarida ham daryo sayohatlarini tashkil qilish uchun keng qo'llaniladi. Mashhur kruiz daryolariga Nil, Amazon va Yangszi kiradi.

Suv kemalarida zavq va ekskursiya sayohatlarining o'ziga xos xususiyati ularning qisqa muddatlilikidir. Bu 24 soatdan oshmaydi va nafaqat motorli kemalarda, balki kichik daryo kemalarida, masalan, qayiqlar, yelkanli yaxtalar, yo'lovchi qayiqlari, gidrofoillar ("Raketa", "Meteor" toifadagi kabi) va boshqalarda amalga oshirilishi mumkin. Bularda turistlar turar joy bilan ta'minlanmaydi, mehmonlar kemaning ochiq palubasida joylashtiriladi va kafe-restoranlarda mehmonlar birgalikda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishadi.

O'zbekistonda suv transporti xizmatlaridan foydalanishni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Transport Vazirligi va unga bo'ysinuvchi tashkilot va korxonalar tomonidan amalga oshirilib boriladi.

Havo transporti. Umuman olganda, birinchi samolyotni aka-uka Uilbur va Orvil Raytlar ixtiro qilgan va 1903 yilda havoga ko'tarilgan. A.F.Mojayskiy havodan og'irroq samolyot loyihasini ishlab chiqdi va 1881 yilda unga patent oldi. Prototip uchun pul yig'ishda qiynalayotgan A.F.Mojayskiy Angliyadan buyurtma qilingan ikkita kichik bug'dvigateliga ega samolyot yaratdi (o'sha paytdagi benzinli dvigatellar kam quvvatli edi). Birinchi sinov vaqtida samolyot uchish-qo'nish yo'lagini tark etdi va bir necha o'nlab metrlarni uchib o'tgach, egilib, qanoti bilan yerga urilgan. Ixtirochi samolyotni qayta tiklash va prototipini yaxshilash uchun yetarli miqdorda pul yig'aolmagan. Faqat o'n yil o'tgach Amerika samolyoti havoga ko'tarilgan va 12 soniyada 37 m uchib ketdi.

Bir asrdan ortiq rivojlanish yo‘lidan o‘tib, aviatsiya yo‘lovchilar va yuklarni uzoq masofalarga yetkazib berishning eng samarali vositasiga aylandi.

Aviakompaniya xizmatlaridan foydalanish uzoq masofalarga sayohat qilish uchun eng yaxshi yechimdir. Biroq, o‘sha davrlarda havo transportida qulaylikning pastligi va chiptalar narxining yuqoriligi kabi qator kamchiliklar mavjud bo‘lgan. Hozirgi vaqtda yetakchi aviakompaniyalar qulaylik va xizmat ko‘rsatishning mutlaqo maqbul darajasini taklif qilmoqda. O‘zining jadal rivojlanishi, aviatsiya xizmatlarini rag‘batlantirish, eng so‘nggi bronlash tizimlari va elektron chiptalarni sotish, aviakompaniyalarga xizmat ko‘rsatish va jihozlash qulayligini oshirish tufayli aviatsiya o‘z mavqeini saqlab kelmoqda, transport xizmatlari bozorida o‘z ulushini bosqichma-bosqich oshirib, samarali raqobatlashmoqda.

Zamonaviy yo‘lovchi samolyotlarini turli parametrlarga ko‘ra ajratish mumkin.

Parvoz masofasiga qarab:

1) *shaharlararo magistral liniyalar* (A-380, A-340, A-350, B-787 va boshqalar);

2) *o‘rta masofali* (B-737, A-320, Tu-154, Il-86, Yak-42 va boshqalar);

3) *qisqa masofali marshrutlar* (Tu-134, An-24 va boshqalar).

Parvozning tezligiga qarab:

1) *tovushi past bo‘lgan samoyolatlar* (dozvukovye);

2) *tovushdan tez uchadigan samolyotlar* (sverxzvukovye).

Yo‘lovchi samolyotlarini dvigatel turlari bo‘yicha ajratish mumkin:

1) *porshenli dvigatellar bilan*;

2) *turbovintli dvigatellar*;

3) *reaktiv dvigatellar va boshqalar*.

Yo‘lovchi laynerlari uchun qulaylik darajasi, salondagi o‘tirish tartibi va boshqa ko‘rsatkichlarga qarab ishlab chiqaruvchi kompaniyalar tomonidan qabul qilingan boshqa ko‘plab tasniflash tizimlari mavjud.

Tashilgan yo'lovchilar soni bo'yicha dunyodagi eng yirik Amerika aviakompaniya "Delta Air Lines" hisoblanadi (2005 yilda 118,9 mln yo'lovchi tashilgan). Boshqa yirik jahon aviakompaniyalari: "American Airlines", "Southwest Airlines", "US Airways", "United Airlines" Amerika aviakompaniyalari, "Air France-KLM" Fransiya, "Lufthansa" Germaniya, "Japan Airlines" Yaponiya va "British Airways" Byuk Britaniya aviakompaniyalarini keltirib o'tish mumkin. Shuningdek, Rossiyaning eng yirik aviakompaniyalari – "Aeroflot", "Air Union" va "Domodedovskie avialinii"larni keltirib o'tish mumkin. Dunyoda 1300 dan ortiq aviakompaniyalar faoliyat olib boradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 2023 yil yanvar-iyul oylari davomida O'zbekistonda "Centrum Air", "Silk Avia", "Asia Union Airlines" va "Tashkent Air" aviakompaniyalari tashkil etildi. Natijada, O'zbekistonda aviakompaniyalar soni 8 taga yetdi. Shu vaqtgacha "Uzbekistan Airways", "Qanot Sharq", "Panorama Airways" va "Humo Air" aviakompaniyalari faoliyat yuritayotgan edi.¹¹

Qayd qilinishicha, 2023 yil yanvar-iyul oylarida O'zbekiston aviakompaniyalari tomonidan 28764 ta aviaqatnov amalga oshirilib, jami 3,6 milliondan ortiq yo'lovchi tashilgan. Shulardan xorijiy yo'nalishlarda amalga oshirilgan aviaqatnovlar soni 16618 ta, mahalliy yo'nalishlarda amalga oshirilgan aviaqatnovlar soni 12146 tani tashkil etgan.

"Uzbekistan Airways", "Qanot Sharq", "Centrum Air", "Silk Avia" hamda "Humo Air" aviakompaniyalari tomonidan 12 ta mahalliy yo'nalishda haftasiga 97 ta muntazam aviaqatnov hamda xalqaro yo'nalishlarda 26 ta davlatga 154 ta yo'nalishda haftasiga 450 ta aviaqatnov amalga oshirilmoqda.

Milliy aviatsiya parkini kengaytirish maqsadida, 2023 yil yanvar-iyul oylari davomida "Uzbekistan Airways" hamda xususiy aviakompaniyalar tomonidan 21 ta samolyot keltirildi.

¹¹ <https://kun.uz/news/2023/08/25/ozbekistonda-aviakompaniyalar-soni-8-taga-yetdi>

Shuningdek, Jizzax viloyati Zomin tumani kurort zonasiga sayyohlar va dam oluvchilarni yetkazishni tashkillashtirish maqsadida, “Uzbekistan Airways” AJ tomonidan tumanda kichik aviasiya havo kemalari uchun aerodrom qurildi va 2023 yilning 24 iyul kuni Toshkentdan Zominga ilk parvoz amalga oshirilib, mamlakatimiz yulovchi aviasiyasi tarixida yangi sahifa ochildi hamda Toshkent-Zomin-Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha amalga oshirilgan aviaqatnov yangi L-410 rusumdagi havo kemasida bajarildi. Ayni vaqtda, “Uzbekistan Airways” AJ tomonidan sayyohlar va dam oluvchilar uchun Toshkent-Zomin-Samarqand va Toshkent-Zomin-Buxoro yo‘nalishida muntazam aviaqatnovlar amalga oshirib kelinmokda.¹²

Aviakopaniyalarning faoliyati ham milliy qonunlar va ijroiya organlari, ham xalqaro tashkilotlar va shartnomalar bilan tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasining aviakompaniyalar faoliyatini va yo‘lovchi tashish qoidalariga rioya etilishini nazorat qiluvchi asosiy ijro etuvchi organlari Transport vazirligi va unga bo‘ysunuvchi tashkilot va korxonalar hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida havo transporti xizmatlarini ko‘rsatish tartibi quyidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

O‘zbekiston Respublikasi Parvozlarda xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 2007 yil 12 sentyabrda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro va eksperimental aviatsiyasining parvoz qilish aviatsiya qoidalarini (O‘ZR AQ-91) tasdiqlash to‘g‘risida”gi 141-son buyrug‘i bilan amalga oshirilib, yo‘lovchilar, bagaj, yuklarni havoda tashishning umumiy qoidalari va yo‘lovchilarga, yuk jo‘natuvchilarga, qabul qiluvchilarga xizmat ko‘rsatishga qo‘yiladigan talablarni belgilab beradi.

O‘zbekistonda hozirgi kunda bir qancha xalqaro miqyosdagi shartnomalar imzolangan va kelishilgan. Masalan, Ozarbayjon (1996 yilda), Avstriya (2000 yilda), Belarus (1994 yilda), Bolgariya (1999 yilda), Byuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya (1993 yilda), Vetnam (1995 yilda), Germaniya (2001 yilda) va boshqa davlatlar bilan ikki

¹² <https://www.mintrans.uz/uz/2023hisobot>

tomonlama hamkorlik shartnomalari imzolangan va ushbu shartnoma va boshqa dunyo hamjamiyatida belgilab berilgan qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirilib kelinmoqda.

Shuningdek, global shartnomalar havo qatnovlarini tartibga soluvchi xalqaro qoidalarini ishlab chiqqan va imzolagan ko‘plab davlatlarni o‘z ichiga oladi. Fuqaro aviatsiyasi sohasidagi birinchi muhim hujjat 1929-yil 12-oktabrdagi “Xalqaro havo transportida tashishning asosiy qoidalarini birlashtirish to‘g‘risidagi bitim” bo‘lib, 1955 va 1975-yillarda o‘zgartirilgan va Varshava kelishuvi deb ham ataladi. Qoidalar tijorat asosidagi barcha havo tashishlariga va xizmatlar ko‘rsatishning imtiyozli variantlariga (avia tashuvchining xizmatlaridan bepul foydalanish) nisbatan qo‘llaniladi. 1955-yildagi Gaaga protokoli, 1971-yildagi Gvatemala protokoli va 1975-yilgi Monreal protokoli Varshava bitimini to‘ldirdi.

Varshava shartnomasida birinchi marta yo‘lovchilar hayoti yoki mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun tashuvchining moliyaviy javobgarligi belgilangan.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda ko‘pgina aeroportlar faoliyat ko‘rsatib keladi (12.1-jadval).

Avtomobil transporti. Zamonaviy avtomobillarning prototipi dvigatel sifatida bug‘ dvigatellari bilan jihozlangan trolleybuslar hisoblangan. Yevropada 1780-yillarda bunday turdagi birinchi ixtiro uch g‘ildirakli artilleriya traktori (J.Cunu) bo‘lgan. Purjinali uzatma orqali harakatlanuvchi g‘ildirakli o‘zi yurar vositalari to‘g‘risida g‘oya va chizmalar Leonardo da Vinchi rasmlari ko‘rish mumkin bo‘lgan. Biroq, avtomobillarni yaratish va ishlab chiqarish kuchli, samarali va xavfsiz benzinli dvigatelni ishlab chiqishdan oldin bo‘lishi kerak edi. Faqat 1885-1886 yillarda nemis ixtirochilari G.Daimler va K.Benz benzinli o‘zi yurar dvigatellini yaratdilar va patent oldilar. 1895 yilda K. Benz birinchi avtobusni yasadi. Rossiyada ichki yonuv dvigatelli birinchi avtobus 1903 yilda Sankt-Peterburgda ishlab chiqilgan.

Respublikadagi aeroportlar nomi

Foydalanuvchi shahar/joy	ICAO kodi	IATA kodi	Aeroport nomi
Andijon	UTKA	AZN	Andijon xalqaro aeroporti
Buxoro	UTSB	BHK	Buxoro xalqaro aeroporti
Fargʻona	UTKF	FEG	Fargʻona xalqaro aeroporti
Qarshi	UTSK	KSQ	Qarshi xalqaro aeroporti
Qarshi	UTSL		Qarshi-Xonobod aerodromi
Namangan	UTKN	NMA	Namangan xalqaro aeroporti
Navoiy		NVI	Navoiy xalqaro aeroporti
Nukus	UTNN	NCU	Nukus xalqaro aeroporti
Samarqand	UTSS	SKD	Samarqand xalqaro aeroporti
Toshkent	UTTT	TAS	Toshkent xalqaro aeroporti
Termiz	UTST	TMJ	Termiz xalqaro aeroporti
Urganch	UTNU	UGC	Urganch xalqaro aeroporti
Zarafshon		AFS	Zarafshon aeroporti

Zamonaviy jahon avtomobil sanoatining yutuqlariga qaramay, avtomobil transporti asosiy transport turlari orasida eng qulayi va eng arzon hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14-fevral PF-4954-sonli “Yo‘l xo‘jaligi tizimini yanada takomillashtirish” Farmoniga binoan O‘zbekiston avtomobil yo‘llarini qurish va ekspluatatsiyasi Davlat aksiyadorlik kompaniyasi (“O‘zavtoyo‘l” DAK) negizida O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llar Davlat qo‘mitasi tuzilgan.

Avtomobil yo'llari sohasida mahsus vakolatli Davlat organi sifatida Davlat Qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalari va yo'nalishlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- avtomobil yo'llari sohasida yagona siyosatni olib borish;
- avtomobil yo'lini rivojlanish davlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish;
- avtomobil yo'li tarmog'ini istiqbolda rivojlanish va takomillashtirishni aniqlash;
- xalqaro tranzit avtomobil yo'llarini yo'lak (karidor) larini takomillashtirish;
- zamonaviy transport oqimi sharoitida avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilarni qiziqishini, shuningdek buyurtmachining samarali xizmatini tashkil qilishni xisobga olib avtomobil yo'llarini moliyalashtirish, loyihalash, qurilish, tamirlash va ekspluatatsiyasi kompleks masalalarini yechimini taminlash;
- avtomobil yo'llarini qurishni, qayta qurishni (rekonstruksiya), tamirlashni va saqlash sifatini taminlash va nazoratini bajarish;
- xo'jaliklararo qishloq avtomobil yo'llarini, shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning ko'chalari tarmog'ini saqlanishi taminlovchi ishlarni koordinatsiyalash va ularni yuqori transport-ekspluatatsion darajada saqlash;
- ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish, avtomobil yo'llarini loyixalash, qurish, qayta qurish, tamirlash va saqlash ishlarida soxadagi innovatsion texnologiyalarni va zamonaviy standartlarni joriy qilish.

So'nggi yillarda respublika iqtisodiyoti va aholisiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi qayd etilsin. Yo'lovchi tashish yo'nalishlari tarmog'i 2006 yilga nisbatan 1,4 baravarga ortdi, respublikada 117 ta yo'lovchi avtovokzali va avtostansiyasi faoliyat ko'rsatmoqda, tashuvlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.¹³

¹³ <https://president.uz/uz/1538>

Dastlab O'zbekistonda O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, O'zbekiston avtomobil transporti agentligi "O'zavtotrans" agentligi faoliyat yuritib kelgan. Keyingi yillarda barchasi birlashgan holda Transport vazirligiga o'tkazilgan.

Mehmondo'stlik industriyasida avtomobil transportlari orqali turli yo'nalishda xizmatlar ko'rsatib kelinadi. Turistik xizmat ko'rsatishda avtomobil xizmatidan foydalanishda uchta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. Avtobusda sayohatni tashkil etish.
2. Turistlarning shaxsiy transportida sayohatni tashkil etish.
3. Avtomobillarni turistlarga ijara (prokat)ga berish.

Shuningdek, turistik turdagi avtobuslarning boshqa sinflardan eng muhim farqi salonning jihozlanishi va qulayligidir. Salonning qulaylik darajasining asosiy ko'rsatkichi yo'lovchilar uchun o'rindiqlardir. Asosiy parametrlar: o'rindiqlar orasidagi masofa (sinf bo'yicha mos ravishda 68, 72, 77, 83, 90 sm), o'rindiqlarning balandligi (har biri 50-70 sm), *uchinchi sinfdan* boshlab majburiy mavjudligi, har bir o'rindiq uchun ikkita tirsakqo'ygich, shuningdek, bioxojatxon, minishkaf, muzlatgich; *to'rtinchi va beshinchi komfort sinflarida* avtobusda qulay sayohatni ta'minlash uchun konditsioner, shkaf va boshqa vositalar bo'lishi kerak. Turistik avtobuslar bir-biridan nafaqat qulayligi va jihozlanishining maxsus darajasi (masalan, monitorli audio va video tizimlar, yo'l boshchi uchun mikrofon, shaxsiy ma'lumotlar panellari va boshqalar), balki joylashuvi bilan ham farqlanadi. Turistik avtobuslar odatda bir yarim va ikki qavatli bo'ladi. Bu nafaqat har bir sayyohning yuki uchun 0,5 m² bo'sh joyni majburiy ta'minlash, balki yo'lovchilar uchun ko'rinishni yaxshilash bilan ham bog'liq. Nufuzli ishlab chiqaruvchi mamlakatlar va sayyohlik avtobuslarining mashhur brendlari: "MAN", "Mercedes", "Neoplan", "Setra" (Germaniya); "Alexander", "Autobus", "Caetano", "SCC", "Cannon" (Velikobritaniya); "Carrier", "Durisotti" (Fransiya), "Yutong" (Xitoy) va boshqalar.

Avtomobil transportida yo'lovchilarni xalqaro tashish milliy qonunlar, ikki tomonlama davlatlararo shartnomalar va global

shartnomalar bilan tartibga solinadi. Xalqaro avtomobil tashishlarini soddalashtiruvchi eng muhim kelishuvlar:

1) Yo‘lovchilar va bagajni xalqaro avtomobil tashish shartnomasi to‘g‘risidagi konvensiya, CAPT, shu jumladan Konvensiyaga Protokol va Qo‘shimcha Protokol (Jeneva, 1973 yil 1 mart);

2) Turistlar uchun bojxona ob‘ektlari to‘g‘risidagi konvensiya (Nyu-York, 1954 yil 4 iyun);

3) Turizm bo‘yicha parlamentlararo konvensiyaning Gaaga deklaratsiyasi (1989 yil).

1985 yil 14 iyunda Belgiya, Niderlandiya, Lyuksemburg, Fransiya va Germaniyada imzolangan Shengen shartnomasining Yevropa Ittifoqi doirasida tuzilishi xalqaro turizm (xususan, xalqaro avtomobil transporti uchun) uchun muhim ahamiyatga ega edi. Kelishuv zona ichida pasport bojxona nazoratini bekor qildi va uchinchi davlatdan kelgan barcha sayyohlar uchun shartnomada ishtirok etuvchi mamlakatlar hududi bo‘ylab erkin harakatlanishi uchun yagona viza joriy etildi. U 1995-yil 26-martda kuchga kirdi. 2007-yilda shartnomani 30 ta davlat imzolagan bo‘lsa, chegara nazorati bekor qilingandan so‘ng u faqat 24 ta davlatda amalda bo‘ldi. 2008 yil o‘rtalariga kelib Shengen zonasiga Avstriya, Belgiya, Vengriya, Germaniya, Gresiya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandiya, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Slovakiya, Sloveniya kabi davlatlar kirgan.

MDH tarkibiga kiruvchi davlatlarda yo‘lovchilarning xalqaro avtomobil tashishlarini tartibga solishning asosi Gruziya va Turkmanistondan tashqari Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stlikka a‘zo barcha davlatlar tomonidan imzolangan 1997-yil 9-oktabrdagi “Yo‘lovchilar va yuklarni xalqaro avtomobil tashish to‘g‘risida”gi konvensiyadir. Hujjat yo‘lovchilar va bagajni xalqaro tashishni tashkil etish tartibini hamda tashuvchining javobgarligini belgilaydi. Tashishni tashkil etishning amaliy qoidasi a‘zo davlatlarning xalqaro tashishlarida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalariga ilova hisoblanadi.

Avtobus va avtomobil sayohatlarini rejalashtirishda quyidagi omillarni yodda tutish kerak:

- 1) turli davlatlar hududida tezlik chegaralari;
- 2) avtobusda ishlaydigan taxografning majburiy bo'lishi (yurish masofasini, haydovchining holatini, qayd etish tezligini va boshqalarni kuzatuvchi qurilma);
- 3) yo'l varaqalarining majburiy mavjudligi va to'g'ri to'ldirilishi;
- 4) turistlarning vizasi bilan xorijiy pasportlari bo'lishi.

Yevropa mamlakatlariga avtoturni tashkil qilishda tibbiy va maxsus sug'urta – "Green Card (Yashil karta)"ni olish kerak bo'ladi. Yevropada bo'lish vaqtida sayyohning "Green Card" yo'l-transport hodisalaridan kelib chiqadigan turli muammolarni hal qilishga yordam beradi. Sug'urtalash sug'urtalangan transport vositasini ekspluatatsiya qilish orqali uchinchi shaxslarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilganda va mulkiga zarar yetkazilganda amalga oshiriladi.

Temir yo'l transporti. Rivojlanishning uzoq yo'lini bosib o'tgan temir yo'l bugungi kunda har qanday xalq xo'jaligi uchun strategik muhim transport tarmog'i hisoblanadi.

Temir yo'l liniyasi parovozlardan oldin 18-asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Oltoy konlarida oddiy temir yo'l va ot aravachalari qo'llanilib, birinchi temir yo'l (shuningdek sanoat maqsadlarida) 1788 yilda Petrovskdagi Aleksandrovskiy zavodida yaratilgan. Keyinchalik otda yo'lovchilarni tashuvchi temir yo'li ishlab chiqilgan. Turli aholi punktlari orasidagi birinchi temir yo'l 1801 yilda Angliyada qurilgan.

Birinchi parovoz 1804 yilda yaratilgan va u R.Trevitik tomonidan J.Vattning bug' dvigateli asosida ishlab chiqilgan. Keyingi yillardagi eng muvaffaqiyatli narsa keyinchalik yo'lovchi temir yo'lining birinchi lokomotiviga aylangan parovozning ixtirosi bo'ldi.

1812-1829 yillarda J.Stivenson bir qancha muvaffaqiyatli parovoz konstruksiyalarini taklif qildi, ular kon temir yo'llarida qo'llanila boshlandi. Keyinchalik, Stivensonning "Raketa" parovozi Manchester-Liverpul yo'nalishidagi yo'lning asosiy lokomotiviga aylangan.

Hozirgi vaqtda temir yo'llarning uzunligi yuz minglab kilometrlarni tashkil etadi va zamonaviy tezyurar poezdlarning

konstruksiyalari ularga yuqori tezlikka erishishga imkon beradi (581 km/soat tezlik rekordi Yaponiyaning Maglev poezdiga tegishli). Poezdlar eng tez va qulay sayohat vositasi hisoblanadi.

Turli mamlakatlar yo‘lovchi poezdlari va vagonlarining turli tasniflaridan foydalanadilar. Rossiyada sayohat tezligiga, qulaylik darajasiga, vagonlarning jihozlanishiga va marshrutga qarab muntazam qatnovning tez, shaharlararo, mahalliy va shahar atrofidagi yo‘lovchi poezdlari mavjud. Maxsus (doimiy bo‘lmagan) poezdlarga odatda oldindan buyurtmalar bo‘yicha tuzilgan turistik va charter poezdlari kiradi.

Taqdim etilayotgan xizmatlar doirasiga ko‘ra hashamatli vagonlar: E – iqtisodiy va B – biznes sinflarga bo‘linadi. Bu brendli poezdlar va eksklyuziv hashamatli sayyohlik yo‘lovchi poezdlari sayyohchilar orasida juda mashhurdir. Yuqori darajadagi qulaylik bilan poezdlar sayohati ba‘zan, hatto kruiz deb atalib, haqiqiy g‘ildirakli mehmonxonalar deyish mumkin. Ularda konditsionerdan tortib marmar vannalargacha bor. Yo‘lovchilarga bir nechta yevropa taomlari menyusiga ega vagonlar, bar vagonlari, klub vagonlari va boshqalar taqdim etiladi. Poezdlar to‘xtash vaqtida ekskursiyalar va boshqa tadbirlar tashkil etiladi. Bunday turistik poezdlarning o‘z nomlari bor, ulardan eng mashhuri “Orient-Express” kompaniyasiga tegishli (uning poezdlaridan biri Yevropa bo‘ylab, Parijdan Istanbulgacha harakatlanadi, ikkinchisi Avstraliyaning janubiy qirg‘oqlari bo‘ylab, uchinchisi Tailand va Malayziya orqali o‘tadi.). “The Blue Train” poezdi sayyohlarni Afrika savannalari orqali Viktoriya sharsharasiga olib boradi. Edinburgning mashhur “The Royal Scotsman” sayyohlik poezdi sayyohlarni muntazam ravishda Shotlandiyaning yashil vodiylari va tog‘lari bo‘ylab sayr qildiradi. Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Endi temir yo‘l poezdlari va vagonlarining xususiyatlariga to‘ytalib o‘tsak.

Temir yo‘l poezdlari vagonlari yuk tashishi va yo‘lovchi tashishlarni o‘z ichiga oladi. Vagon deb – temir yo‘l harakati

vositalarining yo‘lovchi yoki yuk tashish uchun mo‘ljallangan birligiga aytiladi.

Yo‘lovchi tashuvchi vagonlarning asosiy parametr ko‘rsatkichlari 12.2-jadvalda berilgan.

12.2-jadval

Yo‘lovchi vagonlarning texnik ko‘rsatkichlari

Vagonlarning turlari	Tara og‘irligi, t	Uzunligi, m	Joylar soni		Gabarit o‘lchami
			O‘tirish uchun	Yotish uchun	
Kupeli yumshoq (4 o‘rinli) vagon	52	24,537	-	38	0-T
Kupeli yumshoq (2 o‘rinli) vagon	56,5	24,540	-	16	0-T
Kupeli qattiq (4 o‘rinli) vagon	52	24,537	-	38	0-T
Kupesiz qattiq (plaskart va umumiy) vagon	54	24,537	81	54	0-T
Viloyatlararo qatnov uchun	47	24,537	68	-	0-T

Yo‘lovchi vagonlari odamlar, bagaj va pochta tashiladi hamda ushbu vagonlar qatoriga vagon-restoran va maxsus (xizmat, laboratoriya, klub va h.k.) vagonlar kiradi.

Masofa uzoqligiga qarab yo‘lovchi vagonlar o‘zining tuzilishi bo‘yicha quyidagicha bir-biridan farqlanadi:

1. Uzoq masofalarga qatnash uchun – yo‘lovchilarni uzoq masofalarga tashish uchun xizmat qiladi. Bu vagonlar kupeli yoki kupesiz bo‘lib, qattiq yoki yumshoq divanlar bilan jihozlanadi.

2. Mahalliy yo‘nalishlarda (viloyatlararo) qatnash uchun - yo‘lovchilarni asosan kunduzi, nisbatan qisqa masofalarga tashish

uchun xizmat qiladi. Bu vagonlar o'tirish uchun qulay o'rindiqlar bilan jihozlanadi.

3. Shaharatrof yo'nalishlarda qatnash uchun – nisbatan qisqa vaqt (bir necha soat) davomida yo'lovchilarni uzoq bo'lmagan shaharatrof yoki shaharlararo masofaga tashish uchun xizmat qilib, ular o'tirish uchun (qattiq yoki yumshoq) o'rindiqlar bilan jihozlanadi.

O'zbekistonda temir yo'l transporti xizmatlari Transport vazirligi va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ hamda ularning tashkilot va korxonalari orqali tashkil etiladi.

Temir yo'l transporti xizmatlarini tashkil etish O'zbekiston Respublikasining "Temir yo'l transporti to'g'risida"gi Qonuni (1999 yil 15 aprel, 766-I-son) asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, temir yo'l transporti sohasini isloh qilish, sog'lom raqobat muhitini yaratish, sohaga xususiy sektorni keng jalb qilish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish hamda respublikaning tranzit salohiyatidan samarali foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 10 oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-329-son qarori qabul qilingan va quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan:

➤ temir yo'l da tashish xizmatlari bozorida raqobatni shakllantirish va jozibador investitsiya muhitini yaratish orqali tashish jarayonlariga xususiy investitsiyalarni jalb qilish;

➤ temir yo'l sohasini transformatsiya qilish va raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, xizmatlar ko'rsatish jarayonining uzluksizligi, sifatliiligi, xavfsizligi, barqarorligi va ishonchliligini ta'minlash;

➤ temir yo'l korxonalarining moliyaviy holatini mustahkamlash, yo'lovchi va yuk tashishda tannarx va xarajatlarni kamaytirish, operatsion samaradorlikni ta'minlash borasida hisobdorlik va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish;

➤ tadbirkorlik sub'ektlari uchun temir yo'l orqali yuk tashish xizmatini ko'rsatuvchi vagon operatorlarini erkin tanlash huquqini ta'minlash;

➤temir yo‘l xizmatlarini ko‘rsatishda iqtisodiy va moliyaviy salohiyati yuqori bo‘lgan yo‘nalish va sohalarga mustaqil rivojlanish, shu jumladan mahalliy va xalqaro moliya bozorlariga chiqish hamda davlat ko‘magisiz kredit resurslarini jalb qilish uchun imkoniyat yaratish;

➤temir yo‘l sohasidagi davlat ulushi mavjud kompaniyalarda korporativ boshqaruv tizimini tubdan yaxshilash, sohaga malakali xorijiy menejerlar va mutaxassislarni jalb qilish.

2023 yilda Transport vazirligi tomonidan transport sohasiga axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirildi va sohada quyidagi natijadorliklarga erishilgan.

Jumladan, Transport vazirligi huzurida sohani raqamlashtirishga mas‘ul bo‘lgan “Raqamli transport markazi” davlat muassasasi tashkil etildi hamda markaz tomonidan axborot tizimlari soni 8 tadan 15 taga yetkazildi.

Ruxsat berish tamoyili asosida ishlovchi axborot tizimlar bo‘yicha Biznes-jarayonlarini raqamlashtirish orqali tadbirkor va fuqarolardan qo‘shimcha hujjatlarni talab qilish amaliyoti bekor qilinib, inson omili bartaraf etilgan holda shaffoflik ta‘minlandi.

Temir yo‘l sohasida 3 ta (infratuzilma qurish, tashishlarni tashkil etish, xavfli yuk) axborot tizimlari tashkl etildi.

Bunda vazirlik va idoralar bilan elektron hamkorlik qilish darajasi oshirilib, elektron ma‘lumot almashish yo‘lga qo‘yildi va Vazirlik tomonidan ko‘rsatilayotgan jami 20 ta davlat xizmatlarining barchasi elektron ko‘rinishga o‘tkazildi. Natijada “License.gov.uz” elektron litsenziyalash tizimi orqali 4 ta davlat xizmati va “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” orqali 3 ta davlat xizmatini ko‘rsatish yo‘lga qo‘yildi. Masalan, mahalliy temir yo‘l va avia chiptalarni onlayn rasmiylashtirish xizmati yo‘lga qo‘yilib, chiptalar mazkur portal orqali yo‘lovchilar tomonidan onlayn rasmiylashtirilmoqda (2023 yilning noyabr oyidan boshlab ishga tushirildi va 5 mingga yaqin elektron chiptalar rasmiylashtirildi).

Hozirgi kunda temir yo‘l transportida yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha mahalliy 35 ta yo‘nalishda 44 ta yo‘lovchi poezd

harakatlangan bo‘lib, shulardan 6 tasi yuqori tezlikda harakatlanuvchi, 6 tasi tezyurar va 16 tasi yo‘lovchi poezdlari hamda 18 tasi shahar atrofida harakatlanuvchi elektropoezdlardir.

Yuqori tezlikda harakatlanuvchi **“Afrosiyob”** elektropoezdlari *“Toshkent-Buxoro-Toshkent”* yo‘nalishida har kuni 3 ta, *“Toshkent-Qarshi-Toshkent”* yo‘nalishida haftasiga 10 ta, *“Toshkent-Samarqand-Toshkent”* yo‘nalishida har kuni 1 ta hamda *“Toshkent-Shahrisabz-Toshkent”* yo‘nalishida haftasiga 1 ta elektropoezdlar o‘z tashuvlarni amalga oshirmoqda. Ushbu elektropoezdning yo‘lovchi sig‘imi 286 o‘rinli bo‘lib, kuniga o‘rtacha 2,7 mingtadan - 3,5 mingtagacha yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Har kuni qatnaydigan *“Toshkent-Andijon-Toshkent”* *“Toshkent-Buxoro-Toshkent”*, *“Toshkent-Qarshi-Toshkent”* hamda haftasiga 2 marta qatnaydigan *“Toshkent-Namangan-Toshkent”* **tezyurar poezdlari** kuniga 2,5 mingdan – 4 minggacha yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, “O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” AJ tomonidan 6 ta xalqaro yo‘nalishlarda yo‘lovchi poezdlar qatnovini amalga oshirib kelmoqda. Jumladan: *“Toshkent – Samara – Toshkent”*, *“Toshkent – Volgograd – Toshkent”*, *“Toshkent–Novosibirsk–Toshkent”*, *“Nukus-Beyneu-Nukus”*, *“Olma-ota-Toshkent-Olma-ota”*, *“Dushanbe-Toshkent-Dushanbe”*. Bundan tashqari, Germaniyaning **“Lernidee Erlebnisreisen”** turistik kompaniyasi tomonidan 5 ta va Buyuk Britaniyaning **“Golden Eagle Luxury Trains Limited”** turistik kompaniyasi tomonidan 3 ta Markaziy Osiyo bo‘ylab **turistik charter poezdlar** tashkil qilingan.

Havo va temir yo‘l transportida ichki turizmni yanada rag‘batlantirish uchun rasmiy sanalarni nishonlash davrida aholining dam olish kunlariga chipta sotib olish uchun **chegirmalar joriy** etib kelinmoqda.

Respublikada temir yo‘l poezdlarining harakatlanish yo‘nalishlari 12.3-jadvalda keltirib o‘tilgan.

**O‘zbekiston temir yo‘l poezdlarining harakatlanish yo‘nalishi
va muddatlari¹⁴**

Poezd raqami	Yo‘nalish nomi	Harakat kunlari	Vaqt
10	Toshkent – Buxoro	har kuni	09:09
9	Buxoro – Toshkent	har kuni	16:08
4	Toshkent – Qarshi	har kuni	19:00
3	Qarshi – Toshkent	har kuni	07:10
12	Toshkent – Buxoro	har kuni	19:00
11	Buxoro – Toshkent	har kuni	05:37
54	Toshkent – Qo‘ng‘irot	se, chor, pay, juma, sha, yak	14:00
53	Qo‘ngirot – Toshkent	du, chor, pay, jum, sha, yak	11:10
56	Xiva – Toshkent	chor, pay, sha, yak	16:22
58	Toshkent – Shovvot	du, pay, yak	21:00
60	Toshkent – Andijon	du, se, chor, jum, sha, yak	07:55
59	Andijon – Toshkent	du, se, chor, jum, sha, yak	15:55
62	Toshkent – Andijon	chor, pay, sha, yak	17:22
61	Andijon – Toshkent	du, pay, jum, yak	05:57
72	Toshkent – Olot	juft kunlari	22:33
80	Toshkent – Termiz	har kuni	19:25
79	Termiz – Toshkent		17:43
682	Qumqo‘rg‘on – Sariosiyo		08:55
681	Sariosiyo – Qumqo‘rg‘on		16:27
125	Andjon – Xiva		08:28
126	Xiva – Andijon		
129	Andijon – Termiz	se, pay, jum, yak	14:25
127	Andijon – Qo‘ng‘irot	chor, yak	15:52
780	Toshkent – Qarshi	jum, sha, yak	07:00
779	Qarshi – Toshkent	jum, sha, yak	15:25
762	Toshkent – Buxoro	har kuni	07:28
761	Buxoro – Toshkent		15:50
758	Toshkent – Shahrisabz	yakshanba	08:00
757	Shahrisabz – Toshkent	yakshanba	15:38
764	Toshkent – Samarqand	har kuni	08:23

¹⁴ <https://www.mintrans.uz/uz/useful-articles/mahalliy-yo-nalishlarda-harakatlanadigan-yo-lovchi-poyezdlar-qatnov-jadvali-va-jo-nash-vaqti>

763	Samarqand – Toshkent		16:08
770	Toshkent – Buxoro		08:59
769	Buxoro – Toshkent		15:24
766	Toshkent – Buxoro		18:45
765	Buxoro – Toshkent		04:26

Izoh: Qo‘shimcha ma’lumotni Toshkent shahridagi 1005 qisqa telefon raqami, joylardagi temir yo‘l chiptaxonalari hamda ma’lumotlar byurosidan bilib olish mumkin.

Eslatib o‘tamiz, chiptalarni nafaqat temir yo‘l chiptaxonalaridan, balki elektron tarzda ushbu havola orqali xarid qilish imkoniyati mavjud: chipta.railway.uz

Tayanch iboralar: transport, g‘ildirak, arava, turizm transporti, aviatsiya, avtomobil, suv transporti, qonunlar, qarorlar, “Afrosiyob” tez yurar poezdi, transport yo‘nalishlari, kanoelar, poroxod, samolyot, vagon, yo‘lovchi vagonlarning texnik ko‘rsatkichlari.

Nazorat savollari:

1. Mehmondo‘stlik industriyasida transport xizmatlarining o‘rni va roli nimalardan iborat?
2. Transport xizmatining asosiy vositalarini nima tashkil qiladi?
3. Mehmondo‘stlik industriyasida qaysi transport turlaridan foydalaniladi?
4. O‘zbekistonda transport xizmatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishda qanday huquqiy va me‘yoriy hujjatlardan foydalaniladi?
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5611-son Farmonida qanday chora-tadbirlar belgilab berilgan?
6. 2023 yilda Respublikamizga tashrif buyuruvchi turistlarning transport turlari bo‘yicha ulushi qanchani tashkil qilgan?
7. Mamlakatda turizmni rivojlantirishda transport infratuzilmasida qanday muammolarni bartaraf etish joiz deb o‘ylaysiz?

8. Mehmondo'stlik industriyasida transport turlaridan foydalanishning qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?
9. Suv transportining rivojlanishini tushuntirib bering.
10. Respublikamizda suv transport xizmatlari qanday tashkil etiladi?
11. Havo transportining mohiyati va xususiyatini tushuntirib bering.
12. Birinchi samolyot kimlar tomondan ixtiro qilingan?
13. Zamonaviy yo'lovchi samolyotlari qanday parametrlarga ko'ra ajratiladi?
14. O'zbekistonda havo transporti xizmatlaridan foydalanish qanday tartibda yo'lga qo'yilgan?
15. Avtomobil transporti mehmondo'stlik industriyasida qanday ahamiyatga ega?
16. Respublikada avtomobil transport xizmatlari qanday tartibga solinadi?
17. Turistlarga xizmat ko'rsatishda qanday yo'nalishdagi avtomobil xizmatlaridan foydalaniladi?
18. Mehmondo'stlik industriyasida temir yo'l transporti xizmati qanday ahamiyatga ega?
19. Uzoqlik masofasiga qarab yo'lovchi vagonlar qanday tuzilishga ega?
20. O'zbekistonda temir yo'l poezdlari qanday yo'nalishlarda harakatlanadi?

GLOSSARIY

Turizm,

Туризм,

Tourism

Narxlarni farqlash,

Дифференциация цен,

Value Differentiation

Mijozlarni mukofotlash

tizimi,

Система

вознаграждения

клиентов,

Customer reward system

Mehmondo'stlik

industuriyasi,

Индустрия

гостеприимства,

Hospitality industry

Mehmondo'stlik

industuriyasi,

Индустрия

гостеприимства,

Hospitality industry

Mehmondo'stlik

industuriyasi,

Индустрия

гостеприимства,

Hospitality industry

Mehmondo'stlik

industuriyasi,

Индустрия

гостеприимства,

– bu fransuzcha “tourisme” so’zidan olingan bo’lib, - sayr, sayohat, safar degan ma’nolarni anglatadi.

– bu individual talabning narx bo’yicha egiluvchanligiga asoslangan bozorni segmentasiya qilish.

– mehmonlarni ma’lum bir shaklda tovarlar yoki xizmatlarni sotib olishga undashdir.

– turistlarni joylashtirish uchun mas’ul bo’lgan turizm sohasi, shuningdek faoliyati alkogolli ichimliklar sotish, uy-joy, oziq-ovqat va ko’ngilochar tadbirlarni ta’minlashga qaratilgan sohalardir (L.Vagen).

– mehmondo'stlik tamoyillariga asoslangan, mehmonlarga saxiylik va do'stona munosabat bilan ajralib turadigan bunday xizmat turlaridan iborat tadbirkorlik sohasidir (N.Vebster).

– turizm, mehmonxona va restoran biznesi, umumiy ovqatlanish, dam olish va ko’ngil ochish, konferensiyalar va uchrashuvlarni tashkil qilishni birlashtiradi (J.R.Uoker).

– mehmonlarni qabul qilish va xizmat ko’rsatish bilan bog’liq xizmatlar bozoriga ixtisoslashgan tadbirkorlikning turli va ko’p sonli shakllari uchun

<i>Hospitality industry</i>	jamoaviy tushunchadir (R.A.Brymer).
Mehmonxona biznesining kelib chiqishi va rivojlanishini bosqichlari, <i>Этапы зарождения и развития гостиничного бизнеса,</i> <i>Stages of the origin and development of the hotel business</i>	– XIX asr boshlariga qadar-mehmonxona biznesining tarixi; XIX asr boshlari-XX asr boshlari-mehmonxona xizmatlari sohasida turli korxonalarning paydo bo'lishi; XX asr boshlari-XX asr o'rtalari - xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar sonining o'sishi, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash; XX-asr o'rtalaridan boshlab va hozirgacha mehmondo'stlik industriyasining shakllanishi va jadal rivojlanishi.
Turizm, <i>Туризм,</i> <i>Tourism</i>	– sayyohlik qilayotgan va dam olish, ishbilarmonlik va boshqa maqsadlarda o'zining odatdagi muhitidan tashqarida, ketma-ket bir yildan ortiq bo'lmagan davr mobaynida joylashgan shaxslarning faoliyatidir.
Turizmning aktiv turlari, <i>Активные виды туризма</i> <i>Active types of tourism</i>	– dam olish va sayyohat, vaqti chog'lik, sport.
Ko'ngil ochar turlar, <i>Занимательные виды</i> <i>Entertainment</i>	– turizm dasturlarida ma'lum ma'noda turistlar uchun qo'shimcha xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan.
Qumsash turizmi, <i>Ностальгический туризм</i> <i>Kumsash tourism</i>	– bu asosan qarindosh yoki do'stlarini ziyorat qilishga mo'ljallangan bo'lib, o'z mamlkatlaridan ayrim sabablarga ko'ra ko'chib ketgan kishilar bilan bog'liq turizmdir.
Diniy ziyorat, <i>Религиозный туризм,</i> <i>religious or pilgrim tour</i>	– diniy maqsaddagi sayohat va sayrlardan iborat.
Turoperatorlik, <i>Туроператорство,</i>	– bu turistik marshrutlarni va turlar komplektasiyasi (butligi)ni ishlab chiqish

Tour operators

Turoperator,

Туроператор,

Tour operator

Turistik agentliklar,

Туристические

агентства,

Travel agencies

bilan shug'ullanuvchi turistik tashkilotlar.

– bu turistik paket ishlab chiqaruvchidir.

Tomas Kuk,

Томас Кук,

Thomas Cook

Maxsuslashtirilgan

joylashish vositalari,

Средства

специализированного

размещения,

Special Placement Tools

Individual joylashish

vositasi,

Средства

индивидуального

размещения,

Personal Placement Tools

“Lyuks” otel,

“Люкс” отел,

“Lux” hotel

– turizm daromad manbai ekanligini amaliyotda ilk bor isbotladi.

– sanatoriyalar, profilaktoriyalar, dam olish uylari, turistik qo'noqlar va to'xtash joyi, turistik sport bazalari, dam olish bazalari, ovchilar (baliqchilar) uylari, kongress markazlari, kempinglar, botellar, flotellar, rotellar.

– ijaraga beriladigan kvartiralar, kvartiralardagi xonalar, uylar, kottejlar va boshqalar

Kemping,

Кемпинг,

Camping

Rotel,

Ротель,

Rotel

– yuqori darajali mebellar bilan, yaxshi jihozlangan jamoaviy xonalar va nomerlar soniga nisbatan xizmatchilar sonining ko'pligi bilan tavsiflanadi.

– bu avtoturistlar lageri bo'lib, shahardan tashqarida, yozgi uylar yoki palatkalar bilan ta'minlangan bo'ladi.

– ko'chma mehmonxona hisoblanib, bir yoki ikki joyli vagonlar bo'lib, kechki dam olishga mo'ljallangan bo'ladi.

Botel,

Ботель,

Botel

Flotel,

Флотель,

Flotel

– suvda, lekin suzib-ko'chmaydigan, ko'p holda stasionar holga keltirilgan kemalarda tashkil etiladi.

– suzib yuruvchi mehmonxona, maxsus komfortabelli kayuta-nomerlari, aktiv dam olish xizmati, muzokara olib borish, konferensiya, kongress zallari, aloqa vositalari, turli barlar va restoranlardan tarkib topadi.

Yulduzlar sistemasi,

Звездная система,

Star system

– Fransiya, Avstriya, Vengriya, Arabiston, Rossiya va O'zbekiston va boshqa davlatlarda keng qo'llaniladi.

Harflar sistemasi,

Буквенная система,

Letter system

– Gresiyada qo'llaniladi, ya'ni barcha mehmonxonalar juft kategoriyaga: L, A, B, S, D bo'linadi.

Vestibyul guruh xonalari,

Вестибюльные групповые помещения

Group rooms in the lobby

– mehmonxonalar asosiy mehmonlarni qabul qilish va kuzatish xonalar guruhidan iborat.

Ichki oqim,

Внутренний поток,

Internal flow

– xonalar yoki guruh xonalari orasidagi odamlar harakati tushuniladi.

Kirish oqimi,

Входной поток,

Input flow

– mehmonxonaga kiruvchi yashovchilar, yangi kelganlar, mehmonxona xizmatchilari, restoranlarga kiruvchilar, hamda mehmonxonaga keltirilgan mebellar, inventarlar, toza choyshablar, mahsulotlar, bagajlar va h.k. harakati tushuniladi.

Chiqish oqimlari,

Выходные потоки,

Output flows

– mehmonxonalarga kirish oqimiga teskari bo'lgan mehmonxonadan ketayotgan, oziq-ovqat chiqindilari, eskirgan jihozlar, yuk va boshqalar harakati tashkil etadi.

Standart nomerlari,
Стандартные номера,
Standard rooms

Konserj xizmati,
Услуга консьержей
Concierge service

Bronlash,
Бронирование,
Reservation

Viza,
Виза,
Vise

Tranzit vizalar,
Транзитные визы,
Transit visas

Umumiy ovqatlanish,
Общественное питание
General food

Restoran,
Ресторан,
Restaurant

Kabak (Taverna),
Кабак (Таверна)
Kabak (Tavern)

Xarchevnya,
Харчевня,
Xarchevn

Choyxona,
Чайхана,
Teahouse

Traktir,

– bir xonali standart talablariga javob beruvchi xonalar hisoblanadi.

– bu o'z mijozlarining qulayligi va qulayligi haqida qayg'uradigan ma'lum bir muassasa yoki kompaniya tomonidan taqdim etiladigan ixtisoslashtirilgan xizmat.

– mehmonxonaga oldindan joy yoki nomerni buyurtma qilishga aytiladi.

– bu hukumat tomonidan davlat hududiga kirish-chiqish, yashash yoki tranzit o'tish haqidagi berilgan ruxsatnoma.

– berilgan mamlakat orqali ushbu mamlakatdan tashqaridagi manzilga o'tish uchun qo'llaniladi.

- xalq xo'jaligining ilmiy gigiyenik talablar asosida taomlar tayyorlab sotadigan va iste'molchilarga xizmat ko'rsatadigan sohasidir.

- bu so'z fransuzcha “restourer” – “tiklash”, “jonlantirish” degan ma'noni anglatadi.

– bu oddiy odamlar uchun mast qiluvchi ichimliklar beriladigan ichimlik korxonasi.

– bu tamaddi qiladigan bar.

– bu mehmonlar choy ichishi mumkin bo'lgan joy hisoblanadi.

– bu yo'l bo'yida joylashgan quyi

<i>Трактир,</i> <i>Traktir</i>	toifadagi restoran hisoblangan.
To'g'ri ovqatlanishni 5 ta tamoyili, <i>5 принципов правильного питания,</i> <i>5 principles of proper nutrition</i>	– ovqatni faqat ochlik hissi bo'lganda iste'mol qilish; yangi pishirilgan ovqatlarni iste'mol qilish; taomni ruhiy va jismoniy tinch holda iste'mol qilish; sekin, shoshmasdan, yaxshilab chaynab yeyish; ovqatni ko'p is'temol qilishdan tiyilish.
Restoran, <i>Ресторан,</i> <i>Restaurant</i>	– bu odamlar nafaqat ovqatdan, balki atrofdagi muhitdan, xizmat ko'rsatish va mukammal xizmatdan ham alohida zavq oladigan joy.
Gastronomik restoran, <i>Гастрономический ресторан,</i> <i>Gastronomic restaurant</i>	– bu murakkab resepti bilan turli xil taomlarni taklif qiladigan restoran.
Bar (pab yoki taverna), <i>Бар (наб или таверна),</i> <i>Bar (pub or tavern)</i>	– bu restoranning o'ziga xos turi bo'lib, mijoz hisobni to'g'ridan-to'g'ri barning o'zida amalga oshiradi.
Oshxona, <i>Кухня,</i> <i>Cook room</i>	– ovqatlanish uchun eng mashhur va arzon joy.
Keytering, <i>Кейтеринг,</i> <i>Catering</i>	– ziyofatlar o'tkazish (yoki joyida xizmat ko'rsatish).
A-lya-kart menyusi, <i>Меню A-lya-kart,</i> <i>Menu A-lya-kart</i>	– har bir taom uchun alohida narxga ega taomlardan iborat
Table d'hote menyusi <i>Меню Table d'hote,</i> <i>Menu Table d'hote</i>	– belgilangan narxlarda bir xil taomni tanlashni taklif qiladi.
Du jour menyu <i>Меню Du jour,</i>	– navbatchi taomlarni o'z ichiga oladi.

Menu Du jour

Turistik menyu,

Туристическое меню,

Tourist menu

Kaliforniya menyusi,

Калифорнийское меню

California menu

Siklik menyu,

Циклическое меню,

Cyclic menu

Shved stoli,

Шведский стол,

Shved table

Bufet xizmati,

Услуга буфета,

Buffet service

Kafe,

Кафе,

Cafe

“Kneipp” so’zi,

Слова “Книпп”,

The words “Knipp”

Radio boshlovchi Martin

Blok,

Радиоведущий Мартин Блок,

Radio presenter Martin Block

Event-marketing,

Эвент-маркетинг,

Event marketing

Nuanslar,

Нюансы,

Nauns

– mijozlar e’tiborini jalb qilish uchun u taomning arzonligi va ozuqaviy qiymati asosida shakllanadi

– ba’zi Kaliforniya restoranlari kunning istalgan vaqtida ovqatga buyurtma berish xizmatini taklif qiladi.

– ma’lum vaqtdan keyin takrorlanadigan menyu.

– XIX asr boshlarida shvedlar tomonidan ixtiro qilingan va hozirgacha ishlatiladi va keng tanlovini va bepul foydalanish imkoniyatiga ega turli xil taomlarni taklif etadi.

– bu mijozlarga musiqiy hamrohlik bilan birga alkogolli ichimliklar bilan xizmat ko’rsatish usuli.

– bu cheklangan taomlar tanlovi va spirtli ichimliklar assortimentiga ega restorandan kichik bo’lgan korxona hisoblanadi.

– nemis tilida “Kneipe”dan kelib chiqqan bo’lib, alkogolli ichimliklar taklif qilinadigan gastronomik korxona.

– birinchi DJ (dijeychi) bo’lgan.

– kompaniya xodimlari va iste’molchilar o’rtasidagi bevosita muloqotning eng samarali vositasi.

– noziklik, biror narsaning ma’nosini chuqurlashtiradigan yoki o’zgartiradigan kichik tafsilot yoki xususiyati.

Xavfsizlik xizmati,
Услуга безопасности,
Security service

Klerklar,
Клеркы,
Clerks

Konsyerj,
Консерж,
Concierge

Shveysar,
Швейцар,
Doorman

Pajlar
Паж,
Bellman

Telefon operatorlari,
Операторы телефона,
Telephone operators

Ekskursant,
Экскурсант,
Excursionist

Motivasiya,
Мотивация,
Motivation

Rag'batlantirish,

– mehmonlarni himoyalash, mehmonxona moddiy boyligini turli jinoyatlardan himoyalash vazifasini bajaradi.

– mehmonlarni qabul qilishda kutib olib, ular bilan muloqotda bo'lib, rasmiylashtirish, nomerlarga bo'lish, joylashtirish, ularni mehmonxonadan chiqarish va turli boshqa ishlarni bajaradi.

- mehmonxonada teatr va muzeylarga chiptalarni bronlash, mehmonlarni aeroportdan olib kelish va olib borish, ular uchun avtomobillarga buyurtma berish ishlarni bajaradi.

– mehmonlarga peshvoz chiqib kutib oladi, bunda eshikni ochadi, taksi chaqiradi, mehmon avtomobilini joylashtirishga rahbarlik qiladi.

– mehmonning qo'l yukini ko'targan holda nomeriga olib boradi.

– yoqimli ovoz bilan mehmonlarni aloqasini o'rnatishi, aloqa to'lovini nazoratini olib borishi, mehmonlarni uyg'otish va h.k. ishlarni bajaradi.

– vaqtincha bo'lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to'rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxs.

– bu shaxsiy va umumiy tashkiliy maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanish uchun o'zini va boshqa odamlarni rag'batlantirish jarayoni.

- bu shaxsga o'zi uchun muhim bo'lgan

*Вознаграждение,
Excite*

**Korporativ ijtimoiy
siyosat,**

*Корпоративная
социальная политика,
Corporate Social Policy*

Korporativ madaniyat,

*Корпоративная
культура,
Corporate culture*

Korporativ imij,

*Корпоративный имидж,
Corporate image*

Imij,

Имидж,

Image

Imij,

Имидж,

Image

Dam olish funksiyasi,

Функция отдыха,

Rest function

Nazariy bilim,

Теоретические знания,

Theoretical knowledge

Texnologik bilim,

Технологические знания,

narsalar yordamida ta'sir qilish, uni zarur harakatlarga undash jarayoni.

– bu kompaniya xodimining ijtimoiy maqomini oshirishga qaratilgan tadbirlar va dasturlar.

– bu tashkilot xodimlarini moddiy to'lovlarsiz rag'batlantirishni ta'minlaydigan va har bir xodimga o'z mehnat funksiyalarini bajarishi uchun qulay muhit yaratishga hissa qo'shadigan hodisa.

– bu mehmonxona korxonasini tashrif buyurgan mehmonlarga taqdim etish.

– inglizcha so'z bo'lib, “tasvir”, “obraz”, “timsol” ma'nolarini anglatadi.

– bu biror narsa, hodisa yoki inson haqida jamoa tafakkurida sun'iy ravishda shakllantiriladigan obraz bo'lib, uning maqsadi jamoa ongiga psixologik va empirik ta'sir o'tkazish hamda maqsadli ravishda ma'lum obrazni yaratishidan iboratdir.

– korporativ madaniyat elementlarini idrok etish jarayonida xodimlarning ma'naviy kuchini tiklash.

– bu atrofdagi voqyelik obyektlari haqidagi ilmiy bilish shakli.

– bu qoidalar, ko'rsatmalar va standartlarni amalga oshirish.

Technological knowledge

Ekstremal professional kompetensiya, – bu xodimning turli xil favqulodda vaziyatlarni yengish qobiliyatini anglatadi.

Высочайшая

профессиональная

компетентность,

Highest professional competence

Xizmat,

Услуга,

Services

Marketing,

Маркетинг,

Marketing

Marketing,

Маркетинг,

Marketing

– bu mijozning ehtiyojlarini qondirish uchun muayyan harakatlarni bajarishga qaratiladigan tushunchadir.

– (Marketing) ingliz tilidan olingan bo‘lib, “[bozor](#)” faoliyatini o‘rganish ma’nosini anglatadi.

– bu bozor talabini, mahsulot sotish imkoniyatlarini, xizmatlarni sotishni o‘rganish asosida iqtisodiy faoliyatni tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Bozor segmentasiyasi,

Сегментация рынка,

Market segmentation

- bu bozorni xaridorlarning aniq guruhlariga bo‘linishi.

Maqsadli bozor,

Целевой рынок

Target market

– bu mehmonxona uchun bozor segmentlarining eng istiqbolli va daromadli guruhi yoki barcha marketing kuchlari ishtirok etadigan faqat bitta segmentdir.

Pozisiyalash,

Позиционирование,

Positioning

– bu mijozlar ehtiyojlarini va mavjud mahsulotlarga nisbatan bozorda aniq mehmonxona mahsulotlarining o‘rnini aniqlash jarayonidir.

PR,

ПР,

PR

– bu samarali mavjudligi va obro’sini oshirish uchun kompaniya haqida ijobiy fikrni shakllantirish.

Menejer,

- mas’uliyati boshqaruv faoliyatini o‘z

*Менеджер,
Manager*

Korxonani rejalashtirish,
*Планирование
предприятия,
Enterprise Planning*

Mehnat motivasiyasi,
*Мотивация труда,
Motivation of labor*

Struktura,
*Структура,
Structure*

Tashkilotning tuzilishi,
*Структура организации,
Organizational structure*

Ichki o'zgaruvchilar,
*Внутренние переменные,
Internal variables*

Tashkiliy tuzilma,
*Организационная
структура,
organization structure*

Transport xizmatlari,
*Транспортные услуги,
Transportation services*

**Temir yo'l transport
xizmati,**
*Железнодорожное
транспортное
обслуживание,*

ichiga olgan kompaniya xodimi.

– kelajakdagi maqsad va vazifalarni, korxonani boshqarish va rivojlantirish vositalari va usullarini aniqlash uchun axborotni qayta ishlashning tizimli jarayoni tushuniladi.

– bu insonni mehnatga undaydigan va bu faoliyatga ma'lum maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan yo'nalish beradigan ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlar yig'indisidir.

– obyektning ichki tuzilishini aks ettiradi.

– bu tashkilot maqsadlariga eng samarali erishishga imkon beradigan ma'lum bir shaklda qurilgan boshqaruv darajalari o'rtasidagi bog'liqlik.

– bu tashkilot ichida joylashgan, boshqarilishi va tartibga solinishi mumkin bo'lgan omillar.

– bu tashkilotning boshqaruv bo'linmalari va lavozimlarining tarkibi, munosabatlari va bo'ysunishi tushuniladi.

– mahalliy va xorijiy turistlarni tashishga mo'ljallangan vositalar.

– faqat odamlarni temir yo'l poyezdlarida tashish va xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan transport xizmati tushuniladi.

Railway transport services

Avtotransport xizmati,

Автотранспортная

услуга,

Trucking service

– mijozlarga quruqlikda harakatlanuvchi avto transportlar va ular orqali xizmat ko'rsatish tushuniladi.

Havo transporti xizmati,

Услуги воздушного

транспорта,

Air transport services

–parvoz qiluvchi turli samolyotlar orqali xizmat ko'rsatiladigan transport hisoblanadi.

Kruiz,

Круиз,

Cruise

– bu turar joy, kuniga uch marta ovqatlanish, xizmat ko'rsatish va kemada ko'ngilochar dasturlarni o'z ichiga olgan xizmatlar to'plamidir.

Vagon,

Вагон,

Car

– temir yo'l harakati vositalarining yo'lovchi yoki yuk tashish uchun mo'ljallangan vosita.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 18 iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi” bo‘yicha PF-5611-son Farmoni (2019 yil 5 yanvar).
3. Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvar PQ-2724-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3182142>
4. Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 mart PQ-3589-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3579006>
5. Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvar PQ-2724-sonli qarori // <https://president.uz/oz/lists/view/179>
6. Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 mart PQ-3589-sonli qarori // <https://president.uz/oz/lists/view/1538>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3589-son qarori. 2018 yil 6 martda.
8. O‘zbekiston Respublikasi Parvozlar xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig‘ining 2007 yil 12 sentyabrda tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi samoviy hududida fuqaro va eksperimental aviatsiyasining parvoz qilish aviatsiya qoidalarini (O‘ZR AQ-91) tasdiqlash to‘g‘risida”gi 141-son buyrug‘i.

9. Атикеева С.Н. и др. Основы индустрии гостеприимства. Учебное пособие. 2021.

10. Mamatqulov X.M., Abduxamidov S.A., Xamitov M.X. Turizm infratuzilmasi: o'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2020. – 282 с.

11. J.M.Qurbonov, Z.E.Mamarasulov, J.J.Qurbonov. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish (I-qism). SamISI, 2011. 188 b.

12. J.M.Qurbonov, Z.E.Mamarasulov, J.J.Qurbonov. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish (II-qism). SamISI, 2011 yil, 188-bet.

13. T.Xudayshukurov, I.Shukurov, Z.E.Mamarasulov, D.Mirzaaxmadov. Kasbiy etika va etiket. Darslik. T.: "Iqtisod-moliya", 2021 y.

14. Елканова А.И. и др. Основы индустрии гостеприимства.

15. Корпоративный имидж: технологии формирования для максимального роста бизнеса/ А. В. Уляновский. – Изд. 2-е дораб.: Эксмо; Москва; 2008.

16. Корпоративная и организационная культура [Электронный ресурс]: учебник – Эл. изд. - Электрон. текстовые дан. (1 файл pdf: 131 с.). - Козилова Л.В., Чвякин В.А., Волкова Ю.А. 2022. – Режим доступа: http://scipro.ru/conf/corp&org_culture.pdf. Sist. trebovaniya: Adobe Reader; ekran 10'.

17. Sadikov T.B., Nurfayziyeva M.Z. Turizm va mehmondo'stlik. O'quv qo'llanma – T.: «IQTISODIYOT», 2019. – 132 b.

18. Sh.To'laganova; U.Boymatova. Marketing asoslari. O'quv qo'llanma. «IQTISOD-MOLIYA», 2007. - 6-bet.

19. Avtomobil yo'llarining rivojlanish tarixi va aloqa yo'llari. Q.X.Azizov, S.I.Sodiqov, A.X.O'roqov, M.Darabov, R.A.Sayfutdinova, A.I.Xoliqov. Professor Q.H.Azizov tahriri ostida. – T.: TAYLQEI. 2020. 154 bet. (I-kitob).

20. Kamilova F.K "Xalqaro turizm marketingi" Darslik. –T.: TDIU 2007 y.-292 b.

21. Агамирова Е.В. Управление персоналом в туризме и

гостиннично-ресторанном бизнесе: Практикум. - М.: Издательско - торговая корпорация «Дашков и К°», 2006. - 176 с. 2 экз.

22. Медлик С. Гостиничный бизнес. Учебник для студентов вузов, обучающихся по специальностям сервиса / Медлик С., Х. Инграм; (пер. с англ. А.В. Павлов)–М: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. - 239 с

23. Дурович А.П. Маркетинг в туризме: учеб.пособ. 4-е изд., стереотип. –Мн.: Новое знание, 2004. - 496с.

24. Белянский В.П. Прогнозирование в индустрии гостеприимства и туризма: Учебник. Под общей ред. Заслуженного деятеля науки Российской Федерации, д.э.н., проф. В.П. Белянского. – М.: Изд-во Рос. экон. акад., 2005. – 278 с.

25. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STANDARTI «Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi». O‘z DSt 3296:2023. 2023 yil 7-iyul. 05-1560-son buyuruq.

Internet saytlari:

1.<https://yandex.uz/search/?text=O‘zbekistonda+mehmonxonalarning+kategoriyalarga+bo‘linishi&clid=2331541&banerid=6302000000%3A65f51540659e8548da289fe6&win=637&lr=10334>

2. <https://uzbektourism.uz/news/view?id=2865>

3. <https://daryo.uz/k/2023/09/03/ozbekistonda-mehmonxonalargayulduz-toifasini-berish-boyicha-yangi-davlat-standarti-qabul-qilindi>

4. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/to-qimachilik/imizh-a-ida-umumiy-tushuncha>

5. <https://kun.uz/kr/news/2024/02/22/ozbekistonga-2023-yilda-qancha-turist-kelgani-malum-qilindi>

6.https://studref.com/372147/tovarovedenie/korporativnaya_kultura_restorana

7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Marketing_atamasi

8.<https://staff.tiame.uz/storage/users/36/presentations/xcz9n4IB2OJCExnvNCsMuSBiHP3eVm2MCXYJTvIJ.pdf>

9.<https://sputniknews.uz/20230604/ozbekiston-turistlar-35673529.html>

10. <https://cdn.uza.uz/2023/02/27/04/35/vrKo4139QB0RVM9mcDODcs01Zl6A6TJw.pdf>
11. <https://kun.uz/news/2023/08/25/ozbekistonda-aviakompaniyalar-soni-8-taga-yetdi>
12. <https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/transport/vagonlar-va-vagon-h-zhaligi>
13. <https://www.mintrans.uz/uz/useful-articles/mahalliy-yo-nalishlarda-harakatlanadigan-yo-lovchi-poyezdlar-qatnov-jadvali-va-jonash-vaqti>
14. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonda-turizm-sohasida-kadrlar-masalasida-muammolar-bormi_530272

Z.E. MAMARASULOV

MEHMONDO‘STLIK INDUSTRIYASI

O‘QUV QO‘LLANMA

Muharrir: Z.N. Bobodustov

Musahhih: M.O. Mardiyeva

Texnik muharrir: N. Ergashev

*O‘quv qo‘llanma institut Kengashining 2024 - yil 27 - sentyabrdagi
majlisda muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. (2-sonli majlis
bayoni).*

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand - 2024

1047



ISBN: 978-9910-720-87-1

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)

Nashrga ruxsat etildi: 19.11. 2024 y.

© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti.

20.11.2024 yilda chop etildi.

Qog‘oz bichimi A5, 60x84¹/₁₆, Ofset qog‘ozi.

“Times New Roman” garniturası.

Nashr bosma tabog‘i 19.87

Buyurtma № 0133A/24. Adadi 100 nusxa

**Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.**

LICENSE № 025316.

REESTR № X-119112.

Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko‘chasi 60-uy.